ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 2,3

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 20.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 20.06.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998990 377 77 23, +99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 20.06.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

Professor Ibodulla Mirzayev ilmiy maktabining shakllanishi va taraqqiyoti 7

ПАНЖИЕВ НОРМАХМАТ ПАНЖИЕВИЧ
Инициальные консонантные кластеры в современном узбекском языке: инвентарь, структурные типы и статистическая представленность (в сопоставлении с русским языком)..... 13

UMURQULOV ZAFAR BEKPO‘LATOVICH
Til – madaniyat ko‘zgusi 18

IBRAGIMOV JASURBEK TO‘LQINJON O‘G‘LI
Epitet tematikasi (“Alpomish” dostoni misolida)..... 23

ИШАНХАНОВА МУХЛИСАБОНУ ТУРГУНОВНА
Морфологические категории арабского языка в когнитивной интерпретации эпохи NAHḌA..... 27

SULEYMANLI ATILLA NAZIM O‘G‘LU
Ozarbayjon ma’rifatparvarligi va o‘zbek jadidchiligida milliy o‘zlikni anglash g‘oyasining genezisi 33

SAMANDAROVA GULHAYO ERKIN QIZI
Ijtimoiy tarmoqlarda o‘zbek tilining rivojlanish tendensiyalari 42

QURBANBAYEVA NILUFAR ILXAMOVNA
O‘zbek va ingliz tillarida olqish, duo va tilak so‘zlarining lingvokulturologik xususiyatlari 47

KARIMOV ABDULATIF ABDUG‘AFOROVICH
Til tizimini maydonlar orqali tushunish g‘oyasining vujudga kelishi 52

XURSANOV MAXMUD G‘AYRAT O‘G‘LI
Termiz shahri ko‘cha nomlarining yasalish xususiyatlari 59

МУНДАРИЖА

TURG‘UNOVA MAFTUNAXON JAMOLDIN QIZI
Topishmoqlarni tasniflash muammolari 63

MAXAMMATOVA FERUZA OLIMOVNA
«Vaqt» konseptining badiiy ifodalanishi..... 67

JUMANOVA ORZIGUL
Cho‘lponning «Kecha va kunduz» romanidagi maqollarning
inglizcha tarjimalarida lingvomadaniy konseptlarning ifodalanishi 71

IKROMOVA CHAROSXON
G‘afur G‘ulom «Shum bola» asaridagi monosemantik
va polisemantik so‘zlar tahlili 75

QURBONOVA KAMOLA ABDURAHMONOVNA
Kognitiv tilshunoslikda “Figura-fon” tamoyili haqida 78

ADABIYOTSHUNOSLIK

OTAQULOVA DILDORA OYBEK QIZI
Tesha Saydaliyev she’riyatida mavzu va g‘oya uyg‘unligi 81

ЭШОНҚУЛОВ ИЛҲОМ АБДУСАЛОМОВИЧ
Мирсиддиқхон Ҳашмат тазкираларининг илмий
аҳамияти ва адабий қиймати..... 84

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2026; 7
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

Fanimiz fidoyilari



PROFESSOR IBODULLA MIRZAYEV ILMIY MAKTABINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI

O‘zbek filologiyasi tarixida ilmiy izlanishlarini bir yo‘nalish bilan cheklamagan, tilshunoslikning turli sohalarini yagona metodologik tizim asosida rivojlantira olgan olimlar ko‘p emas. Professor Ibodulla Kamolovich Mirzayev ana shunday serqirra tadqiqotchilardan biridir. U tarjimashunos, stilist, lingvopoet, qiyosiy tilshunos hamda ilmiy maktab yaratgan ustoz sifatida o‘zbek filologiyasi taraqqiyotida munosib o‘rin egallaydi. Olimning ilmiy faoliyati tarjima nazariyasi, fransuz tilshunosligi, lingvostilistika, lingvopoetika va badiiy matn tahlili kabi bir-biri bilan uzviy bog‘liq yo‘nalishlarni qamrab oladi. Mazkur yo‘nalishlarning barchasini yagona ilmiy konsepsiya asosida uyg‘unlashtirgani uning ilmiy merosining eng muhim xususiyatlaridan biridir.

Professor Mirzayevning ilmiy tafakkuri shakllanishida 1971–1974-yillarda Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg) davlat universitetida o‘tgan aspirantlik davri alohida ahamiyat kasb etdi. Bu yillarda u ikki yirik ilmiy maktab vakillari – roman tilshunosligi kafedrasi professori Nadejda Nikolayevna Teterevnikova hamda turkiy filologiya kafedrasining taniqli olimi, shoir va tarjimon Sergey Nikolayevich Ivanov rahbarligida ilmiy izlanishlar olib bordi. G‘arbiy Yevropa tilshunosligi bilan turkiy filologiyaning nazariy yutuqlari aynan shu davrda yosh olim tafakkurida tabiiy ravishda uyg‘unlashdi.

Aspirantlik yillaridayoq Mirzayev fransuz tilshunosligining klassik maktablarini chuqur o‘rgana boshladi. Ayniqsa, mashhur shveysariyalik tilshunos, Ferdinand de Sossyurningning eng iste’dodli shogirdi yaratgan «Stylistique française» («Fransuz stilistikasi») asari yosh tadqiqotchining ilmiy qarashlariga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Mirzayev ushbu fundamental asarni o‘zbek tiliga tarjima qilish ishini boshlab, uning ayrim bob va parchalarini ilmiy nashrlarda e’lon qildi. Garchi tarjima to‘liq kitob holida chop etilmagan bo‘lsa-da, bu ish o‘zbek filologiyasida fransuz stilistikasi bilan bevosita tanishishga xizmat qilgan dastlabki ilmiy tajribalardan biri bo‘ldi.

Charles Ballyning ekspressiv stilistika haqidagi nazariyasi Mirzayevning keyingi ilmiy faoliyatini belgilab berdi. U badiiy matnni tushunish va tarjima qilish uchun grammatik hamda lug‘aviy bilimning o‘zi kifoya emasligini, matnning uslubiy, estetik va poetik qatlamlarini ham chuqur anglash zarurligini anglab yetdi. Ana shu ilmiy xulosa keyinchalik olimning tarjimashunoslikdan lingvopoetikaga tomon izchil o‘tishiga zamin yaratdi.

Shu tariqa professor Ibodulla Mirzayev ilmiy faoliyatining dastlabki bosqichidayoq tarjima, stilistika va lingvopoetikani bir-biridan ajralmas ilmiy yo‘nalishlar sifatida talqin qila boshladi. Keyingi yillarda yaratgan nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari aynan ana

shu yaxlit metodologik qarashning mantiqiy davomi bo‘ldi. Bugun, oradan yarim asrdan ortiq vaqt o‘tgan bo‘lsa-da, uning ilmiy merosi o‘zbek tarjimashunosligi va lingvopoetikasining nazariy taraqqiyotida muhim manbalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Tarjimashunoslikdan lingvopoetikagacha: ilmiy tafakkurning shakllanishi

Professor Ibodulla Mirzayevning ilmiy faoliyatini kuzatar ekanmiz, unda tasodifiy yoki bir-biridan uzilgan tadqiqot yo‘nalishlarini emas, balki ichki mantiq va izchillikka ega bo‘lgan uzluksiz ilmiy evolyutsiyani ko‘ramiz. Uning izlanishlari tarjima nazariyasidan boshlanib, stilistika orqali lingvopoetikaga qadar tabiiy ravishda rivojlandi. Bu taraqqiyot alohida mavzular almashinuvi emas, balki badiiy matnni tobora chuqurroq anglashga intilgan filolog tafakkurining mantiqiy yo‘lidir.

Aspirantlik yillarida fransuz stilistikasini chuqur o‘rganish, ayniqsa, Charles Ballyning ekspressiv stilistika haqidagi qarashlari bilan yaqindan tanishish Mirzayevning ilmiy dunyoqarashida muhim burilish yasadi. U Ballyning tilni faqat grammatik tizim emas, balki inson hissiyoti, tafakkuri va estetik munosabatini ifodalovchi tirik hodisa sifatida talqin etish g‘oyalarini chuqur o‘zlashtirdi. Shu bois yosh tadqiqotchi uchun tarjima oddiy til almashtirish emas, balki uslub, obraz va badiiy ta’sirni qayta yaratish san’atiga aylandi.

Shu davrda u fransuz stilistikasiga oid ilmiy adabiyotlarni muntazam mutolaa qildi, Charles Ballyning «Stylistique française» asarini o‘zbek tiliga tarjima qilish ustida ishladi hamda uning ayrim bo‘limlarini ilmiy jamoatchilikka taqdim etdi. Bu ish nafaqat tarjima tajribasi, balki o‘zbek filologiyasida fransuz lingvostilistik tafakkurini targ‘ib etishga qaratilgan dastlabki ilmiy qadamlardan biri bo‘ldi.

Badiiy matnlar ustida olib borilgan izlanishlar Mirzayevni muhim ilmiy xulosaga olib keldi: matnni to‘g‘ri tarjima qilish uchun avvalo uni to‘g‘ri tushunish kerak, matnni to‘g‘ri tushunish esa uning grammatik qurilishini bilish bilangina emas, balki uslubiy, poetik, madaniy va estetik qatlamlarini ham anglash bilan bog‘liq. Ana shu xulosa keyinchalik uning barcha ilmiy izlanishlarining metodologik asosiga aylandi.

Professor Mirzayev shu davrdan boshlab filologiyaning turli yo‘nalishlarini o‘zaro bog‘liq holda o‘rganishga kirishdi. U stilistika bilan bir qatorda poetika, ritorika, matnshunoslik, adabiyot nazariyasi va tarjimashunoslikka oid fundamental manbalarni chuqur tahlil qildi. Uning nazarida badiiy matn faqat til birliklari yig‘indisi emas, balki estetik tafakkur mahsuli bo‘lib, uni anglash ham kompleks filologik yondashuvni talab qiladi.

Bu ilmiy izlanishlar keyinchalik olimning lingvopoetika haqidagi qarashlarini shakllantirdi. Mirzayev lingvopoetikani tilshunoslik va adabiyotshunoslik tutashgan nuqtada vujudga keladigan, badiiy matnning estetik mohiyatini ochib beruvchi mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida talqin qildi. Uning fikricha, filologning asosiy vazifasi matnni nafaqat o‘qish yoki sharhlash, balki uning ichki badiiy mexanizmini, obrazlar tizimini, uslubiy vositalarini va estetik ta’sir kuchini ilmiy asosda izohlashdan iborat.

Aynan shu sababli professor Mirzayevning keyingi ilmiy faoliyati tarjima nazariyasidan lingvopoetik tadqiqotlarga tomon yo‘naldi. 1987–1989-yillarda u yana Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg) davlat universitetiga qaytib, professor Sergey Nikolayevich Ivanov rahbarligida ilmiy izlanishlarini davom ettirdi. Bu davrda u badiiy matnning lingvopoetik tahliliga bag‘ishlangan yirik tadqiqot ustida ishladi. Mazkur izlanishlar keyinchalik O‘zbekiston Fanlar akademiyasi tizimida muvaffaqiyatli himoya qilingan doktorlik dissertatsiyasining nazariy asosini tashkil etdi.

Shunday qilib, professor Ibodulla Mirzayevning ilmiy faoliyatida tarjimashunoslik, stilistika va lingvopoetika bir-biridan mustaqil yo‘nalishlar emas, balki yagona ilmiy konsepsiyaning uzviy bosqichlari sifatida namoyon bo‘ladi. Aynan mana shu yaxlit yondashuv uning ilmiy merosining eng muhim xususiyatlaridan biri bo‘lib, bugungi o‘zbek filologiyasida ham o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Xos so‘zlar (realiyalar) – til va madaniyat tutashgan nuqta

Professor Ibodulla Mirzayev ilmiy faoliyatining dastlabki yirik natijasi 1975-yilda Leningrad davlat universitetida muvaffaqiyatli himoya qilingan «Fransuzcha xos so‘zlar (realiyalar)ning o‘zbek tiliga tarjimasi muammolari» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi bo‘ldi. Mazkur tadqiqot o‘zbek tarjimashunosligi tarixida realiyalar tarjimasiga bag‘ishlangan dastlabki fundamental ilmiy ishlardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etdi. Unda tarjima nazariyasining eng murakkab va bahsli masalalaridan biri bo‘lgan milliy-madaniy birliklarni boshqa til vositalari orqali adekvat ifodalash muammosi chuqur

ilmiy asosda tadqiq qilindi.

Dissertatsiyaning metodologik yangiligi, avvalo, realiya hodisasining mohiyatini yangicha talqin etganida namoyon bo‘ladi. Muallif realiyani oddiy lug‘aviy birlik yoki predmet nomi sifatida emas, balki xalqning tarixiy tajribasi, turmush tarzi, urf-odatlari, milliy tafakkuri va madaniy xotirasini o‘zida mujassamlashtirgan lingvomadaniy birlik sifatida izohlaydi. Shu tariqa realiya tarjimasi leksik muammo doirasidan chiqarilib, til, tafakkur va madaniyat kesishgan nuqtadagi murakkab filologik hodisa sifatida talqin qilinadi.

Dissertatsiyada «realiya» terminining etimologiyasi va ilmiy taraqqiyoti atroflicha tahlil qilinadi. Shuningdek, realiyalar tarixiy, etnografik, maishiy, geografik, ijtimoiy-siyosiy va madaniy guruhlarga ajratilib, ularning har biri tarjimada yuzaga keltiradigan o‘ziga xos qiyinchiliklar boy faktik material asosida yoritiladi. Muallif nazariy xulosalarini 1929–1975-yillar davomida fransuz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan badiiy hamda ilmiy asarlar tahliliga tayangan holda asoslaydi. Ana shu jihati bilan dissertatsiya nazariy mulohazalar majmui emas, balki boy empirik materialga tayangan fundamental tadqiqot sifatida qadrlanadi.

Professor Mirzayev xos so‘zlarni tarjima qilishning asosiy usullarini ham ilmiy tizimga soladi. U transkripsiya, kalka, tavsifiy tarjima va kontekstual almashtirish strategiyalarining imkoniyatlari hamda qo‘llanish doirasini batafsil tahlil qiladi. Muallifning asosiy xulosasi shundan iboratki, tarjimada yagona universal usul mavjud emas; har bir realiyaning semantik, uslubiy va madaniy xususiyatidan kelib chiqib, eng maqbul strategiyani tanlash lozim. Bu yondashuv bugungi funksional tarjima nazariyasining asosiy tamoyillari bilan hamohangdir.

Dissertatsiyaning eng muhim ilmiy g‘oyalaridan biri shundan iboratki, tarjimada narsa emas, balki uning tildagi nomi va shu nom orqali ifodalangan madaniy mazmun tarjima qilinadi. Ushbu fikr o‘sha davr tarjimashunosligida hukmron bo‘lgan formal ekvivalentlik qarashlariga nisbatan yangicha metodologik yondashuv edi. Muallif realiyani tilning madaniy kodi sifatida baholab, tarjimonning asosiy vazifasi ana shu kodni boshqa til vositalari orqali imkon qadar to‘liq qayta yaratishdan iborat ekanini ilmiy dalillar bilan asoslaydi.

Bugungi kunda kognitiv tarjimashunoslik, lingvokulturologiya va madaniyatlararo kommunikatsiya nazariyalarida keng qo‘llanilayotgan madaniy kod, milliy konsept, lingvomadaniy birlik, madaniy xotira kabi tushunchalar mazmunan professor Mirzayev ilgari surgan qarashlar bilan mushtarakdir. Bu esa olimning ilmiy tafakkuri o‘z davridan ilgarilab ketganini ko‘rsatadi.

Dissertatsiyaning yana bir muhim fazilati muallifning ilmiy xolisligi va mustaqil tafakkuridir. U o‘sha davr tarjimashunosligining yetakchi nazariyotchilari bilan erkin ilmiy muloqotga kirishadi, ularning nazariy qarashlarini tanqidiy tahlil qiladi va zarur o‘rinlarda o‘zining dalillarga asoslangan xulosalarini ilgari suradi. Bu holat yosh tadqiqotchining ilmiy jasorati va metodologik mustaqilligidan dalolat beradi.

Bugun, oradan yarim asr o‘tgan bo‘lsa-da, mazkur dissertatsiya o‘z ilmiy ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Aksincha, sun’iy intellekt, mashinali tarjima va global madaniy muloqot sharoitida unda ilgari surilgan nazariy g‘oyalar yangi mazmun kasb etmoqda.

Ilmiy bahs madaniyati va mustaqil ilmiy pozitsiya

Professor Ibodulla Mirzayevning nomzodlik dissertatsiyasini alohida qadrlashga asos beradigan jihatlardan biri uning yuksak ilmiy bahs madaniyatidir. Yosh tadqiqotchi o‘z davrining eng nufuzli tarjimashunos olimlari qarashlarini shunchaki bayon qilish yoki takrorlash bilan cheklanmaydi. Aksincha, u har bir nazariy fikrni boy faktik material asosida sinovdan o‘tkazadi, kuchli va zaif tomonlarini xolis baholaydi hamda zarur hollarda o‘zining mustaqil ilmiy xulosalarini ilgari suradi. Bu esa uning ilmiy tafakkuri tayyor qoliplar asosida emas, balki dalil, mantiq va tahlil asosida shakllanganini yaqqol ko‘rsatadi.

Dissertatsiyada sovet tarjimashunoslik maktabining yirik vakillari – Andrey V. Fedorov, Korney Chukovskiy, Vilen N. Komissarov hamda Grigoriy Etkindning nazariy qarashlari chuqur tahlil qilinadi. Muallif ularning har biriga hurmat bilan munosabat bildiradi, ilmiy xizmatlarini e’tirof etadi, biroq hech bir fikrni mutlaq haqiqat sifatida qabul qilmaydi. Ilmiy haqiqat mezoni sifatida u faqat dalil, matn va qiyosiy tahlilni tanlaydi.

Mirzayev, xususan, Fedorovning lingvistik ekvivalentlik nazariyasini yuksak baholaydi. Biroq u ekvivalentlikni faqat grammatik yoki leksik moslik bilan cheklash mumkin emasligini, tarjimada milliy-madaniy komponent ham hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini isbotlaydi. Muallifning fikricha, realiyalar tarjimasida formal moslikdan ko‘ra, milliy mazmun va madaniy axborotni saqlash ustuvor vazifa hisoblanadi.

Korney Chukovskiyning badiiy tarjima haqidagi qarashlari ham alohida tahlil qilinadi. Mirzayev tarjimaning badiiy ta’sirini saqlash zarurligini inkor etmaydi, ammo estetik go‘zallikni ta’minlash bahonasida milliy koloritni yo‘qotish yoki realiyalarni almashtirish ilmiy jihatdan o‘zini oqlamasligini ko‘plab misollar

orqali ko‘rsatadi. Uning nazarida haqiqiy tarjima mahorati asl matnning milliy ruhini, madaniy rang-barangligini va uslubiy o‘ziga xosligini saqlab qolishda namoyon bo‘ladi.

Vilen Komissarovning ekvivalentlik darajalari haqidagi nazariyasi ham dissertatsiyada tanqidiy ruhda ko‘rib chiqiladi. Professor Mirzayev realiyalar tarjimasida pragmatik va lingvomadaniy omillar ko‘pincha formal ekvivalentlikdan ustun turishini ta’kidlaydi. Shu tariqa u tarjimaning kommunikativ va madaniy vazifalarini birinchi o‘ringa qo‘yadigan yondashuvni asoslaydi.

Dissertatsiyada Grigoriy Etkindning badiiy tarjima va poetik uslub haqidagi qarashlariga ham murojaat qilinadi. Mirzayev Etkindning stilistik tahlilga bergan yuksak bahosini qo‘llab-quvvatlaydi, biroq tarixiy va milliy realiyalarni tarjima qilish masalasi uning tadqiqotlarida yetarli darajada yoritilmaganini qayd etadi. Shu bilan birga, Etkindning badiiy matnni lingvostilistik tahlil qilishga oid metodologik tamoyillari keyinchalik Mirzayevning lingvopoetik qarashlari shakllanishiga ham samarali ta’sir ko‘rsatganini ko‘rish mumkin.

Dissertatsiyaning yana bir muhim xususiyati shundaki, undagi barcha nazariy xulosalar keng faktik material bilan mustahkamlangan. Muallif yuzlab tarjima misollarini qiyosiy tahlil qilib, o‘z xulosalarini statistik kuzatishlar, uslubiy tahlillar va kontekstual izohlar orqali asoslaydi. Bu esa tadqiqotning ilmiy ishonchliligini yanada oshiradi.

Professor Mirzayevning ilmiy bahs uslubi bugungi yosh tadqiqotchilar uchun ham ibrat maktabidir. U ilmiy polemikani shaxslar bilan emas, g‘oyalar bilan olib boradi; e’tiroz bildirganda ham dalilga tayanadi, tanqid qilganda ham ilmiy odob doirasidan chiqmaydi. Ana shu fazilatlar uning dissertatsiyasini nafaqat tarjimashunoslik bo‘yicha fundamental tadqiqot, balki ilmiy tafakkur va ilmiy muloqot madaniyatining yorqin namunalaridan biriga aylantiradi.

Antroponim va toponimlar tarjimasi: ilmiy bashoratning bugungi tasdig‘i

Professor Ibodulla Mirzayev nomzodlik dissertatsiyasining eng qimmatli jihatlaridan biri unda antroponimlar va toponimlarni tarjima qilish masalasiga bag‘ishlangan ilmiy tavsiyalardir. O‘sha davr tarjimashunosligida bu masala asosan amaliy muammo sifatida qaralgan bo‘lsa, Mirzayev unga nazariy nuqtai nazardan yondashdi va kishi hamda joy nomlarini tarjima qilishning lingvistik tamoyillarini ishlab chiqdi. Bu tavsiyalar bugungi kunda ham o‘z ilmiy va amaliy ahamiyatini yo‘qotmagan.

Muallif fransuz va ingliz tillarining fonetik hamda grafik tizimlarini qiyosiy tahlil qilib, ushbu tillarda birgina tovushni ifodalash uchun ikki, uch, ba’zan esa to‘rt harf birikmasidan foydalanilishini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham bunday tillardan o‘zbek tiliga tarjima qilishda yozuv shakliga emas, balki asl talaffuzga tayanish, ya’ni transkripsiya tamoyilini qo‘llash zarurligini ilmiy asoslaydi. Olimning fikricha, tarjimon harflarni emas, balki tovushni ko‘chirishi kerak. Chunki yozuv til tizimining tashqi qobig‘i bo‘lsa, talaffuz uning haqiqiy fonetik mohiyatini ifodalaydi.

Mirzayev antroponim va toponimlarni oddiy atoqli otlar sifatida emas, balki xalqning tarixiy xotirasi, milliy madaniyati va etnik o‘zligini mujassamlashtirgan lingvomadaniy birliklar sifatida talqin qiladi. Shu bois ularni grafik shakliga qarab mexanik tarzda ko‘chirish yoki vositachi til orqali berish nomning fonetik qiyofasini, tarixiy xususiyatini va madaniy koloritini buzishi mumkinligini ta’kidlaydi. Tarjimada transkripsiyaga amal qilish esa, aksincha, nomning milliy o‘ziga xosligini saqlashga xizmat qiladi.

Oradan ellik yil o‘tib, olim ilgari surgan mazkur ilmiy qarashlarning naqadar uzoqni ko‘zlagani yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari, internet nashrlari, elektron platformalar va hatto ayrim rasmiy hujjatlarda fransuz hamda ingliz tillaridagi ko‘plab antroponim va toponimlar asl talaffuziga emas, yozilishiga qarab yoki uchinchi til vositasida berilmoqda. Natijada bir xil nomning bir necha xil yozilishi uchramoqda, o‘zbek tilining fonetik me’yorlari buzilmoqda va xalqaro onomastik birliklarni qo‘llashda izchillik yo‘qolmoqda.

Professor Mirzayev bundan yarim asr avval aynan shunday holatlarning oldini olish uchun ilmiy tavsiyalar ishlab chiqqan edi. Uning transkripsiyaga oid qarashlari bugungi xalqaro onomastika, tarjimashunoslik va til me’yorlashtirish tamoyillari bilan to‘liq uyg‘unlashadi. Ayniqsa, global axborot makoni va sun’iy intellekt texnologiyalari sharoitida bu tavsiyalar nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyat ham kasb etmoqda. Mashinali tarjima tizimlari, elektron lug‘atlar va avtomatik transliteratsiya dasturlarini yaratishda ham fonetik aniqlik tamoyili asosiy mezonlardan biri bo‘lib qolmoqda.

Shu ma’noda olimning antroponim va toponimlar tarjimasiga oid qarashlari o‘z davri uchun ilg‘or ilmiy xulosa bo‘lgani kabi, bugungi o‘zbek tarjimashunosligining ham dolzarb nazariy masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bu qarashlar tarjimada milliy o‘zlikni, tarixiy xotirani va madaniy merosni asrashning muhim ilmiy tamoyillaridan biri sifatida alohida e’tirof etilishi lozim.

Lingvopoetika sari: ilmiy izlanishlarning mantiqiy davomi

Professor Ibodulla Mirzayevning ilmiy faoliyati nomzodlik dissertatsiyasi bilan yakunlanmadi. Aksincha, realiyalar tarjimasi, stilistika va badiiy matn ustida olib borilgan tadqiqotlar uni filologiyaning yanada murakkab va keng qamrovli sohasi – lingvopoetika muammolariga olib keldi. Tarjima jarayonida orttirilgan ilmiy tajriba, fransuz stilistikasi maktabi bilan yaqindan tanishish hamda badiiy matn ustida olib borilgan ko‘p yillik kuzatishlar olimni bitta muhim xulosaga olib keldi: badiiy asarni muvaffaqiyatli tarjima qilish uchun, avvalo, uning poetik mohiyatini chuqur anglash zarur.

Aynan shu ilmiy ehtiyoj professor Mirzayevni lingvopoetik tadqiqotlarga yo‘naltirdi. U badiiy matnni grammatik yoki leksik hodisalar yig‘indisi sifatida emas, balki til, tafakkur, madaniyat va estetik tafakkurning murakkab sintezi sifatida talqin qildi. Uning nazarida matnning haqiqiy mazmuni alohida til birliklarida emas, balki ularning o‘zaro munosabati, badiiy tizimi va estetik vazifasida namoyon bo‘ladi.

Bu qarashlar 1987–1989-yillarda olimning yana Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg) davlat universitetiga qaytib, professor Sergey Nikolayevich Ivanov rahbarligida ilmiy izlanishlarini davom ettirishiga asos bo‘ldi. Mazkur davrda u lingvopoetik tahlil metodologiyasini chuqurlashtirib, badiiy matnning lisoniy va estetik tabiatiga bag‘ishlangan fundamental tadqiqotlar olib bordi. Ushbu izlanishlar keyinchalik O‘zbekiston Fanlar akademiyasi tizimida muvaffaqiyatli himoya qilingan doktorlik dissertatsiyasining nazariy asosini tashkil etdi.

Olim lingvopoetikani tilshunoslik va adabiyotshunoslikni o‘zaro bog‘lovchi sintetik fan sifatida talqin qiladi. Uning konsepsiyasiga ko‘ra, lingvopoetikaning asosiy vazifasi badiiy matnning estetik tabiatini ochish, til vositalarining obraz yaratishdagi vazifasini aniqlash hamda muallif individual uslubining lisoniy asoslarini ilmiy jihatdan yoritishdan iborat. Shu bois u stilistika, poetika, ritorika, matnshunoslik va tarjimashunoslikni bir-biridan ajralgan yo‘nalishlar emas, balki yagona filologik tizimning o‘zaro bog‘liq bo‘g‘inlari sifatida qaraydi.

Professor Mirzayevning ilmiy qarashlarida lingvopoetika faqat nazariy yo‘nalish emas, balki filolog tafakkurini shakllantiradigan metodologik maktab hamdir. Uning fikricha, filologning bosh vazifasi matnni grammatik jihatdan tavsiflash bilangina cheklanmaydi; u matnning estetik, ma’naviy va madaniy qatlamlarini ham anglay olishi kerak. Faqat shundagina filolog badiiy asarning haqiqiy mohiyatini ochib bera oladi, tarjimon esa uni boshqa tilga adekvat ko‘chirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Professor Mirzayevning ko‘p yillik ilmiy va pedagogik faoliyati natijasida o‘zbek filologiyasida lingvopoetik tafakkurning shakllanishi va rivojlanishiga mustahkam zamin yaratildi. Uning ilmiy ishlari, darsliklari, monografiyalari va shogirdlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bugungi kunda ushbu ilmiy yo‘nalishning izchil taraqqiyotini ta’minlab kelmoqda. Shunday qilib, olimning tarjimashunoslikdan boshlangan ilmiy yo‘li lingvopoetikaning mustaqil ilmiy konsepsiyasini yaratish bilan mantiqiy yakun topdi.

Bugungi o‘zbek filologiyasi taraqqiyoti nuqtayi nazaridan qaralganda, professor Ibodulla Mirzayevning ilmiy merosi faqat o‘z davrining mahsuli emas. U zamonaviy tarjimashunoslik, lingvostilistika, lingvopoetika va matn lingvistikasi rivojiga xizmat qilayotgan, ilmiy qimmatini saqlab qolgan fundamental nazariy merosdir. Uning ilmiy qarashlari yangi avlod tadqiqotchilarini mustaqil fikrlashga, matnni kompleks tahlil qilishga va filologiyani yaxlit ilmiy tizim sifatida anglashga undaydi. Ana shu jihati bilan professor Mirzayev yaratgan ilmiy maktab bugun ham yashamoqda va o‘z taraqqiyotini davom ettirmoqda.

Ayniqsa, sun’iy intellekt, mashinali tarjima, korpus lingvistikasi va raqamli filologiya jadal rivojlanayotgan XXI asrda professor Mirzayev ilgari surgan ilmiy tamoyillar yangi mazmun kasb etmoqda. Milliy-madaniy mazmunni adekvat ifodalash, badiiy matnning estetik tabiatini anglash va tarjimada muallif uslubini saqlash masalalari bugungi kunda ham tarjimashunoslikning eng dolzarb muammolari bo‘lib qolmoqda. Shu ma’noda professor Mirzayevning ilmiy merosi nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy ilm-fan taraqqiyoti uchun ham mustahkam nazariy poydevor vazifasini bajaradi.

Professor Mirzayevning ilmiy maktabi yana bir muhim fazilati bilan ajralib turadi. U ilm-fanga tayyor xulosalarni emas, mustaqil fikrlash madaniyatini olib kirdi. Uning asarlarida ilmiy jasorat, xolislik, dalilga tayanish va ilmiy bahs madaniyati ustuvor o‘rin egallaydi. Bu fazilatlar bugungi yosh tadqiqotchilar uchun ham yuksak ilmiy maktab bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shu bois professor Ibodulla Kamolovich Mirzayevning ilmiy asarlarini, ayniqsa, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarini qayta nashr etish, ularni zamonaviy ilmiy izohlar va bibliografik ko‘rsatkichlar bilan boyitish, elektron shaklda keng ilmiy muomalaga kiritish bugungi o‘zbek filologiyasi oldidagi muhim vazifalardan biridir. Bu nafaqat bir olimning ilmiy merosini tiklash, balki milliy tilshunoslik va tarjimashunoslik tarixini yanada to‘liq yoritishga xizmat qiladi.

Muhtaram professor Ibodulla Kamolovich Mirzayev! Sizni muborak 80 yillik yubileyingiz bilan chin qalbimizdan samimiy muborakbod etamiz!

Sizning ko‘p yillik ilmiy va pedagogik faoliyatingiz o‘zbek filologiyasi taraqqiyotining yorqin sahifalaridan biridir. Tarjimashunoslik, fransuz tilshunosligi, stilistika, lingvopoetika va matn tahlili sohalarida yaratgan fundamental tadqiqotlaringiz bir necha avlod olimlari uchun ishonchli ilmiy manba va metodologik maktab bo‘lib xizmat qilmoqda. Sizning ilmiy jasoratingiz, teran tafakkuringiz, ustozlik fazilatingiz va Vatanga, ilm-fanga sadoqatingiz hamkasblaringiz, shogirdlaringiz va keng ilmiy jamoatchilikning yuksak hurmatiga sazovor bo‘lib kelmoqda.

Yarim asr avval yozilgan ilmiy tadqiqotlaringiz bugun ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmaganining o‘ziyoq Siz yaratgan ilmiy merosning umrboqiy ekanini tasdiqlaydi. Haqiqiy ilm vaqt sinovidan qo‘rqmaydi. Sizning asarlaringiz ana shunday umrboqiy ilmiy meros sirasiga kiradi. Alloh taolo Sizga mustahkam sog‘liq, uzoq va barakali umr, oilangiz bag‘rida tinchlik-xotirjamlik, shogirdlaringiz ardog‘ida baxtli hayot ato etsin. Ilmiy tafakkuringiz, boy tajribangiz va ustozlik maktabingiz bundan buyon ham o‘zbek ilm-fani ravnaqiga xizmat qilishda davom etsin.

Yubileyingiz muborak bo‘lsin, aziz Ustoz! Siz yaratgan ilmiy maktab va bebaho ilmiy meros kelajak avlodlar uchun hamisha ilhom va ibrat manbai bo‘lib qoladi.

Umurqulov Bekpo‘lat,
Termiz davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori

Xudoyqulov Abdulla Eshquvatovich,
Termiz davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Umurqulov Zafar Bekpo‘latovich,
Termiz davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 7
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ИНИЦИАЛЬНЫЕ КОНСОНАНТНЫЕ КЛАСТЕРЫ В СОВРЕМЕННОМ УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ: ИНВЕНТАРЬ, СТРУКТУРНЫЕ ТИПЫ И СТАТИСТИЧЕСКАЯ ПРЕДСТАВЛЕННОСТЬ (В СОПОСТАВЛЕНИИ С РУССКИМ ЯЗЫКОМ)

Панжиев Нормахмат Панжиевич,
доцент Термезского государственного университета,
кандидат филологических наук

Фонотактика – совокупность правил сочетаемости фонем в пределах слога и слова – принадлежит к числу наиболее системно организованных и вместе с тем наименее изученных участков звукового строя узбекского языка. Если инвентарь фонем и их артикуляционно-акустические характеристики описаны в фонологической традиции достаточно полно, то сочетаемость согласных, особенно в абсолютном начале слова (анлауте), до настоящего времени не получила исчерпывающего инвентарного и статистического описания.

Актуальность темы определяется двумя обстоятельствами. Во-первых, длительные и интенсивные русско-узбекские языковые контакты привели к массовому вхождению в узбекский язык лексики, звуковой облик которой противоречит исконным фонотактическим ограничениям: для исконной узбекской лексики начальные сочетания двух и более согласных нехарактерны, тогда как русский язык допускает в анлауте стечения из двух, трёх и четырёх согласных[1]. Во-вторых, именно в зоне таких противоречий – там, где фонотактика языка-источника «навязывает» принимающему языку чуждые ему модели, – наиболее наглядно проявляются механизмы взаимодействия двух фонологических систем, что делает материал показательным для сопоставительного языкознания.

Степень изученности проблемы. Теоретические основы изучения сочетаемости фонем заложены в классической фонологии: Н. С. Трубецкой рассматривал правила соединения фонем как неотъемлемую часть фонологического описания языка[2]; Л. Р. Зиндер и Л. В. Бондарко разработали методику системного и статистического анализа консонантных сочетаний на материале русского языка[3]. В типологическом плане принципиальное значение имеют обобщения Дж. Гринберга об универсальных ограничениях на начальные и конечные консонантные последовательности[4]. В узбекистанском языкознании фонологическая система и слоговая структура узбекского языка описаны в трудах А. А. Абдуазизова[5], М. Миртожиева[6] и других исследователей, где отмечается вторичный характер начальных стечений согласных и их связь с заимствованным слоем лексики. Отдельные аспекты проблемы рассматривались нами ранее: структурно-статистические свойства консонантных кластеров узбекского языка[7], синтагматика согласных фонем на материале финальных двучленных сочетаний[8], а также интерференция при произношении начальных кон-

[1] Бондарко Л. В. Звуковой строй современного русского языка. – М.: Просвещение, 1977.
[2] Трубецкой Н. С. Основы фонологии / пер. с нем. – М.: Издательство иностранной литературы, 1960.
[3] Бондарко Л. В. Звуковой строй современного русского языка. – М.: Просвещение, 1977; Зиндер Л. Р. Общая фонетика. – 2-е изд. – М.: Высшая школа, 1979.
[4] Greenberg J. H. Some generalizations concerning initial and final consonant clusters // Linguistics. – 1965. – Vol. 18. – P. 5–34.
[5] Абдуазизов А. А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.
[6] Миртожиев М. Ўзбек тили фонетикаси. – Тошкент: Фан, 2013.
[7] Панжиев Н. П. Анализ структурно-статистических свойств согласных кластеров в узбекском языке // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. – 2023. – № 4. – С. 232–237.
[8] Панжиев Н. П. Синтагматика согласных фонем в узбекском языке (на материале финальных двучленных сочетаний) // Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim (Филологические исследования: язык, литература, образование). – 2024. – № 3. – С. 18–23.

сонантных сочетаний в русской речи узбекоязычных билингвов[1]. Вместе с тем полный инвентарь инициальных кластеров современного узбекского языка с последовательным разграничением буквенных и звуковых моделей, их структурной типологией и количественной характеристикой в сопоставлении с языком-источником до сих пор не был предметом специального описания, что и определяет научную новизну настоящей работы.

Цель статьи – установить инвентарь инициальных консонантных кластеров современного узбекского языка, определить их структурные типы и статистическую представленность и охарактеризовать полученные данные в сопоставлении с фонотактикой русского языка как языка-источника соответствующей лексики.

Задачи исследования: (1) выявить по данным словарной выборки состав начальных двучленных и трёхчленных кластеров; (2) классифицировать их по способу образования компонентов; (3) дать количественную характеристику моделей, их компонентов и лексической представленности; (4) определить сопоставительно значимые расхождения между узбекской и русской фонотактикой анлаута; (5) охарактеризовать следствия освоения кластеров для слоговой структуры узбекского языка.

Материалом исследования послужила словарная выборка лексики современного узбекского языка, содержащей начальные стечения согласных; выборка выполнена по данным двухтомного Толкового словаря узбекского языка под редакцией З. М. Магруфова, охватывающего около 60 000 слов и словосочетаний[2]. Полный инвентарь моделей с примерами представлен в приложениях к исследованию. Использованы методы сплошной выборки, инвентаризации, структурного моделирования и количественного анализа, а также сопоставительный метод при соотнесении узбекских данных с фонотактикой русского языка.

Принципиальное методологическое значение имеет последовательное разграничение четырёх аспектов описания кластера: (а) буквенной модели (например, стр); (б) звуковой модели ([стр] или [стр’]); (в) лексической представленности – числа слов, реализующих данный кластер; (г) адаптированного произношения, при котором между согласными может вставляться гласный либо один из компонентов ослабляется или выпадает. Смешение этих аспектов – распространённый источник расхождений в подсчётах у разных авторов; их разграничение обеспечивает верифицируемость статистики.

При структурном моделировании компоненты кластера обозначаются по способу образования: T – смычный шумный, S – щелевой, N – сонорный, Aff – аффриката. Звук [j] рассматривается как самостоятельный согласный компонент; палатализованная реализация согласного в заимствованных словах учитывается как отдельная звуковая реализация модели. Кластером признаётся только реальное стечение согласных в произношении: так, буква ъ в модели съ + е (съезд) собственного звука не обозначает, и вторым компонентом кластера выступает согласный [j].

Инвентарь двучленных кластеров. В исследованном материале выявлено 73 двучленные звуковые реализации начальных консонантных сочетаний, представленные в 565 словах. Подчеркнём, что речь идёт именно о звуковых реализациях, а не о буквенных парах: одно и то же буквенное сочетание может быть представлено двумя реализациями в зависимости от твёрдости или палатализованности второго компонента (ср. [бл] в бланк и [бл’] в блиндаж, [тр] в трактор и [тр’] в тревога).

Распределение двучленных кластеров по структурным типам представлено в таблице 1.

Таблица 1

Структурные типы инициальных двучленных консонантных кластеров узбекского языка

№	Структурный тип	Число звуковых реализаций	Доля, %	Примеры
1	TN (смычный + сонорный)	23	31,5	бланк, трактор
2	SN (щелевой + сонорный)	22	30,1	смола, фронт

[1] Панжиев Н. П. Интерференция при произношении начальных консонантных сочетаний в русской речи узбекоязычных билингвов // Язык и общество в синхронии и диахронии: материалы Международной научной конференции, посвящённой памяти профессора Лидии Ивановны Баранниковой и профессора Валентина Евсеевича Гольдина (Саратов, 13–15 ноября 2025 г.). – Саратов, 2026. – С. 141–147.

[2] Толковый словарь узбекского языка: в 2 т.: 60 000 слов и сочетаний / под ред. З. М. Магруфова. – М.: Русский язык, 1981. – Т. 1: А–Р. – 632 с.; Т. 2: С–Ҳ. – 715 с.

№	Структурный тип	Число звуковых реализаций	Доля, %	Примеры
3	ST (щелевой + смычный)	12	16,4	стакан, штаб
4	SS (щелевой + щелевой)	8	11,0	сфера, звонок
5	TS (смычный + щелевой)	6	8,2	квадрат, психиатр
6	SAff (щелевой + аффриката)	2	2,7	сценарий, счёт
	Итого	**73**	**100,0**	

Как видно из таблицы, ядро инвентаря образуют два типа с сонорным вторым компонентом – TN (31,5 %) и SN (30,1 %), в совокупности покрывающие более трёх пятых всех реализаций. Это соответствует универсальной тенденции к восходящей звучности в пределах начального слога: сочетания «шумный + сонорный» типологически наиболее предпочтительны [5]. Вместе с тем заметную долю (16,4 %) составляет тип ST с нисходяще-ровным профилем звучности (стакан, штаб, шпаргалка), унаследованный из русской фонотактики, где сочетания с начальным [с]/[ш] системно нарушают принцип восходящей звучности. Периферию инвентаря образуют типы SS, TS и особенно SAff, представленный лишь двумя реализациями ([сц], [сч]).

Частотность компонентов. Количественный анализ позиционного распределения согласных (таблица 2) выявляет отчётливую асимметрию первой и второй позиций кластера.

Таблица 2

Наиболее активные согласные в составе двучленных кластеров

Позиция в кластере	Наиболее активные согласные	Число реализаций (доля, %)
Первый компонент	[с]	19 (26,0)
	[ш]	13 (17,8)
	[к]	8 (11,0)
	[г]	6 (8,2)
Второй компонент	[р]	19 (26,0)
	[л]	15 (20,5)
	[в]	10 (13,7)
	[н]	6 (8,2)

В первой позиции доминируют щелевые: типы с начальным S (SN, ST, SS, SAff) охватывают 44 реализации из 73 (60,3 %), причём наиболее нагружен согласный [с] (26,0 % всех реализаций), за которым следует [ш] (17,8 %). Во второй позиции преобладают сонорные [р] (26,0 %) и [л] (20,5 %); в целом сонорный финал ([р], [л], [н], [м], [j]) характеризует 45 реализаций (61,6 %), что и объясняет доминирование типов TN и SN. Таким образом, «канонический» освоенный кластер узбекского анлаута – это сочетание шумного (чаще щелевого) с плавным сонорным: кран, план, слёт, фронт.

Произносительная вариативность. Ряд кластеров характеризуется вариантностью реализации, отражающей разную степень адаптации. Так, в сочетании сб возможны произношения [зб] (результат регрессивной ассимиляции по звонкости) и [сб] (произношение, ориентированное на буквенный состав слова); в слове счёт вариант [сч] представляет двучленный кластер, тогда как при реализации [ш’:] два согласных сливаются в один долгий мягкий согласный, и кластер как таковой устраняется. Знаком ~ в инвентаре объединяются именно такие произносительные варианты, статус которых различен: один сохраняет

кластер, другой преобразует его.

Трёхчленные кластеры. Трёхчленных моделей отмечено восемь; они представлены в 26 заимствованных словах и объединяются в четыре структурных типа (таблица 3).

Таблица 3

Структурные типы инициальных трёхчленных консонантных кластеров узбекского языка

№	Структурный тип	Число моделей	Примеры
1	STN	5	склад, скрипка, стратегия, стрелка, штрих
2	SSS	1	взвод
3	SSN	1	взнос
4	STS	1	сквер
	Итого	8	

Доминирует тип STN (щелевой + смычный + сонорный: склад, стратегия, штрих) – 5 моделей из 8. Он воспроизводит наиболее продуктивную модель русского анлаута и демонстрирует характерный профиль: нарушение восходящей звучности на первом шаге (S → T) компенсируется сонорным завершением. Типы SSS, SSN и STS представлены единичными моделями (взвод, взнос, сквер).

Четырёхчленные кластеры. Самостоятельные нормативные модели из четырёх и более согласных в анлауте не выявлены. Они возможны лишь в единичных неадаптированных иноязычных образованиях, именах собственных и при переключении языкового кода, однако в основной фонотактический инвентарь узбекского языка не входят. Тем самым обнаруживается количественный предел проницаемости узбекской фонотактики: система осваивает двучленные кластеры массово (565 слов), трёхчленные – ограниченно (26 слов), четырёхчленные – не осваивает.

Сопоставительный аспект. Сопоставление с русским языком показывает принципиальную асимметрию двух систем. Русская фонотактика анлаута допускает широкий спектр стечений, включая четырёхчленные, и системно использует модели с нарушением принципа восходящей звучности [2; 6]. Узбекская система, для исконного слоя которой начальные стечения нехарактерны [3; 4], осваивает русский инвентарь избирательно и иерархично: чем длиннее и типологически «труднее» кластер, тем ниже его лексическая представленность и тем выше вероятность адаптированного произношения. Соотношение 565 : 26 : 0 (двучленные – трёхчленные – четырёхчленные) можно интерпретировать как количественно верифицируемый «фонотактический фильтр» принимающей системы.

Стратегии адаптации. Материал позволяет выделить несколько стратегий освоения кластеров, образующих шкалу от полного копирования до устранения стечения: (1) полное воспроизведение кластера в его исходном звуковом составе (план, трактор); (2) воспроизведение с ассимилятивной перестройкой (сб → [зб] в сбор); (3) слияние компонентов в один сложный сегмент (сч → [ш’:] в счёт); (4) в адаптированном (в том числе просторечном) произношении – вставка гласного между согласными либо ослабление или выпадение одного из компонентов, устраняющие кластер и возвращающие слово к исконному слоговому канону. Распределение слов по этим стратегиям – отдельная перспективная задача, требующая привлечения орфоэпических и социофонетических данных.

Освоенные кластеры при этом не остаются на периферии системы: с их появлением в узбекском языке формируются новые типы начального слога – ССГ и СССГ, отсутствовавшие в исконной слоговой типологии. Таким образом, контактное влияние затрагивает не только лексический, но и собственно фонологический ярус: перестраивается слоговой канон языка.

Особого внимания заслуживает палатализация. В русском языке твёрдость/мягкость согласных – смыслоразличительная категория [2]; в узбекском палатализованные реализации ([бл’], [кр’], [ст’] и др.) закреплены за заимствованным слоем лексики и выступают, по сути, маркером этого слоя. Систематический учёт таких реализаций как отдельных звуковых моделей (что и объясняет соотношение «73 звуковые реализации при меньшем числе буквенных пар») позволяет точнее описать степень освоенности русской

фонологической категории узбекской произносительной нормой.

Перспективы исследования связаны с тремя направлениями: (1) описание финальных (ауслаутных) кластеров и их сопоставление с инициальными; (2) экспериментально-фонетическая верификация вариантных реализаций и адаптированного произношения в речи носителей разных поколений; (3) сопоставление узбекских данных с материалом других тюркских языков, испытавших аналогичное контактное влияние, что позволит отделить универсальные закономерности освоения кластеров от специфически узбекских.

Заключение.

1. Инициальные консонантные кластеры современного узбекского языка представлены 73 двучленными звуковыми реализациями (565 слов) и 8 трёхчленными моделями (26 слов); четырёхчленные нормативные модели отсутствуют.

2. Двучленные кластеры образуют шесть структурных типов (TN, SN, ST, SS, TS, SAff), трёхчленные – четыре (STN, SSS, SSN, STS). Ядро инвентаря составляют сочетания с сонорным финальным компонентом (TN и SN – 61,6 % двучленных реализаций; STN – 5 из 8 трёхчленных моделей). В первой позиции кластера наиболее активны щелевые [с] и [ш], во второй – сонорные [р] и [л].

3. Начальные кластеры функционируют преимущественно в русских и интернациональных заимствованиях и являются вторичными для узбекской фонетической системы; их освоение привело к формированию новых слоговых типов ССГ и СССГ.

4. Сопоставление с русским языком выявляет иерархию проницаемости узбекской фонотактики: массовое освоение двучленных, ограниченное – трёхчленных и неосвоение четырёхчленных кластеров, что позволяет говорить о количественно верифицируемом фонотактическом фильтре принимающей системы. Освоение сопровождается набором адаптационных стратегий – от полного копирования кластера до его устранения.

5. Корректная статистика кластеров требует разграничения буквенной модели, звуковой модели, лексической представленности и адаптированного произношения; палатализованные реализации целесообразно учитывать как самостоятельные звуковые модели.

Резюме. В статье рассматриваются инициальные (начальные) консонантные кластеры современного узбекского языка в сопоставлении с фонотактикой русского языка – основного источника лексики, содержащей такие кластеры. На основе словарной выборки установлен инвентарь начальных сочетаний согласных: 73 двучленные звуковые реализации, представленные в 565 словах, и 8 трёхчленных моделей, представленных в 26 словах; четырёхчленные и более сложные кластеры в качестве нормативных моделей не выявлены. Двучленные кластеры распределены по шести структурным типам (TN, SN, ST, SS, TS, SAff), трёхчленные – по четырём (STN, SSS, SSN, STS); приводится их статистическая характеристика, включая частотность согласных в первой и второй позициях кластера. Показано, что начальные стечения согласных нехарактерны для исконной узбекской лексики и функционируют преимущественно в русских и интернациональных заимствованиях, освоение которых привело к формированию в узбекском языке новых слоговых типов ССГ и СССГ. Предложено методологическое разграничение буквенной модели, звуковой модели и лексической представленности кластера, а также учёт адаптированного произношения.

Rezyume. Maqolada hozirgi o‘zbek tilidagi so‘z boshi (initsial) undosh klasterlari rus tili fonotaktikasi bilan qiyosiy aspektda o‘rganiladi. Lug‘aviy tanlov asosida so‘z boshidagi undosh birikmalar inventari aniqlangan: 565 so‘zda uchraydigan 73 ta ikki komponentli tovush birikmasi hamda 26 so‘zda uchraydigan 8 ta uch komponentli model; to‘rt va undan ortiq undoshdan iborat me’yoriy modellar qayd etilmagan. Ikki komponentli klasterlar olti struktur tipga (TN, SN, ST, SS, TS, SAff), uch komponentlilari to‘rt tipga (STN, SSS, SSN, STS) birlashtirilib, ularning statistik tavsifi, jumladan, klasterning birinchi va ikkinchi pozitsiyalaridagi undoshlar chastotasi berilgan. So‘z boshidagi undoshlar qatori asl o‘zbekcha leksika uchun xos emasligi, bunday klasterlar asosan ruscha va baynalmilal o‘zlashmalarda amal qilishi hamda ularning o‘zlashishi o‘zbek tilida CCV va CCCV tipidagi yangi bo‘g‘in turlarining shakllanishiga olib kelgani ko‘rsatilgan. Klasterning harfiy modeli, tovush modeli va leksik ifodalanishini farqlash bo‘yicha metodologik yondashuv taklif etilgan.

Resume. The article examines word-initial consonant clusters in modern Uzbek in comparison with the phonotactics of Russian, the main donor language of the lexis containing such clusters. Based on a dictionary sample, the inventory of initial consonant sequences is established: 73 two-member sound realizations attested in 565 words and 8 three-member models attested in 26 words; four-member and longer clusters are not attested as normative models. Two-member clusters fall into six structural types (TN, SN, ST, SS, TS, SAff) and three-member ones into four types (STN, SSS, SSN, STS); their statistical distribution is provided, including the frequency of consonants in the first and second positions of the cluster. It is shown that initial clusters are alien to the native Uzbek vocabulary and function mainly in Russian and international loanwords, whose adoption has led to the emergence of new syllable types CCV and CCCV in Uzbek. The paper also proposes a methodological distinction between the graphic model, the sound model, and the lexical representation of a cluster.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 7
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

TIL – MADANIYAT KO‘ZGUSI

Umurqulov Zafar Bekpo‘latovich,
Termiz davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari doktori

Tilni madaniyat bilan bog‘liqlikda o‘rganishning ilk ildizlari V.Gumdoldt va A.A.Potebnya tadqiqotlariga borib taqaladi. V.Gumboldtning “millatim tilining sarhadlari dunyoqarashim chegaralaridir” degan fikri bu yo‘nalishning shakllanishida metodologik ahamiyatga molikdir. V.Gumboldt til va madaniyat munosabati, tilning madaniyatga, madaniyatning tilga ta’siri haqida fikr yuritar ekan, asosiy omillar sifatida quyidagilarni e’tirof etadi: 1) moddiy va ma’naviy madaniyat tilda gavdalanadi; 2) har qanday madaniyat milliydir, uning milliy tabiati tilda dunyoni alohida ko‘rish orqali ifodalangan. Tilga har bir til uchun spetsifik bo‘lgan “ichki forma” xosdir; 3) tilning “ichki formasi” – bu “xalq ruhi” madaniyatining ifodasidir; 4) til inson va uning atrofidagi dunyo orasidagi bog‘lovchi bo‘g‘indir[1]. Keyinchalik esa V.Gumboldtning bu konsepsiyasi A.A.Potebnya, Boduen de Kurtene, R.O.Yakobson va boshqa tadqiqotchilar asarlarida o‘ziga xos holda talqin qilindi.

Til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi haqida rus tilshunosi V.Vorobyov Sepirning “Til – madaniyat bilan chambarchas bog‘liq: u “o‘sadi”, uni ifodalaydi, butun madaniyat rivojlanishining zaruriy shartidir”, – degan g‘oyasiga qo‘shilgan holda, tilni ma’lum bir davrda va ma’lum bir joyda yashovchi xalq madaniyatining muhim bir qismi” ekanligini ta’kidlaydi. Olim fikrini davom ettirib, madaniyatning barcha jabhalarida tilning o‘z muhiti borligini va til madaniyatdan ayro, ya’ni ijtimoiy meros bo‘lib qolgan amaliy ko‘nikma va g‘oyalar majmuasidan tashqarida mavjud emas[2]”, degan fikrni ilgari suradi. Shunga asoslanib, til va madaniyatni alohida tasavvur etib bo‘lmaydi, u xalqning urf-odatlari, qadriyatlari, an’analari, ma’naviyati va madaniyati bilan birga yashaydi.

Tilshunos N.Mahmudov tilni inson shaxsini namoyon etuvchi bosh omil hisoblaydi, bu bilan insonning inson bo‘lishida tilning ta’siri beqiyos ekanligiga ishora qiladi va ana shunday obyektiv xususiyatiga muvofiq antropotsentrik paradigmada inson asosiy o‘ringa chiqishini ta’kidlaydi[3]. Tilni va nutqiy faoliyatni

[1] Iqtibos quyidagi manbadan olindi: Маслова В.А. Лингвокультурология. – Москва, Издательский центр, 2001. – С. 59.
[2] Воробьев В.В. Лингвокулътурология. – Москва: Издательство Российского университета дружбы народо, 2006. – С.12.
[3] Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012, №5. – Б. 6.

atroflicha, turli jihatlari asosida tadqiq qilish tilshunoslikning turli sohalarini vujudga kelishiga olib keldi.

N.Alefirenko madaniyatning kommunikativ funksiyasi haqida fikr bildirar ekan, hech qanday madaniyat alohida mavjud bo‘lmasligini ta’kidlaydi. Olimning fikricha, ma’lum bir madaniyat u yoki bu tarzda boshqa madaniyatga ta’sir qiladi. Bu holatda inson omilining o‘rni kattaligi, bir shaxs yoki ma’lum bir madaniyat tomonidan orttirilgan tajriba boshqa odamlar, boshqa avlodlar va koinotning boshqa hududlarida joylashgan hamda kelajakdagi boshqa madaniyatlarning mulkiga aylanishi mumkin, deb ko‘rsatadi[1].

Z.Sobitova til va madaniyat aloqasi haqida quyidagi fikrlarni bildirib o‘tadi: “Til – madaniyatning mahsuli. U ajdodlardan meros bo‘lib qolgan. Ba’zan, madaniyat til orqali o‘zlashtiriladi, degan g‘oya ilgari suriladi. Shuning uchun til madaniyatning ajralmas bir qismi, ayni paytda, milliy mentalitetni o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi[2].

Nutqning idrok etilishining ham turli holatlari mavjud. Nutqning idrok etilishi so‘zlovchi shaxs yonida ikkinchi bir shaxs, tinglovchi shaxs bo‘lishini talab qiladi. Matnni idrok etilishida bu ikkala shaxs birligi muhimdir. Chunki matnda, avvalo, matn yaratuvchisining shaxsi: uning kimligi, qaysi kasb egasi ekanligi, saviyasi, qaysi mazmundagi, qanday shakldagi matn tuzayotgani, til birliklarining nutqiy jarayoniga mosini qo‘llashi, ma’naviy-ma’rifiy qarashlari, tafakkur tarzi, tushunchalari o‘z ifodasini topadi. Bunday matn uni tuzuvchi bilan saviyasi, tafakkur olami bir xil bo‘lmagan shaxsga ham qaratilgan bo‘lishi mumkin. Bu holatda uning idrok etilishi til va shaxs munosabatlaridagi muhim omil sanaladi. Shu bois, matn tahliliga turli jihatlardan yondashgan holda tahlil qilish lozim. D.Xudoyberganova matn va uni idrok etuvchi shaxs omilini o‘rganishda tadqiq obyektiga semantik, psixologik, pragmatik, kognitiv va lingvokulturologik nuqtayi nazaridan yondashish lozimligini qayd etadi va mazkur tadqiqotda shaxsni ko‘rsatuvchi asosiy omillardan biri sifatida kognitiv talqinni e’tirof etadi[3]. Ma’lumki, kognitiv faoliyat insonning dunyoni bilishidagi muhim faoliyat. Kognitologiyadagi muhim omillardan biri dunyoni anglash uni mavjudligicha tavsiflash va ta’riflab berishdir. Tadqiqotchi kognitiv tilshunoslikning asosiy omillaridan biri sifatida matn yaratilishini e’tirof etar ekan, matn yaratish nafaqat semantik va grammatik qonuniyatlarga, balki axborotni bayon qilishning qoidalariga ham bo‘ysunishini ko‘rsatib o‘tadi[4].

Tilning madaniyat bilan bog‘liq va o‘zaro aloqadorlikda o‘rganilishi V.N.Teliyaning lingvokulturologiya markazida madaniyat fenomeni mavjud bo‘lgan inson haqidagi antropologik paradigma[5] to‘g‘risidagi qarashlari tilni antropotsentrik nuqtayi nazardan o‘rganishni yanada kuchaytirdi. V.N.Teliyaning fikricha, lingvokulturologiya insonga mo‘ljallangan bo‘lib, madaniy faktor tilga, til faktori esa insonga. Bu shuni ko‘rsatadiki, antropotsentrik paradigma inson haqidagi fan bo‘lib, markazida madaniyat fenomeni mavjud[6]. V.A.Maslovaga ko‘ra, madaniyatni inson yaratadi va shu madaniyatda yashaydi. Aynan insonning ijtimoiy tabiati birinchi o‘ringa chiqadi va shaxsning o‘zi sotsial-madaniy hayotning subyekti sifatida faoliyat yuritadi[7].

O‘zbek tilshunosligida til va madaniyat masalalarini atroflicha yoritib bergan olim N.Mahmudov bu hodisalarning mohiyati haqida quyidagilarni bayon etadi: “Til va madaniyat deganda, ko‘pincha, “nutq madaniyati” deyiladigan muammo assotsiativ holda esga tushsa-da, bu ikki o‘rindagi madaniyatning aynanligini aslo ko‘rsatmaydi. Til va madaniyat deganda, odatda, (to‘g‘risi ham shu) til orqali u yoki bu madaniyatni yoki, aksincha, madaniyatni o‘rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq aytadigan bo‘lsak, lingvokulturologiyada madaniyatning ma’nosi “aqliy-ma’naviy yoki xo‘jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya (nutq madaniyati) emas, balki “kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma’naviy-ma’rifiy hayotida qo‘lga kiritgan yutuqlari majmuasi (madaniyat tarixi, o‘zbek madaniyati demakdir”[8]. Olim tilga ehtirom ko‘rsatish kerakligini quyidagicha izohlaydi: “Til benihoya muqaddas va mo‘tabar ne’mat, u insonga berilgan, qavmlar o‘laroq birlashtirgan, taraqqiyot bosqichlariga olib chiqqan, ruhiy takomilga boshlagan, tafakkur gulshanining darvozalarini ochgan bemisl bir robitadir. Shuning uchun ham tilga nopisandlik insoniyatning o‘zligiga nopisandlik demakdir. Tilga ehtirom va e’tibor esa bu dunyoda inson bolasi muhtaramligining e’tirofidir”[9].

“Insonning inson sifatida shakllanishining o‘zi ham madaniyat bilan bog‘liqdir. Uning nafaqat intellektual faoliyati, balki oddiy hayotiy xatti-harakatlarining bar-

[1] Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка. – М.: Флинта, Наука, 2010. – С. 49
[2] Сабитова З.К. Лингвокультурология: учебник. – М.: Флинта: Наука, 2013. – С. 24.
[3] Худойберганова Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини. – Б. 12.
[4] Xudoyberganova D. Shu dissertatsiya. – B. 16–17.
[5] Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.:1996. – С. 122.
[6] Teliya V.N.Ko‘rsatilgan asar. – B. 222.
[7] Маслова В.А. Лингвокультурология. – Москва, 2001. – Б. 117.
[8] Маҳмудов Н. Тилниг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб... – Б. 10.
[9] Маҳмудов Н. Тил. – Тошкент: Ёзувчи, 1998. – Б. 3.

chasi ham milliy madaniyat ko‘zgusida aks topadi va ushbu madaniyat qonun-qoidalari “nazorati”da bo‘ladi. Har qanday madaniyat atrof-muhit ta’sirida taraqqiy qilib, o‘zgarib boradi. Turli millatlar madaniyati bir-biridan dastlabki o‘rinda voqelikni moddiy va ma’naviy o‘zlashtirishdagi farqi jihatidan ajralib turadi”[1].

Til shu til egasi bo‘lgan xalq madaniyatining ifodachisi. Zero, milliy mentallikka xos turg‘unlashgan axloq qoidalari, qadriyatlar tilning barqaror birliklarida aks etadi[2]. Har bir millatning o‘ziga xos turmush tarzi mavjud bo‘lganidek, dunyoni idrok qilishi, uni ifodalashi, tafakkur dunyosi ham shu xalqning qon-qoniga singib ketgan mentallik olami natijasi sifatida vujudga keladi. Shunga ko‘ra, madaniyatlar turli xalqlarda turlichadir. Ma’lum bir xalq uchun madaniyat belgisi hisoblangan urf-odatlar, odob-axloq boshqa bir xalq uchun madaniyat belgisi bo‘lmasligi isbot talab qilmaydi. Biroq insonning hayot faoliyatida madaniyatlilik belgisi mavjud bo‘lmagan narsa bo‘lmaydi. Inson borki uning faoliyatining biror qismida qaysi bir jihati bilan madaniyat namoyon bo‘ladi. Madaniyat insonga xos bo‘lgan xulq, odob. U muayyan xalqning ruhi bilan uyg‘unlashgan holda singib ketgan bo‘ladi va insonning tabiati bilan, insonning hayotdan va jamiyatdan, boshqalar va o‘z tajribalaridan olgan saboqlari asosida o‘sib boradi. Madaniyat an’anaviylik xususiyatiga ega bo‘lsa-da, xalqning har bir vakili tomonidan bir xilda o‘zlashtirilmagan va bir xilda bajarilmaydigan insoniylik belgisidir. Madaniyat urf-odatlar bilan ham bog‘liq. O‘zbek madaniyatida ota-onani qadrlash, ularning duosini olish barcha xonadonlarda singdirib boriladigan urf-odatlardandir. Shunga ko‘ra, ota-onaga xizmatda bo‘lish, ularni qadrlash, yordamga muhtoj bo‘lib qolganda, yonida bo‘lish farzandlik burchi va madaniyatlilik belgisidir. Madaniyat keng tushunchali hodisa, u salomlashishdan tortib, inson muloqotining barcha jarayonlari orqali namoyon bo‘ladi. Shu bilan birgalikda, muloqot jarayonida shaxs o‘zini boshqara olishi, suhbat jarayonida suhbatdoshlarning mavqeini hisobga olish, keraksiz o‘rinda muloqotga qo‘shilmaslik, tinglash muloqot jarayoni bilan bog‘liq madaniylik belgilaridir. Insonning yurish-turishida, muomalasida, kiyinishida, qarashlarida, xullas, barcha xatti-harakatlarida madaniyatlilik belgilari mavjud bo‘ladi. Shunga ko‘ra, madaniyat insonni tavsiflovchi, uning jamiyatdagi o‘rnini izohlovchi muhim belgidir. Til olamni ta’rif va tavsifini bayon etuvchi hodisa sifatida insonni ham, inson madaniyatining ham muhim ifodachisidir. Til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi, aloqadorligi shubhasiz fanda ushbu tushunchalarni bog‘liqlikda o‘rganish lozim deyiladigan qarorlarga olib keldi. Ushbu qarashlar asosida tilshunoslikning yangi, zamonaviy yo‘nalishi lingvomadaniyatshunoslik alohida soha sifatida shakllanib, uning predmeti va vazifalari belgilab olindi. Bu sohaning obyekti sifatida til va madaniyat, predmeti sifatida til birliklari belgilangan holda til egalarining milliy-madaniy o‘ziga xosligini tilda aks etishi sohasida ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, milliylikni ifoda etuvchi stereotiplarni belgilash, milliy urf-odatlarga xos ijtimoiy qarashlarni baholash, tilni madaniyatga ta’siri masalalari lingvomadaniyatshunoslikning asosiy vazifalaridan ekanligi qayd qilib o‘tilgan. Madaniyat va madaniy an’analar milliy hisoblanib, til shu milliy madaniyat bag‘rida paydo bo‘lib, uni ifodalash uchun xizmat qiladi. Shu holat til va madaniyatning o‘zaro aloqadorligini belgilovchi jihatidir.

Til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi tilshunoslikda lingvokulturologiyaning alohida soha sifatida shakllanishiga zamin yaratib berdi. Bu sohaning asosiy vazifasi til va madaniyatni o‘zaro uyg‘unlikda o‘rganishdan iborat bo‘lib, tilda madaniyatni aks etishi, til vositasida olamni anglash, mavjudlikni his etish, madaniyatga olib borishi bu qarashlarning mustahkam asosga ega ekanligidan dalolat beradi. Insonni inson sifatida shakllanib, taraqqiy etishida nutqiy jarayonning muhim o‘rni borligi tarixiy haqiqat. Shunday ekan inson faoliyatidagi barcha jabhalar, jumladan, madaniyat shakllanishining ham asosi til bilan bog‘liq bo‘lganidek, xalq madaniyati til orqali ifodalangan fikrlarda o‘z ifodasini topadi. Zero, til inson olami bilan bog‘liq bo‘lgan barcha tushunchalarning namoyon etuvchi vositadir.

Insonni ma’naviy dunyosini namoyon etuvchi muhim birliklar sifatida muayyan xalq tomonidan yaratiladigan xalq maqollari va hikmatli so‘zlar alohida ajralib turadi. Xalq maqollari va hikmatli so‘zlar insonni barkamollik sari yetaklashini, ma’naviy qadriyatlarni singdirishni yorqin vositasi sifatida o‘zida xalq madaniyatini mujassam etadi. O‘zbek xalqi madaniyatida insoniylik, odob-axloq, turli-toifadagi kishilarga bo‘lgan munosabat, mehmondo‘stlik, sabr-toqatlik, halollik, yaxshi xislatlilik kabi milliy o‘zlikni anglatuvchi tushunchalar madaniyat fenomeni sifatida qadriyatlar hisoblanib kelinganligi xalq donishnomalarida o‘z ifodasini topib kelgan. O‘zbek xalq maqollari va hikmatlarining ifodasidagi muhim jihatlardan biri qiyoslashga asoslanishidir. Ushbu holat qiyoslashni universal tabiatli ifoda vositasi ekanligining namunasidir. Qiyoslash orqali xalq maqollarida narsa-hodisaning

[1] Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 62–63.

[2] Усмонов Ф. Ўзбек тилида ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: филол. фан. бўйича фалсафа док. ...дисс. – Тошкент, 2020. – Б.7.

afzalligining ifodalanishi mohiyatni to‘liq anglanishiga olib keladi.

O‘zbek milliy madaniyatida xushmuomalalik, kishilar bilan muloqot jarayonida o‘ylab gapirishga alohida e’tibor qaratilib kelingan. So‘zlashish madaniyati kishi madaniyatining muhim qismini tashkil etishi e’tirof etilib, so‘z va uning nutqda qo‘llanilishi bilan bog‘liq ko‘plab maqollar va hikmatlar yaratilgan. Masalan, “*Aytilgan so‘z – otilgan o‘q”* maqolida aytilgan so‘z otilgan o‘qqa qiyoslangan. Ya’ni aytilgan so‘zni ham, otilgan o‘qni ham izga qaytarib bo‘lmaydi. Ushbu maqol orqali so‘zlaganda, suhbat jarayonida o‘ylab, bilib so‘zlash lozimligiga e’tibor qaratiladi. “*So‘z nayzadan o‘tkir”* maqolida so‘z nayzaga qiyoslanib, yomon tillilikning oqibati nimalarga olib kelishi mumkinligidan ogohlantirilgan. Xalq maqollarida *yaxshining so‘zi oltin*a (yaxshining so‘zi – oltin), *qaymoqqa* (yaxshining so‘zi – qaymoq) qiyoslangan holda narsalarning afzal jihatlarini ongda shakllanishiga olib kelingan bo‘lib, muomala madaniyati xalq madaniyatining ajralmas qismi ekanligiga ishora qilinadi. Har bir til shu tilda so‘zlovchilarning madaniyatini aks ettiruvchi vosita sifatida shu xalq qadriyatiga oid fenomenlarni o‘zida mujassam etgan holda reallashadi.

Xalq og‘zaki ijodida so‘zning qudrati, uning inson ruhiyati va ijtimoiy munosabatlarga ta’siri turli qiyoslashlar orqali ifodalangan. Jumladan, *“Shirin so‘z jon ozig‘i”* orqali so‘zning nafaqat axborot yetkazuvchi vosita, balki inson ruhiyatini oziqlantiruvchi, unga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi omil ekanligi ta’kidlanadi. Shuningdek, *“Yaxshi so‘z – yarim davlat”* maqolida yaxshi so‘z moddiy boylikka tenglashtiriladi. Mazkur qiyoslash orqali muomala jarayonida ishlatiladigan muloyim va o‘ylangan nutq inson uchun katta ijtimoiy va ma’naviy vazifasini bajarishi ifodalanadi. Bu esa o‘zbek xalqining qadriyatlar tizimida so‘zning yuqori baholanishini ko‘rsatadi.

Yomon so‘zning salbiy oqibatlari esa *“Achchiq til – zahar”* maqolida yorqin ifodalangan. Bu yerda til zaharga qiyoslanib, uning inson ruhiyatiga zarar yetkazuvchi, hatto ijtimoiy munosabatlarni izdan chiqaruvchi kuchga ega ekani anglatiladi. Xuddi shu mazmunga yaqin holda, *“Yomon so‘z – yurakka tig‘”* maqolida so‘z tig‘ga o‘xshatilib, uning og‘riqli va jarohat yetkazuvchi xususiyati ta’kidlanadi. Bu kabi qiyoslashlar orqali xalq yomon so‘zning oqibatlaridan ogohlantiradi.

Demak, o‘zbek xalqining nutq madaniyatiga oid qarashlari qiyoslashlar orqali chuqur aks ettirilgan bo‘lib, bu jarayonda til egasining milliy tafakkuri, axloqiy me’yorlari va kommunikativ tajribasi mujassam topgan. Bu esa qiyoslashlarning nafaqat stilistik vosita, balki xalqning lingvomadaniy dunyoqarashini ifodalovchi muhim vosita ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbek xalq maqollarida qiyoslash munosabatlari ko‘pincha *“-dan”* qo‘shimchasi yordamida ifodalanib, bu shakl orqali predmet yoki hodisalarning belgi-xususiyatlari o‘zaro solishtiriladi. Bunday qiyoslashlar til egasining baholash mezonlari, milliy tafakkuri va aksiologik qarashlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, *“Til tig‘i qilich tig‘idan o‘tkir”* maqolida tilning ta’sir kuchi qilich tig‘iga qiyoslanib, undan ham o‘tkirroq ekani ta’kidlanadi. Bu yerda *“-dan”* qo‘shimchasi orqali ikki obyekt – til va qilich tig‘i – o‘zaro solishtirilib, tilning zarar yetkazish imkoniyati yanada kuchli ekanligi ifodalanadi. Mazkur qiyoslash orqali yomon so‘zning oqibatlari haqida ogohlantiriladi. Shuningdek, *“Yaxshi so‘z boldan shirin”* maqolida yaxshi so‘zning ta’siri asal (bol)ga nisbatan ham yuqori qo‘yiladi. Natijada, yaxshi so‘zning inson ruhiyatiga yoqimli ta’siri kuchli baholanadi.

Ma’lumki, til xalqning turmush-tarzi, madaniyati, urf-odat, kechinmalarini ifodalash imkoniyati va ifoda vositalariga boy. Bu vositalar orqali ijtimoiy hayot va jamiyat hayotining barcha jihatlari bekam-u ko‘st ifodalanishi mumkin bo‘lganidek, til badiiy ta’sir vositasi sifatida inson olamini yorqinlashtiruvchi tilsimdir. Tilning ushbu vazifasi uchun xizmat qiluvchi badiiy matn lingvistik jihatdan keng qamrovli, chegaralanmas, cheksiz uslubiy imkoniyatlarga ega. Turli tasviriy ifodalar, ko‘chimlar singari ushbu matn turida qiyos ham til, madaniyat va ijtimoiy voqelikni o‘zida aks ettiruvchi vosita sifatida olam manzarasini tasvirlash, shuningdek, xalq mentalitetiga xos bo‘lgan, jamiyat a’zolari tomonidan qabul qilingan odat, an’ana, va turli rasm-rusumlarni o‘zida namoyon eta oladigan vositadir.

Qiyoslash asosida hosil bo‘lgan xalq maqollarida xalqning asrlar davomida to‘plagan tajribalar va ajdodlarimizning urf-odatlari, an’analari aks etadi. Maqollarda xalqning asriy hayoti, dunyoqarashi singib ketgan bo‘ladi. Masalan, “*Mehnat bilan yer ko‘karar. Duo bilan – el”.* (maqol) O‘zbek xalqi duogo‘y, oliyjanob, mehmondo‘st xalqdir. Shu bois, yurtimiz tinch, xonadonlarimiz obod. Xonadonlarimiz bobo va momolarimiz, ota va onalarimiz duolari bilan rizqqa to‘ladi, azaldan bizning xalqimiz duogo‘y sifatida nom taratgan. Bu o‘zbek xalqining mentalitetiga singib ketgan. “*Oltin olma – duo ol, Duo oltin emasmi”. “Olqish olgan omondir, Qarg‘ish olgan yomondir”* kabi maqollar zamirida xalqning so‘z qudrati haqidagi qarashlari aks ettirilgan. So‘zga oshuftalik o‘zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan. Ajdodlarimiz tilni aloqa vositasi emas, balki insonlar taqdiriga ta’sir qiluvchi kuch sifatida qarashgan. Bunday maqollar orqali xalqning dunyoqarashi, axloqiy me’yorlari va qadriyatlar tizimi obrazli tarzda ifodalanadi. Masalan, *“Mehnat – baxt kaliti”* maqolida mehnat tushunchasi kalitga qiyoslanib, inson baxti va farovon

hayotning asosiy omili sifatida talqin qilinadi. *“Ota duosi – oltindan afzal”* maqolasi ham xalqning duoga bo‘lgan yuksak e’tiqodini ifodalaydi. Bu yerda duo qimmatbaho metall – oltin bilan qiyoslanib, ma’naviy qadriyatlarning moddiy boylikdan ustun qo‘yilishi aks etadi. Shu kabi qarashlar xalqning diniy-ma’naviy dunyoqarashi va oilaviy qadriyatlarini namoyon etadi. *“So‘z – ko‘ngil kaliti”* maqolida esa so‘z inson qalbini ochuvchi vosita sifatida talqin qilinadi. O‘zbek xalqining asrlar davomida to‘plagan ma’naviy-axloqiy qarashlari tajribasi, falsafasi, donishmandligi, milliy-madaniy qarashlari ifoda etilgan. Xalqimizga xos bo‘lgan turli xislatlarni hikmatlar orqali tilimizga singib ketganligi tilni madaniyatni namoyon etuvchi vosita ekanligini ko‘rsatadi.

Xalqning o‘z millatiga, uning tiliga bo‘lgan muhabbati tabiiy va mantiqiydir. Tariximizda vataniga, tiliga, madaniyatiga, urf-odatlariga cheksiz muhabbat tuyg‘usini boshidan kechirmagan odam bo‘lmasa kerak?! Bu his-tuyg‘ular uning tilida juda aniq ifodalanadi. Keyingi yillarda milliy madaniyatimizga alohida e’tibor qaratilayotgani, milliy g‘oya, milliy mafkura, milliy ong muhim masala va xalqning yaxlitligi sifatida baholanayotgan bir vaqtda ona tili va til madaniyatining mushtarakligini lingvistik muammo sifatida o‘rganish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Umuman olganda, qiyoslash asosidagi xalq maqollari xalqning tarixiy tajribasi, axloqiy qarashlari va madaniy tafakkurini o‘zida mujassam etgan lingvomadaniy birliklar hisoblanadi. Ularda til faqat aloqa vositasi emas, balki xalqning ma’naviy olamini, hayotiy falsafasini va qadriyatlar tizimini aks ettiruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Rezyume. Maqolada qiyosiy ifodalar xalqning milliy o‘zligi, turmush tarzi, urf-odatlari va ma’naviy olamini ifodalovchi asosiy vosita sifatida talqin etiladi. Har bir xalq vakili olam manzarasini o‘ziga xos dunyoqarash asosida idrok etadi. Mazkur xususiyat milliylikning tilda aks etishida yaqqol namoyon bo‘ladi. Qiyoslash munosabatlariga asoslangan ifodalarda milliy madaniyat unsurlarining ifodalanishi esa til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy aloqaning yorqin dalilidir.

Resume. The article examines comparative expressions as one of the principal means of reflecting a nation’s identity, way of life, customs, traditions, and spiritual world. Representatives of every nation perceive the worldview through the prism of their own outlook. This feature is clearly manifested in the expression of national identity through language. The representation of elements of national culture in expressions based on comparative relations serves as vivid evidence of the close relationship between language and culture.

Резюме. В статье сравнительные выражения рассматриваются как одно из основных средств отражения национальной идентичности, образа жизни, обычаев, традиций и духовного мира народа. Представитель каждого народа воспринимает картину мира сквозь призму собственного мировоззрения. Данная особенность ярко проявляется в выражении национальной специфики посредством языка. Отражение элементов национальной культуры в выражениях, основанных на отношениях сравнения, является наглядным свидетельством неразрывной связи языка и культуры.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 7
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

EPITET TEMATIKASI ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA)

Ibragimov Jasurbek To'lqinjon o'g'li,
Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti doktoranti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Yurtimiz xalq og'zaki ijodining eng yirik turi doston janri bilan boshqa millatlardan ancha oldinda. Birgina "Alpomish" dostonining 50 taga yaqin variant borligi ham buning yaqqol isboti. Bu dostonda qo'llangan epitetlarni o'rganish undagi qahramonlar tasvirini qandayligini yanada oydinlashtiradi. Ze'ro, baxshilar epitet orqali obrazlar tasvirini ideallashtirish, epik ruhni kuchaytirish, sharqona go'zallik va estetik idealni yuksaltirish kabi vazifalarni bajaragani ayon bo'ladi.

O'zbek xalq dostonlarida epitetlarni tadqiq qilgan I.Boltayeva "epitet shaxs, narsa yoki voqea-hodisaning oddiy aniqlovchisi emas, balki ularning poetik obraz darajasidagi mohiyatini, qimmatini, ado etuvchi vazifasini belgilovchi badiiy hodisa bo'lib, xalq dostonlaridagi g'oyaviy-estetik vazifalarni yoritadi"[1] deya guvohlik beradi. Demak, dostonlardagi epitetlarning mohiyati aniqlansa, ulardagi badiiy-estetik vazifasini belgilash mumkin.

Epitet poetikasini A.N.Veselovskiy[2], A.A.Potebniya[3], V.M.Jirmunskiy[4], V.Ya.Propp[5] kabi rus akademiklari tomonidan yaxshi tadqiq qilingan. I.Boltayeva va N.Nazarovalar o'zbek xalq dostonlarida epitetlarning ifodasi bo'yicha yaxshi ishlarni bajarishgan. Bundan tashqari, epitetning tabiati va uni badiiy matndagi ifodasi bo'yicha ham yaxshi tadqiqot ishlari bajarilgan. Bularda "Alpomish" dostoning Fozil Yo'ldosh o'g'li tomonidan aytilgan variant yagona darajada ilmiy tahlil qilinmagan. Bundan kelib chiqadiki, "Alpomish" dostonida mavjud epitetlarni tematik darajasini aniqlash va tavsiflash bo'yicha chuqur tadqiqot olib borilishi kerak.

Tadqiqotda tahliliy, tavsifiy, kontekstual, lingvopoetik va lingvostilistik tahlil metodlaridan foydalanildi. "Alpomish" dostonidagi epitetlarni tematik guruhlarga bo'lishda konseptual hamda leksik-semantik tahlil metodlari yordamida natitajalar olindi.

"Alpomish" ajdodlarning buyuk madaniyati, urf-odati, etnik kelib chiqishi va boshqa ko'plab ma'lumotlarni bera oladigan eposdir. Doston hozirgacha o'rganilishi ham undagi bor merosning ahamiyatini ilmiy hamjamiyat xalqqa tushuntirishga yetarlicha say-harakat qilmoqda. Dostonda tasviriylik yaqqol ko'rinishi epitet san'ati bilan bog'liq. Dostondagi epitetlarni tematik guruhlarga bo'lish eposdagi epitet tabiatini aniqlashga xizmat qiladi.

1) Qahramonlik va jasoratni ifodalovchi epitetlar;
2) Nasl-nasabni ifodalovchi epitetlar;
3) Go'zallik va latofatni ifodalovchi epitetlar;
4) Salbiy xarakter va dushman holatini ifodalovchi epitetlar;
5) Ruhiy holat va hissiyotlarni ifodalovchi epitetlar;
6) Sadoqatga oid epitetlar.

Ushbu maqolada alohida ajratilgan tematik guruhlar epitetlarni faqatgina portret tasviri nuqtayi-nazardan kelib chiqqan.

"Alpomish" dostonining Fozil Yo'ldosh o'g'lidan yozib olingan variantida shunday tasvir uchraydi:

Obod bo'lar, bilsang, Boysunning yurti,
***Uchar qushdan o'tar bul mingan oti**,*
*Mingni chopar qo'lda **keskir po'lati**,*
Ko'rsa dushmanlarning qolmas toqati,
*Asli o'zi Qo'ng'irot **elning bekzodi**,*
*Shul qizimning bul **atashgan domoti**,*
*Shul bo'ladi bir **yurtning vallamati**[6].*

Yuqoridagi misralarda epitet bir necha o'rinda kelgan. Ikkinchi misra to'la epitet. Bu tasvir Alpomishning oti Boychiborga bag'ishlangan. Ot uchun ishlatilgan epitetni qahramonlik va jasorat mavzusiga kiritish mumkin. Zero qushdan ko'ra tezroq chopa olish qobilyati jasoratning bir ko'rinishi. Uchinchi misradagi epitet-metafora esa, qilichning tasvirida foydalanilgan. Po'latdan qilingan qurol-aslahalar chidamli, dami qaytmaydigan va o'tkir qilib ishlanishi barchaga ma'lum. Po'lat juda og'ir metal bo'lgani uchun,

[1] Болтаева И. Халқ достонларида эпитет табиати. Филол.ф.ном.дисс. – Тошкент, 2000. – Б. 12.
[2] Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – Ленинград: «Художственная литература», 1940. – 649 с.
[3] Потебня А.А. Теоретическая поэтика. – Москва: «Высшая школа», 1990. – 342 с.
[4] Жирмунский В. М. К вопросу об эпитете // Памяти П.Н. Сакулина. - М., 1931. – 416 с.
[5] Пропп В.Я. Русский героический эпос. - М.: Лабиринт, 1999. - 640 с.
[6] Alpomish: Xalq og'zaki ijodi/ "Alpomish" dostonlari turkumidan. – Toshkent: ZUKKO KITOBXON, 2023. – B. 148.

badiiy adabiyotda, ayniqsa xalq og‘zaki ijodida, qahramonlarning kuchining ramzi sifatida tez-tez uchrab turadi. Dostonda ham “keskir po‘lat” tasviri orqali Alpomishning qilichi qanchalik chiqamli qilib tasvirlash bilan birgalikda, uning egasini kuchli ekanini ham ifodakab kelmoqda. So‘nggi uch misrada aniqlangan epitetlar ham Alpomishning ta’rifi uchun berilgan. “Elning bekzodi”, “atashgan domati” va “yurtning vallamati” bosh qahramonni turli taraflardan tasvirlashga xizmat qilgan. “Elning bekzodi” deya berilgan tasvir o‘quvchiga Alpomish kimlardan ekanini ko‘rsatib turadi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida “bekzod” so‘ziga “bekdan tug‘ilgan bola; beklar nasliga mansub, bek zoti”[1] degan ta’rif berilgan. Demak, “elning bekzodi” deya berilgan ta’rif Alpomish bekning o‘g‘li shu bilan birgalikda elga dalda ko‘mak bera oladigan shaxs sifatida tasvirlashga katta hissa qo‘shgan. Bu nasl-nasab bilan bog‘liq epitet hisoblanadi. “Yurtning vallamati” deya berilgan ta’rif bir qarashda o‘quvchida salbiy assotsatsiya uyg‘otadi, ammo bu so‘z dostonda “valene’mat”, ya’ni “imon va ehson egasi” ma’nosida kelgan. “Domot” so‘zi “kuyov” degan ma’noni bildiradi. Dostonda bu so‘z “atashgan” sifatdoshi bilan birikib epitetni hosil qilgan.

Qalmoq bahodirlari Qorajon Alpomish bilan do‘st tutungan so‘ng bir makonda o‘tirganda bostirib keladi, Shu holatda Alpomish bilan Qorajon va Qorajon bilan Qolmoqlik alplar o‘rtasida suhabt kechadi. Qolmoqlar Qorajonga o‘zlarini shunday ta’rifini keltiradi.

O‘lar deb bizni g‘am yema,
O‘zingdan bizni kam dema,
Mehnat tortib bizlar kelgan,
Ne ishlarni o‘zbak qilgan,
*Ne **azamat alplar** o‘lgan,*
Biz qaytmaymiz qilmay maydon[2].

Ushbu parchada olohida olingan so‘zlar o‘zida epitetli birikmani hosil qilgan. O‘zbek tilining izohli lug‘atida “azamat” sifatining ta’rifi kiritilmagan ekan. Umuman olganda, o‘zbekzabon xalq uchun bu so‘z “ulug‘”, “buyuk” va “qudratli” degan ma’nolarda ishlatilishi hammaga ayon. Ayniqsa, inson ismi bilan bog‘langanda bu yanada aniq bo‘ladi. Demak, baxshi Qalmoq alplarni “ulug‘, buyuk va qudratli, deya ta’riflash va izohlash uchun ham “azamat” epitetini ishlatadi. Bu epitetli birikmani qahramonlik va jasoratni ifodalovchi guruhiga kirgizish mumkin. Chunki, qahramonlik va jasorat faqatgina “azamat” kishilar qo‘lidan keladigan ish.

Boshingdan pirpirlab sholdan jelaging,
Qarchig‘ay changalli, yo‘lbars bilaging,
Maydonga kirganda qoplon yuraging,
Sen yondirib men o‘chgan chirog‘im[3].

Qayqubod Alpomishni qalmoqlar zindonidan ozod qilganda aytilgan misralar. Qayqubod unda Alpomishning portretini yaratish jarayonida uch o‘rinda epitetni foydalangan. Bu epitetlar yordamida baxshi “qarchig‘ay changali”, “yo‘lbars bilag” va “qoplon yurak” so‘z birikmalarini hosil qilgan. Ularni hammasini metoforaviy epitetlar deyish mumkin. Chunki, baxshi shunchaki tavsif yoki izoh bermaydi. Ularning hammasida majoziylik mavjud. Ushbu epitetlarni alohida-alohida tahlil qilish ulardagi mavzu ko‘lamini aniq belgilashga xizmat qiladi.

Baxshi tomonidan ishlatilgan birinchi epitet “qarchig‘ay changali” birikmasi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida “qarchig‘ay” “kalta qayrilma tumshuqli, tirnoqlari uzun va o‘tkir, ovga solinadigan qush”[4] deya ta’riflangan. Bundan kelib chiqadiki, baxshi o‘z qahramoni “tutgani yulib oladigan” sifatida tasvirlash uchun “qarchig‘ay changali” metaforaviy epitetini beradi. Ya’ni. Alpomishning qo‘li ushlagan joyini qo‘yib yubormaydigan, mustahkam va dushmanga nisbatan ayovsiz kuchga ekani qush changaliga o‘xshatish orqali ifodalangan. Albatta, bu epitetni qahramonlik va jasoratni ifodalovchi epitetlar guruhiga kiritish mumkin. Chaqqonlik va mahorat o‘zining ortidan qahramonlik va jangovorlikni yetaklab keladi.

Ko‘pgina xalqlarda yo‘lbars kuch-qudrat, haybat va jasurlik timsoli. Baxshi ham ana shu ramziy ma’nonidan foydalanib, qahramoning qo‘lini kuchli va jismoniy baquvvat deya ifodalaydi. “Yo‘lbars bilag” epitet Alpomishning jismoniy kuchi, yengilmasligi va baquvvatligini bo‘rttirib ko‘rsatishga xizmat qiladi. Demak, bu so‘z birikmasida metaforaviy epitet bilan birgalikda mubolag‘ani ham uchratamiz. Mubolag‘a ham xalq og‘zaki ichida keng qo‘llanadigan tasviriy vosita hisoblanadi.

So‘nggi epitet ham hayvon timsolida majoziy ma’noda qo‘llangan. Izohli lug‘atlarda “qoplon” insonlarga nisbatan “jasur, marda odam haqida”[5] deya ta’rif berilgan. “Yurak” esa, xalq og‘zaki ijodida qo‘rqmaslik, mardlik va botirlikning timsolidir. “Qoplon yurak”li deya epitetli birikma qilish, qahramonni jang

[1] Begmatov E., Hojiyev A., Madvaliyev A. va boshqalar. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-jild. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B. 145.

[2] Alpomish: Xalq og‘zaki ijodi/ “Alpomish” dostonlari turkumidan. – Toshkent: ZUKKO KITOBXON, 2023. – B. 254.

[3] Alpomish: Xalq og‘zaki ijodi/ “Alpomish” dostonlari turkumidan. – Toshkent: ZUKKO KITOBXON, 2023. – B. 444.

[4] Begmatov E., Hojiyev A., Madvaliyev A. va boshqalar. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 4-jild. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B. 77.

[5] Begmatov E., Hojiyev A., Madvaliyev A. va boshqalar. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 4-jild. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B. 213.

maydonida zarracha qo‘rquv bilmasligi va shijoatli ekanini bildiradi.

Baxshi ushbu misralarda tabiatdagi eng kuchli yirtqich hayvonlar timsolidan foydalanib, Alpomishning portretini juda ta’sirli, tushunarli va ma’noga boy tarzda tasvirlagan. Alpomishning tasvirida yan bir joyda “yo‘lbars timsolodan foydalaniladi. Barchinoy to‘y payti o‘g‘li Yodgorga otasi Alpomish yurtga qaytganini sezib shunday ta’riflaydi.

Mard yigit *maydonga kirsa jellidir,*
To‘qayda ***yo‘lbarsning izi*** *bellidir*[1].

Taniqli adabiyotshunos O.Madayev “dostonda insonning ma’naviy qiyofasini belgilovchi ezgulik, haqiqiy odamlarga mehribonlik, diyonat, chidamlilik kabi oliy fazilatlar haqida xalqning fikrlari ifodalanganini ham his etamiz” [2]deb bejizga aytmagan. O‘zbek xalqida yigitlarga nisbat berilganda “mard” so‘zini ishlatiladi. “Mard yigit” epitetli birikmasi esa, qahramonni kuchli, botir, jasur ekaniniga bir ur’gu berib o‘tish uchun berilgan.

Misralarda kelgan asosiy epitet “yo‘lbarsning izi” hisoblanadi. Yo‘lbarsning izi qayerdaligiga e’tibor beraylik. “To‘qay” xalq og‘zaki ijodida “jang maydoni”ning ramzini beradi. Demak, Barchiniy to‘yxonaga Alpomishning kelishi “to‘qayga yo‘lbarsning izi” borligini belgisi bor deya ta’riflaydi.

Dostonning yana bir muhim qahramonlaridan biri hech shubhasiz Qaldirgochoyimdir. Alpomish o‘ldi deb tuya boqib yurgan paytda akasidan kelgan xatni o‘qib, uni tirikligini eshitadi. Ana shu syujet baxshi tomonidan shunday misralar bilan boshlanadi:

Azob berdi shirin jonim bu tanda,
Kalmago‘y bandaman, bo‘lmay sharmanda,
Tirik ekan mehribonim zindonda,
O‘lgan yo‘q ekan-ku, akam omonda[3].

Jigarini tirik ekanini eshitganidan xursand bo‘lgan Qaldirg‘ochoyim birdan yoruqlikka chiqqan kayfiyatda so‘zlashni boshlaydi. “Shirin jon”, “kalmago‘y banda” va “mehribonim” kabi so‘z va so‘z birikmalari bilan epitet hosil bo‘ladi.

Birinchida berilgan “shirin jon”epitetida metafora ham mavjud. Ya’ni, jonning aslida ta’mi yo‘q. “Shirin” so‘zi “jon” leksemasi bilan birikkanda inson uchun hayot, yashash va tiriklik qanchalik aziz va qadrli ekanini ko‘rsatadi. Dostonda “azob berdi shirin jonim bu tanda” deganda boshga tushgan kulfat va ayriliq dardi insonning eng shirin va aziz ne’mati bo‘lgan hayotini ham zobga to‘ldirib yuborganini ta’kidlaydi.

Misralardagi ikkinchi epitet “kalmago‘y banda” so‘z birikmasi bilan ifodalangan. Aslida “kalimago‘y banda” shaklida bo‘lishi kerak edi, Ammo folklorshunoslikda aytuvchi baxshi tilida shevaga xos so‘zlar ham berilishi mumkin. Shuning uchun “kalimago‘y” so‘zi “kalmago‘y” tarzida berilgan. Bu xato hisoblanmaydi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida “kalimago‘y” so‘ziga “kalimayi shahodatni doim takrorlab turuvchi musulmon”[4] deya ta’rif berilgan. Demak, bu epitet Qaldirg‘ochoyimni musolmonligiga iqrorligini birinchi belgisi “kalimayi shahodat”ni takrorlab yurishini anglatadi. Bu epitetni sadoqatni ifodalovchi epitetlar qatoriga qo‘shish mumkin.

Oxirgi epitet “mehribonim” sifatini bilan ifodalanadi. Bu epitet Alpomishga tegishli bo‘lib, misrada “akam” so‘zini izohlab keladi.

Rus olimi B.V.Tomashevskiy “epitet aniqlanayotgan so‘zda mavjud bo‘lmagan yangi xususiyat kiritmaydi”[5] degan fikrni ilgari suradi. Bu fikrning aksi o‘laroq, “O‘zbek tilida epitetlarning lingvopoetik tadqiqi” bo‘yicha doktorlik ishini qilgan Z.Normurodova “epitet shaxs, narsa, voqea-hodisaning oddiy aniqlovchi bo‘lib qolmasdan, balki ularning poetik obraz darajasigacha olib chiqolganligi, mohiyatini, g‘oyaviy-estetik qiymatini muayyan badiiy matndagi vazifasini belgilab berolgani bilan ham e’tiborlidir”[6] deb fikr bildiradi. Ikki fikrda ham asos yetarli. Aslida Z.Normurodova V.N.Tomashevskiyning tomonidan bildirilgan fikrlarni inkor qilmaydi. Tadqiqotchi rus olimining fikrlarini o‘zbek tilida uchraydigan epitetlardan tahlil qilib to‘ldiradi. Ya’ni bazida oddiy yangi ma’no kiritmaydigan epitet ham jumla yoki misraning mohiyatini, badiiy-estetik qiymatini ham belgilab berishi mumkin. Bunday misolni biz yuqorida Qaldirg‘ochoyim o‘zini “kalmago‘y banda” deb atagan epitetlarni misol qilishimiz mumkin. Birgina shu epitet bilan doston qahramoni islom diniga qanday sobit ekanini bilib olishimiz mumkin. Va bu g‘oya butun bir doston davomida Qaldirg‘ochoyimning portretida yaqqol ko‘zga tashlanib turadi.

Olib borilgan tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, “Alpomish” dostonida qahramonlar portretini yaratishda epitet muhim badiiy tasviriy vosita sifatida foydalanilgan. U shunchaki beazok yoki tasvir vositasi bo‘lib qolmay, balki qahramon obrazining ichki mohiyatini, g‘oyaviy-estetik qimmatini ochib beruvchi poetic unsur darajasiga ko‘tarilgan. Dostonning Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li tomonidan aytilgan variantning tahlilidan epitet-

[1] Alpomish: Xalq og‘zaki ijodi/ “Alpomish” dostonlari turkumidan. – Toshkent: ZUKKO KITOBXON, 2023. – B. 434.
[2] Madayev O., Sobitova T. Xalq og‘zaki poetik ijodi.(Akademik litseylar uchun darslik – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 124.
[3] Alpomish: Xalq og‘zaki ijodi/ “Alpomish” dostonlari turkumidan. – Toshkent: ZUKKO KITOBXON, 2023. – B. 343.
[4] Begmatov E., Hojiyev A., Madvaliyev A. va boshqalar. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 4-jild. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B. 719.
[5] Томашевский Б.В. Стилистика и стихосложение. – Ленинград, 1959. – С. 203.
[6] Normurodova Z. O‘zbek tilidagi epitetlarning lingvopoetik tadqiqi. Filol.fan.fal.dok. …diss.avtoreferat – Termiz, 2025. – B. 14.

[3] Abdulla Qədiri. (2023). Ötən günlər (özbəklərin həyatından tarixi roman) (X. Səid, Çev.; H. Zeynallı, Red.; A. Ülvi,). – Bakı: Azərbaycan Milli Elmlər Akademiyası. (Orijinal əsər 1928-1929-cu illərdə nəşr edilmişdir). – S. 12-13.

yuksak maqomga ko‘taradilar»[1].

Ko‘rinib turganidek, har ikki ziyolining faoliyati va konseptual falsafasi isbotlardiki, adabiyot va tarixiy xotira o‘tmishga shunchaki nostalgik qarash emas, balki kelajakning milliy rivojlanish modelidir. Ko‘charlining «adabiyot millatning oynasidir» degan tezisi, Abdulla Qodiriyning epik nasrda amalga oshirgan missiyasi bilan to‘liq mos keladi. Ushbu model keyinchalik Erkin Vohidovning falsafiy she’riyatida Qodiriyning epik xotirasi va Ko‘charlining ma’naviy meros nazariyasining poetik so‘z bilan umumlashtirilishiga xizmat qildi. Shunday qilib, Abdulla Qodiriyning *«O‘tkan kunlar»* romanida badiiy bo‘yoqlar bilan jonlantirgan o‘tmish Turkiston xonliklarining ichki to‘qnashuvlarini, xalq chekkan tarixiy iztiroblarni va ma’naviy yo‘qotishlarni Erkin Vohidov o‘zbek tilining boy intonatsiyasi bilan yuksak lirik pafosda jaranglagan ushbu misralarida shunday bitgan edi:

O‘zbegim deb keng jahonga
Ne uchun madh etmayin!
O‘zligim bilmoqqa davrim
Berdi imkon, o‘zbegim.
Men buyuk yurt o‘g‘lidurman,
Men bashar farzandiman,
... Lek Navoiydek bobom bor,
Ko‘ksim osmon, o‘zbegim.
Qayga bormay, boshda do‘ppim,
G‘oz yurarman gerdayib,
Olam uzra nomi ketgan
O‘zbekiston, o‘zbegim.
Bu qasidam senga, xalqim,
Oq sutu tuz hovli,
Erkin o‘g‘lingman, qabul et,
O‘zbegim, jon o‘zbegim. [2]

Erkin Vohidovning ushbu misralari ilmiy va nazariy jihatdan isbotlaydiki, Qodiriyning romanchilik san’ati bilan ochgan epik tarixiy yo‘li va Ko‘charlining adabiyot tarixiga bergan milliy ma’naviyat pasporti missiyasi, Vohidov poeziyasida o‘tmishning qorong‘u zulmatidan milliy istiqlolga tomon uzangan o‘ziga xos ma’naviy-falsafiy evolyutsion zanjirni tashkil etgan.

Usmon Nosir va Hasanbek Zardobiy paraleli – Milliy o‘zlikni anglash g‘oyasining tarixiy evolyutsiyasi totalitar tuzumlar tazyiqi va qattiq senzura sharoitida san’atkorlardan yanada yuksak fuqarolik pozitsiyasi va ma’naviy qarshilik talab qilar edi. Jadidchilik harakati keltirgan milliy istiqlol ideallari XX asrning 30-yillarida Usmon Nosir kabi otashqalb shoirlarning isyonkor poeziyasida o‘zining badiiy-estetik cho‘qqisiga yetgan edi.

Agar barg kabi yiqilsam,
Bog‘im meni unutmaydi.
Ismimni hurmat bilan eslaydi.
Gullardan haykal quradi.
She’rlarim aks-sado berishda davom etadi.
Hayotimning davomi.
Kelajagimning himoyachisi.
Men abadiy o‘lmayman.! [3]

Usmon Nosir o‘zbek poeziyasida ozodlik g‘oyasining eng yorqin ifodachilaridan biri sifatida tanilgan; uning ijodi romantik pafos, yuksak fuqarolik pozitsiyasi va milliy liyoqat hissi bilan ajralib turadi. Shoir qisqa umr ko‘rishiga qaramay, o‘zbek poeziyasida ozod ruhning va ma’naviy qarshilikning poetik simvoliga aylandi. Taniqli o‘zbek adabiyotshunosi, professor Ibrohim G‘afurov shoirning ushbu ma’naviy missiyasini baholab yozadi: *«Usmon Nosir qarshisida bizning hech qachon to‘lab bitira olmaydigan cheksiz ma’naviy qarzimiz bor. Har safar uning so‘zidan – she’rlari va dastanlaridan bahramand bo‘lganimizda, bu qarz tarixdan uzanan bir qo‘l kabi insonning yelkalaridan tutadi. Uning poeziyasi bo‘ronli badiiy sadoberishlari bilan butun bir avlodning milliy xotirasi va ozodlik shuurini uyg‘otgan ma’naviy quvvatdir»*[4]. Usmon Nosirning *«Yurak»*, *«Mehrim»*, *«Safarbar satrlar»* va boshqa asarlarida inson ozodligi, vatan sevgisi, milliy g‘urur va ma’naviy liyoqat yetakchi mavzular bo‘lib, insonni totalitar mafkura chegaralaridan chiqib ketgan yuksak humanist shaxs sifatida taqdirlar edi.

Ushbu badiiy qarshilik va so‘zning ijtimoiy kuchga aylanish jarayoni, Ozarbayjon milliy matbuotining asoschisi Hasanbek Zardobiyning faoliyati bilan bir xil g‘oyaviy-estetik platformani baham ko‘radi. Zardobiy milliy o‘zlikni anglash jarayonida ijtimoiy so‘zning va maorifparvarlikning rolini yangi bosqichga ko‘targan, u ta’sis etgan *«Akinchi»* (Əkinçi) gazetasi jamiyatda milliy shuur shakllanishiga va ona tilining rivojlanishiga mühüm ta’sir ko‘rsatgan edi. Zardobiy xalq taraqqiyotining yagona shartini ma’rifatparvarlik va milliy birlikda ko‘rib, maorifni milliy tiklanishning asosiy vositasi deb hisoblagan. Uning publisistik merosidagi til, madaniyat va milliy birdamlik masalalari, Usmon Nosirning poeziyadagi milliy liyoqat va ozodlik g‘oyalarini romantik pafos bilan ifodalashi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri hamohangdir. Har ikki san’atkor

[1] Köçərli, F. b. (2005). Azərbaycan ədəbiyyatı (İki cilddə, I cild). Bakı: Avrasiya Press. – S. 44.

[2] Vohidov E. . Saylanma. I jild: Ishq savdosi (She’rlar va dostonlar). – Toshkent: Sharq, 2000. – B. 106-107.

[3] Məmmədli, P. Osman Nasir. A. Ülvi (Red. və Ön söz müəl.), Ədəbi portretlər (özbək şair və yazıçıları haqqında məqalələr) daxilində (s. 65-80). – Bakı: Nurlar, 2023. – S. 68.

[4] G‘afurov, I. (2024, iyul 8). Qismatning ovozi (Usmon Nosir ilhomlari). Xurshid Davron kutubxonasi. kh-davron.uz

uchun san'at va so'z xalqning ma'naviy yuksalishiga, totalitar zulmatga qarshi qarshilik ko'rsatishiga xizmat qiladigan yaroduvchi kuch edi. Usmon Nosirning repressiya yillarida joni evaziga asragan ushbu milliy poetik ruhi, keyinchalik Erkin Vohidov ijodida milliy o'zlik konsepsiyasining estetik poydevoriga aylandi va izchil davom ettirildi.

Hasan bey Zardabiy tomonidan shakllantirilgan «ommaviy nutqning qo'rqmasligi» falsafasini «Akinchi» gazetasi va Usmon Nosirning estetik meros darajasida qatag'on girdobida yo'q qilingan isyonkor lirik sadolari bilan sintez qilib, Erkin Vohidov totalitar tuzum sharoitida qalamning ma'naviy kuchini va rassomning tik turishini she'riy manifest darajasiga ko'tardi. Shoirning rasmiy to'plamiga kiritilgan 1967-yilda yozilgan «Qalam» nomli monumental she'rida u ozarbayjon akademik imlosiga muvofiq buyuk fuqarolik pafosi bilan zulmkor rejimlar tomonidan qatag'on qilinganiga qaramay, bosh egmagan milliy tafakkur va ommaviy nutqning mustahkam kuchini kuyladi:

Boshini ming kesdilar,
Bosh egmadi aslo kalam.
Yor, diyor mehrini kuylab
Umrimiz bo'lgay ado.
Men na istisno erurman,
Sen na mustasno, qalam.
Yangrasin Erkin so'zing,
Aslo tiling lol o'lmasin.
Dast ko'tar davron yukini,
Etma qadding yo, qalam![1].

Erkin Vohidovning ushbu misralari fundamental tarzda isbotlaydiki, Zardobiy publisistikasidan va Usmon Nosir romantizmidan suzilib kelgan milliy qarshilik ruhi, Vohidov poeziyasida «boshini kessalar ham bosh egmaydigan» haq qalami ramzi bilan birlashib, zamonaviy o'zbek adabiyotida milliy o'zlik mafkurasining ma'naviy g'alabasini ta'minlaydigan asosiy omillardan biriga aylangan.

Maqsud Shayxzoda va Uzeyirbek Hojibeyov koordınataları – Milliy o'zlikni anglash konsepsiyasining to'liq yetkinlashishi va kelajakka o'tkazilishi uchun klassik meros bilan zamonaviy badiiy tafakkur o'rtasida mustahkam ko'priklar qurilishi zarur edi. Ushbu tarixiy-estetik missiyani o'zbek adabiyotida Ozarbayjon va o'zbek xalqlarining ortoq adabiy-madaniy koordinatalarini shakllantirgan Maqsud Shayxzoda unikal tarzda amalga oshirdi. Shayxzoda ijodida milliy tarix, klassik adabiyot, umumturk madaniyati va humanist qadriyatlar yaxlit estetik tizim ichida taqdim etiladi. Totalitar tuzum tazyiqlari va senzura to'siqlariga qaramay, milliy tafakkurni asrashda uning roli mustasnodir. O'zbek adabiyotshunosligining atoqli namoyandasi, akademik Naim Karimov shoirning ushbu tarixiy missiyasini yuqori baholab yozadi: *«Maqsud Shayxzoda – o'z adabiyotini jahon xalqlari adabiyotlari bilan o'zaro bog'lagan «oltin ko'prik»larimizdan biridir. Shayxzoda ijodida tarixiy xotirani jonlantirish – milliy o'zlikni anglash va mustahkamlash bilan chambarchas bog'liq edi»*[2].

Uzeyirbek Hojibeyovning ijodidagi ushbu fosh etuvchilik pafosi va dramatik konflikt san'atkorning sosiomadaniy taraqqiyotga bo'lgan qarashlarini to'liq aks ettiradi. Shayxzodaning badiiy matnda qurgan «oltin ko'prik» va klassik merosga qaytish xətti, Uzeyir Hojibeyovning musikalı dramaturgiyada qilgan va ko'hnallikni radikal tarzda fosh qilishga qaratilgan klassik-zamonaviy sintezi bilan to'liq tipologik tərəfdoshdir. Maqsud Shayxzodaning *«Mirzo Ulug'bek»*, *«Jaloliddin Manguberdi»* va boshqa asarlarida tarixiy shaxslar milliy xotiraning jonli daşıyuvchilari sifatida taqdim etilib, o'tmish zamonaviy milliy shuur shakllanishiga xizmat qiluvchi ma'naviy maktab sifatida baholanar edi.

Ushbu estetik yondashuv Ozarbayjon professional musikasining asoschisi Uzeyirbek Hojibeyovning madaniyat falsafasi bilan bir xil prinsiplər asosiga qurilgan edi. Hojibeyov milliy o'zlik g'oyasini musika, dramaturgiya va publisistika sohasida yangi estetik mazmun bilan rivojlantirdi. Uning *«Layli va Majnun»*, *«O olmasin, bu bo'lsin»*, *«Arshin mal alan»* kabi asarlari xalq musikasi bilan klassik Sharq merosini va Yevropa madaniyatini yaroduvchi tarzda birlashtirib, milliy san'atning rivojlanish modelini yaratdi. Ozarbayjon adabiyotshunosligida va teatr tanqidida ham haqli ravishda taidlab o'tilganidek, ushbu komediya faqat Uzeyir Hojibeyov ijodidagigina emas, balki butun Ozarbayjon adabiyotidagi eng yaxshi komediyalardan biri bo'lib, ham mazmuni, ideyasining chuqurligi, fosh etuvchilik quvvati jihatidan, ham badiiy xususiyatlari bilan klassik darajaga ko'tariladi. Bu yerda ham muallif o'z zamonasi uchun xarakterli bo'lgan mütərəqqiy va mustabid kuchlar o'rtasidagi kurashni dramatik konfliktning markaziga qo'ygan. Nima vosita bilan bo'lmasin pul topishni istagan, qarzdor bo'lib qolgan Rustambek, pul tarafdan ishi o'ngidan kelgan boy savdogar Mashadi Ibod, «millatparvar» Hasanqulubek, «intelligenti» Hasanbek, gazetachi Rzabek, qo'chchi Asqar va boshqalar ko'hnallikni tamsil etadilar[3].

[1] Vohidov E. Saylanma. I jild: Ishq savdosi (She'rlar va dostonlar). – Toshkent: Sharq, 2000. – B. 75.
[2] Karimov N. Maqsud Shayxzoda (maarifiy-biografik roman). – Toshkent: Sharq, 2009. – B. 5.
[3] Hacıbəyov Ü. (1985). Seçilmiş əsərləri. Bakı: Yazıçı. – S. 7.

Shayxzodaning badiiy matnda qurgan «oltin ko‘prik» va klassik merosga qaytish xətti, Uzeyir Hojibeyovning musiqada qilgan klassik-zamonaviy sintezi bilan to‘liq tipologik tərəfdoshdir. Har ikki san’atkor uchun milliy madaniyat o‘tmishni ko‘r-ko‘rona asrash emas, balki kelajakning ma’naviy rivojlanishini ta’minlovchi yaroduvchi energiya manbaidir. Ushbu yondashuv keyingi davrda Erkin Vohidov yarandigida yanada keng nazariy mazmun kasb etib, so‘z, til va xususan Alisher Navoiy merosini zamonaviy milliy tafakkur bilan aloqalandirishga, klassik-zamonaviy sintezning yaxlit estetik konsepsiya darajasiga ko‘tarilishiga mustahkam zamin yaratdi. Zamonaviy adabiyotshunoslikda va komparativist tahlillarda ham tasdiqlanganidek, Erkin Vohidov klassik Sharq merosini zamonaviy poeziyaning estetik koordinatalari bilan sintez qilganda Maqsud Shayxzodaning badiiy matnda, Uzeyirbek Hojibeyovning esa professional musiqada yuksaltirgan o‘sha konseptual «oltin ko‘prik» modelini to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashtirgan. Shoir o‘zining rəsmi devonida joy olgan falsafiy mulohazalarida, daho salaflarinin ochgan ushbu klassik intibah yo‘lini badiiy tarzda shunday umumlashtirgan edi:

Fuzuliy devonin qo‘limga oldim,
U soldi ko‘nglimga g‘azal mehrini...
Ko‘p zahmat so‘ngida
Anglab yetoldim
Ustoz Alisherning buyuk sehrini.
Uni tanidimu elimni bildim. [1]

Erkin Vohidovning Ozarbayjon tilida yuksak poetik ehtirom bilan yangragan ushbu misralari fundamental tarzda isbotlaydiki, Uzeyirbekning operada amalga oshirgan maqom va Yevropa musiqasi vahdati, Shayxzodaning dramaturgiyada qurgan tarixiy xotira falsafasi, Vohidov poeziyasida Alisher Navoiy va Fuzuliy dehosini anglash orqali «elini (millatini) tanish» formulasiga aylangan hamda klassik-zamonaviy sintezni milliy o‘zlik konsepsiyasining sarsilmas bir ustuniga aylantirgan.

Jadidchilikdan Erkin Vohidovga uzangan vorislik xattining ılmiy-nazariy umumlash-tirilishi – Bunday qilib, Abdurauf Fitratdan boshlanib Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir va Maqsud Shayxzoda ijodida milliy o‘zlikni anglash g‘oyasi turli janrlar va badiiy shakllar vositasida izchil hamda tizimli rivojlanish yo‘lini bosib o‘tgan. Ushbu san’atkorlarning har biri milliy o‘zlikning, ona tilining, tarixiy xotiraning va ma’naviy ozodlikning asralishini o‘z ijodining yetakchi g‘oyaviy-estetik yo‘nalishiga aylantirgan. Komparativist tahlillar shuni ko‘rsatadiki, jadidchilik harakati shunchaki lokal xarakterdagi tarixiy-madaniy voqea emas, balki butun boshli zamonaviy o‘zbek poeziyasida milliy o‘zlik g‘oyasining genezisini falsafiy va strukturaviy jihatdan belgilovchi asosiy bosqichdir. Ushbu boy adabiy an’ananing ortaq mafkuraviy va estetik poydevori keyingi davrlarda Ozarbayjon va o‘zbek adabiyotlari o‘rtasidagi qiyosiy-tipologik yaqinliklarning ilmiy jabhada o‘rganilishi nuqtayi nazaridan alohida dolzarblik kasb etadi. Ozarbayjon adabiyotshunosligida jadidchilik harakati va uning ko‘zga ko‘ringan namoyandalarining ijodi bilan bog‘liq holda olib borilgan fundamental tadqiqotlar hamda monografiyalar, o‘zbek milliy o‘zlik an’anasini makro-aspektdan baholash uchun keng ilmiy baza yaratgan.

Nazariy jihatdan chiqarilgan eng mühüm konseptual umumlashtirish shundan iboratki, milliy tiklanish jarayoni madaniyatlarning bir-birini o‘zaro rag‘batlantirishi natijasida tezlashadi. Ozarbayjon ma’rifatparvarligining – Mirzo Fatali Axundzoda tafakkurining, Hasanbek Zardobiy publisistikasining, Jalil Mammadquluzada realizmining, Firidunbek Ko‘charli manbashunosligining va Uzeyirbek Hojibeyov falsafasining Turkiston mühitiga ta’siri tabiiy g‘oyaviy oqim (mafkuraviy oqim) edi. Ushbu g‘oya oqimi o‘zbek intellektuallari tomonidan mexanik tarzda maysimlashtirilmagan (taqlid qilinmagan); o‘zlarining boy madaniy mühitlari – Shayboniylar va Temuriylar davri davlatchilik xotirasining, klassik chig‘atoy tili normalarining, folklor poydevorining va klassik Sharq poetikasining süzgichidan o‘tkazilib, o‘ziga xos estetik makro-tizimga aylantirilgan. –

Aynan ushbu murakkab ma’naviy-estetik va sintetik zamin ustida yetishgan Erkin Vohidov ijodini ushbu tarixiy-metodologik kontekstdan tashqarida baholash ilmiy jihatdan imkonsizdir. Tadqiqot jarayonida tahlilga tortganimiz *«Kichik Oy so‘zi»* («Kosmonavt va shoir»), *«Buloq»*, *«Qalam»*, *«Quyosh maskani (dostondan boblar)»* she’rlari hamda monumental *«O‘zbegim»* qasidasi yaqqol ko‘rsatadiki, XX asrning ikkinchi yarmi o‘zbek poeziyasida milliy o‘zlik g‘oyasi sifat jihatidan yangi badiiy-estetik bosqichga qadam qo‘ygan. Erkin Vohidov jadidchilikdan va Ozarbayjon ma’rifatparvarligidan suzilib kelgan milliy tafakkur an’analarini vorislik prinsipi asosida davom ettirib, uni zamonaviy davrning qlobal ijtimoiy-madaniy reallqları bilan uyg‘unlashtirgan. Shoir salaflarining ilgari surgan g‘oyalarini shunchaki deklarativ tarzda takrorlamasdan, ularni falsafiy umumlashtirish darajasiga ko‘tarib, umumturk madaniy tafakkuri va umumbashariy humanist qadriyatlar bilan aloqalandirgan original badiiy strukturaviy tizim yaratgan.

Tadqiqotning kelgusi oxirgi ilmiy xulosasi shundan iboratki, milliy o‘zlik (milliy kimlik) mavzusi ush-

[1] Vohidov E. Saylanma. I jild: Ishq savdosi (She’rlar va dostonlar). – Toshkent: Sharq, 2000. – B. 215.

bu adabiyotlarda vaqtincha konyunktura yoki siyosiy tendensiya emas, balki san'atning mangu yashash qonunidir. Erkin Vohidov timsolida ushbu g'oya endilikda regional chegaralardan oshib, butun boshli zamonaviy turk xalqlari adabiyotida milliy intellektual rivojlanish yo'lining yangi tarixiy bosqichdagi yuksak cho'qqisiga ko'tarilishi deb baholanishiga to'liq ilmiy, nazariy va metodologik asoslar beradi.

Xülasə. Məqalədə XIX əsrin sonu – XX əsrin əvvəllərində türk-müsəlman coğrafiyasında baş verən qlobal ictimai-siyasi və mədəni kataklizmlər fonunda özbək cədid ədəbiyyatı ilə Azərbaycan maarifçi-demokratik düşüncəsinin ideya-estetik əsasları müqayisəli-tipoloji aspektdən geniş şəkildə tədqiq olunur. Tədqiqat işi müasir müqayisəli ədəbiyyatşünaslığın metodoloji prinsipləri əsasında, sənətkarların fəaliyyətini ayrı-ayrı elementlər kimi deyil, vahid və ardıcıl məfkurəvi təkamül zənciri kimi nəzərdən keçirir. Bu çərçivədə, milli özünüdərk və mənəvi oyanış anlayışları fəlsəfi-estetik sistem səviyyəsində təhlil edilir. Mətndə Əbdürrauf Fitrət və Mirzə Fətəli Axundzadənin nəzəri-islahatçı baxışları, Əbdülhəmid Çolpan və Cəlil Məmmədquluzadənin bədii-ictimai yaradıcılığındakı milli oyanış pafosu, Abdulla Qədiri və Firidun bəy Köçərli irsindəki epik və elmi tarixi yaddaşın bərpası məsələləri, eləcə də Osman Nasir, Həsən bəy Zərdabi, Maqsud Şeyxzadə və Üzeyir Hacıbəylinin milli mədəniyyət kontekstindəki xidmətləri «canbir qəlb» prinsipi ilə üzvi şəkildə qarşılaşdırılır və onların funksional bərabərliyi əsaslandırılır. Araşdırmada hər iki mühitdə ana dilinin statusunun qorunması, milli məktəb və mətbuatın inkişafı, totalitar senzura şəraitində sənətkarın vətəndaşlıq mövqeyi və göstərdiyi mənəvi dirəniş elmi-nəzəri ümumiləşdirmələrə cəlb olunur.

Sonda cədidçilik və maarifçilik ənənələrinin XX əsrin ikinci yarısında özbək poeziyasının görkəmli nümayəndəsi Erkin Vahidovun yaradıcılığında milli özünüdərk konsepsiyasının fundamental estetik təməlinə çevrilməsi, regional sərhədləri aşaraq ümumtürk mədəni düşüncəsinin yeni tarixi mərhələdə zirvə nöqtəsinə yüksəlməsi varislik prinsipi baxımından elmi şəkildə ümumiləşdirilir və əldə olunan nəticələr konseptual şəkildə şərh edilir.

Rezyume. Maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida turk-musulmon dunyosida yuz bergan global ijtimoiy-siyosiy va madaniy o'zgarishlar fonida o'zbek jadid adabiyoti hamda Ozarbayjon ma'rifatparvarlik-demokratik tafakkurining g'oyaviy-estetik asoslari qiyosiy-tipologik jihatdan keng ko'lamda tadqiq etilgan. Tadqiqot zamonaviy qiyosiy adabiyotshunoslikning metodologik prinsiplari asosida ijodkorlar faoliyatini alohida elementlar sifatida emas, balki yagona va uzviy g'oyaviy evolyutsion zanjir sifatida ko'rib chiqadi. Ushbu doirada milliy o'zlikni anglash va ma'naviy uyg'onish tushunchalari falsafiy-estetik tizim darajasida tahlil qilinadi. Matnda Abdurauf Fitrat va Mirzo Fatali Axundzodaning nazariy-islohotchilik qarashlari, Abdulhamid Cho'lpon va Jalil Mammadqulizoda ijodidagi milliy uyg'onish pafosi, Abdulla Qodiriy va Firidunbek Ko'charli merosidagi epik hamda ilmiy tarixiy xotirani tiklash masalalari, shuningdek, Usmon Nosir, Hasanbek Zardobiy, Maqsud Shayxzoda va Uzeyir Hojibeyovning milliy madaniyat kontekstidagi xizmatlari o'zaro uzviy bog'liqlikda qiyoslanadi hamda ularning funksional tengligi asoslanadi. Izlanishda har ikki muhitda ona tilining maqomini qorash, milliy maktab va matbuotning rivojlanishi, totalitar senzura sharoitida ijodkorning fuqarolik pozitsiyasi va ko'rsatgan ma'naviy qarshiligi ilmiy-nazariy jihatdan umumlashtiriladi.

Yakunda jadidchilik va ma'rifatparvarlik an'analarining XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek she'riyatining yirik namoyandasi Erkin Vohidov ijodida milliy o'zlikni anglash konsepsiyasining fundamental estetik poydevoriga aylanishi, regional chegaralardan oshib, umumturk madaniy tafakkurining yangi tarixiy bosqichda yuksak cho'qqiga ko'tarilishi vorislik prinsipi nuqtayi nazaridan ilmiy jihatdan umumlashtirilgan va konseptual xulosalar berilgan. Bundan tashqari, maqolada o'zbek va ozarbayjon xalqlari ma'naviy merosining umumiyligi, ularning tarixiy taqdiri va mustaqillik yo'lidagi kurashi falsafiy mushohada etiladi, adabiy jarayonning qonuniyatlari tahlil qilinadi.

Resume. The article provides a comprehensive comparative and typological analysis of Uzbek Jadid literature and Azerbaijani enlightenment-democratic thought against the background of global socio-political and cultural cataclysms in the Turkic-Muslim world in the late 19th and early 20th centuries. Based on the methodological principles of modern comparative literary criticism, the study considers the creative activities of thinkers not as isolated elements, but as a unified and continuous ideological evolutionary chain. Within this framework, the concepts of national self-awareness and spiritual awakening are analyzed at the level of a philosophical and aesthetic system. The text organically compares the theoretical-reformist views of Abdurauf Fitrat and M.F. Akhundzade, the pathos of national awakening in the works of Abdulhamid Cho'lpon and Jalil Mammadguluzade, the restoration of epic and scientific historical memory in the heritage of Abdulla Qədiri and Firidun bey Kocharli, as well as the contributions of Osman Nasir, Hasan bey Zardabi, Maqsud

Sheykxzade, and Uzeyir Hajibeyov in the context of national culture, demonstrating their functional equivalence. The research scientifically generalizes the issues of preserving the status of the native language, the development of national schools and press, the civic stance of writers, and their spiritual resistance under conditions of totalitarian censorship.

In conclusion, the transformation of Jadid and Enlightenment traditions into the fundamental aesthetic basis of the concept of national self-awareness in the poetry of Erkin Vahidov, a prominent representative of Uzbek literature in the second half of the 20th century, and its elevation beyond regional borders to a peak of pan-Turkic cultural thought in a new historical stage are scientifically synthesized from the perspective of the succession principle.

Резюме. В статье в сравнительно-типологическом аспекте всесторонне исследуются узбекская джадидская литература и азербайджанская просветительско-демократическая мысль на фоне глобальных общественно-политических и культурных катаклизмов в тюрко-мусульманском мире в конце XIX – начале XX веков. На основе методологических принципов современного сравнительного литературоведения деятельность писателей рассматривается не как изолированные элементы, а как единая и непрерывная идейно-эволюционная цепь. В этих рамках понятия национального самосознания и духовного пробуждения анализируются на уровне философско-эстетической системы. В тексте органично сопоставляются теоретико-реформаторские взгляды Абдурауфа Фитрата и М.Ф. Ахундзаде, пафос национального пробуждения в творчестве Абдулхамида Чолпона и Джалила Мамедкулизаде, вопросы восстановления эпической и научной исторической памяти в наследии Абдуллы Кадыри и Фиридун-бека Кочарли, а также вклад Османа Насыра, Гасан-бека Зардаби, Максуда Шейхзаде и Узеира Гаджибекова в контексте национальной культуры, доказывая их функциональную эквивалентность. В исследовании научно обобщаются вопросы сохранения статуса родного языка, развития национальной школы и прессы, гражданской позиции писателей и их духовного сопротивления в условиях тоталитарной цензуры.

В заключении научно-теоретически обобщается трансформация традиций джадидизма и просветительства в фундаментальную эстетическую основу концепции национального самосознания в поэзии Эркина Вахидова, выдающегося представителя узбекской литературы второй половины XX века, и её возвышение за пределы региональных границ до вершины общетюркской культурной мысли на новом историческом этапе с точки зрения принципа преемственности. Кроме того, в статье философски осмысливается общность духовного наследия узбекского и азербайджанского народов, их историческая судьба и борьба на пути к обретению государственной независимости, анализируются закономерности литературного процесса.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 7
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

IJTIMOIY TARMOQLARDA O'ZBEK TILINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Samandarova Gulhayo Erkin qizi,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasi tayanch doktoranti

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar va internet kommunikatsiyasining jadal rivojlanishi jamiyat hayotining deyarli barcha sohalarida, jumladan, til va muloqot tizimida ham sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Ushbu jarayonda ijtimoiy tarmoqlar nafaqat axborot almashish vositasi, balki yangi kommunikativ makon, ijtimoiy munosabatlar va til taraqqiyotini shakllantiruvchi muhim omillardan biriga aylandi[1]. Telegram, Instagram, Facebook, TikTok, YouTube va X (Twitter) kabi platformalar millionlab foydalanuvchilarning kundalik muloqot muhiti sifatida o'zbek tilining qo'llanish sohasini kengaytirib, raqamli muloqotga xos yangi nutq shakllari va kommunikativ odatlarning yuzaga kelishiga zamin yaratmoqda.

Raqamli kommunikatsiyaning rivojlanishi til tizimining leksik, morfologik, sintaktik, grafik va pragmatik sathlarida sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda[2]. Xususan, internet diskursida kommunikativ tejamkorlik, multimodallik, xorijiy til birliklarining o'zlashuvi hamda kod almashinuvi zamonaviy o'zbek tili taraqqiyotining asosiy tendensiyalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda[3].

Biroq ijtimoiy tarmoqlardagi tezkor va norasmiy muloqot adabiy til me'yorlaridan chetlanish, imlo va punktuatsiya qoidalariga to'liq rioya qilmaslik hamda xorijiy til birliklarining me'yoridan ortiq qo'llanishi kabi holatlarning kuzatilishiga ham sabab bo'lmoqda. Shu bois mazkur jarayonlarni lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik nuqtayi nazardan ilmiy tahlil qilish zamonaviy o'zbek tilshunosligining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi[4].

Mazkur maqolaning maqsadi ijtimoiy tarmoqlarda o'zbek tilining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish, raqamli kommunikatsiya muhitida yuzaga kelayotgan asosiy lingvistik o'zgarishlarni aniqlash hamda ularning til taraqqiyotiga ta'sirini ilmiy asosda yoritishdan iborat.

Raqamli kommunikatsiya va internet lingvistikasi masalalari jahon hamda o'zbek tilshunosligida faol tadqiq etilayotgan yo'nalishlardan biridir. D. Kristal internetni til taraqqiyotining yangi kommunikativ muhiti sifatida baholab, unda yuzaga kelayotgan leksik, grafik va pragmatik o'zgarishlarning nazariy asoslarini yoritadi[5]. Ijtimoiy tarmoqlar tilining pragmatik va lingvostilistik xususiyatlari A.Matusevich tomonidan tadqiq etilgan bo'lsa[6], hashtaglarning kommunikativ va lingvistik tabiati I.Ilyina ishlarida tahlil qilingan[7]. O'zbek tilshunosligida ham internet va ijtimoiy tarmoqlarning o'zbek tiliga ta'siriga bag'ishlangan tadqiqotlarda raqamli muloqotga xos til hodisalari yoritilgan[8]. Biroq ijtimoiy tarmoqlarning o'zbek tili taraqqiyotiga ta'sirini tilning leksik, morfologik, sintaktik va pragmatik sathlari kesimida kompleks tahlil qilish masalasi hali yetarli darajada o'rganilmagan.

Tadqiqotda tavsifiy, lingvistik kuzatish, diskurs tahlili, pragmalingvistik va qiyosiy-tavsifiy usullardan foydalanildi. Tadqiqot materiali sifatida *Telegram, Instagram, Facebook, TikTok* va *YouTube* platforma-

[1] Crystal D. Language and the Internet. 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006.
[2] Iskandarova Sh.M., Israilova K.T. Ijtimoiy tarmoqlar tilini lingvistik o'rganishning nazariy asoslari. // FarDU. Ilmiy xabarlar. – 2026. – T. 31. – № 3. – B. 79–83.
[3] Mahmanazarova Sh.H. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning o'zbek tiliga ta'siri // The Theory of Recent Scientific Research in the Field of Pedagogy. – 2025.
[4] Crystal D. Internet Linguistics: A Student Guide. – London: Routledge, 2011.
[5] Crystal D. Language and the Internet. 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – 272 p.; Crystal D. Internet Linguistics: A Student Guide. – London: Routledge, 2011. – 192 p.
[6] Матусевич А.А. Общение в социальных сетях: прагматический, коммуникативный, лингвостилистический аспекты характеристики: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Нижний Новгород, 2017. – 22 с.
[7] Ильина И.А. Хэштег как лингвистический феномен // Ученые записки Санкт-Петербургского университета технологий управления и экономики. – 2016. – № 3 (55). – С. 41–44.
[8] Tursunova M., Muhammadiyeva M. Ijtimoiy tarmoqlar tilining lingvistik xususiyati // Ustozlar uchun: pedagoglar jurnali. – 2026. – T. 99. – № 1. –B. 185-188.; Mahmanazarova Sh. H. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning o'zbek tiliga ta'siri // The Theory of Recent Scientific Research in the Field of Pedagogy. – 2025.

larining o‘zbek segmentidagi matnlar, izohlar hamda ommaviy kommunikatsiya namunalari tanlandi. Til birliklari ularning leksik, morfologik, sintaktik, grafik va pragmatik xususiyatlari asosida tahlil qilinib, natijalar funksional hamda interpretativ yondashuv asosida umumlashtirildi.

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida insoniyat hayotining barcha jabhalarida chuqur transformatsion jarayonlar yuz bermoqda. Ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi kommunikatsiyaning mazmuni, shakli hamda vositalarini tubdan o‘zgartirib, yangi kommunikativ makonning shakllanishiga zamin yaratdi. Bugungi kunda *Telegram, Instagram, Facebook, TikTok, YouTube* va *X (Twitter)* kabi platformalar nafaqat axborot almashish vositasi, balki til taraqqiyoti, nutq madaniyati va kommunikativ xulq-atvorning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim sotsiolingvistik omil sifatida ham e’tirof etilmoqda[1].

An’anaviy kommunikatsiyada til asosan og‘zaki va yozma nutq orqali namoyon bo‘lsa, raqamli kommunikatsiya sharoitida matn, tasvir, audio, video, emodzi, stiker, GIF animatsiyalar va boshqa vizual elementlarning o‘zaro integratsiyasi natijasida multimodal muloqot shakllandi[2]. Bunday kommunikativ muhitda tilning funksional imkoniyatlari kengayib, axborotni uzatish va qabul qilish jarayonida verbal hamda noverbal vositalar uyg‘unlashmoqda. Natijada internet diskursiga xos yangi kommunikativ me’yorlar va nutq strategiyalari yuzaga kelmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar o‘zbek tilining funksional taraqqiyotida ham muhim o‘rin tutmoqda. So‘nggi yillarda mazkur platformalarda yaratilayotgan o‘zbek tilidagi kontent hajmi sezilarli darajada ortib, davlat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, ta’lim muassasalari, tadbirkorlik subyektlari va individual kontent yaratuvchilar ijtimoiy tarmoqlardan asosiy kommunikativ maydon sifatida foydalanmoqda. Natijada o‘zbek tilining qo‘llanish doirasi kengayib, uning yangi uslubiy ko‘rinishlari shakllanmoqda[3].

Har bir ijtimoiy tarmoq o‘zining texnologik imkoniyatlari va kommunikativ modeli bilan tilning rivojlanishiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, Telegram platformasida matnli muloqot yetakchi o‘rin egallaganligi sababli unda yozma nutq, qisqartmalar, kod almashinuvi va rasmiy hamda norasmiy uslublarning uyg‘unlashuvi faol kuzatiladi. Instagram va TikTok platformalarida esa tasvir hamda qisqa videolar ustuvor bo‘lgani uchun verbal axborot vizual vositalar bilan birgalikda ifodalanadi. YouTube platformasida og‘zaki va yozma nutq elementlari uyg‘unlashib, sharhlar, tavsiflar hamda jonli muloqot orqali yangi diskursiv modellarni yuzaga keltirmoqda. Facebook platformasida esa jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijtimoiy-siyosiy munozaralar hamda ommaviy kommunikatsiya jarayonlari til birliklarining funksional imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda[4].

Raqamli platformalarning lingvistik xususiyatlaridan biri kommunikativ tejamkorlik tamoyilining ustuvorligidir[5]. Ijtimoiy tarmoqlarda axborotni qisqa vaqt ichida yetkazish zarurati natijasida sodda sintaktik konstruksiyalar, qisqartmalar, ellipsis, emodzi va boshqa grafik vositalardan foydalanish tobora faollashmoqda. Shu bilan birga, ingliz tilidan kirib kelayotgan terminlar va internetga xos leksik birliklar o‘zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida moslashtirilib, yangi til birliklari hosil qilinmoqda. Jumladan, *post qilmoq, layk bosmoq, storiz joylamoq, obuna bo‘lmoq, pryamoy (jonli) efirga chiqmoq, podpiska (obuna) bo‘lmoq, kontent yaratmoq, rils yuklamoq* kabi birliklar bugungi internet diskursining faol elementlariga aylangan[6]. Mazkur jarayonlar o‘zbek tilining dinamik rivojlanayotganligini, uning zamonaviy kommunikativ ehtiyojlarga moslashish xususiyatini yaqqol namoyon etadi.

Ijtimoiy tarmoqlar til tizimining barcha sathlariga ta’sir ko‘rsatmoqda[7]. Leksik sathda yangi o‘zlashmalar va neologizmlar paydo bo‘layotgan bo‘lsa, morfologik sathda gibrid konstruksiyalarining faollashuvi kuzatiladi. Sintaktik sathda ixcham gap qurilishlari va dialogik modellar keng qo‘llanmoqda. Grafik sathda *emodzilar, hashtaglar,* @ belgisi yordamida foydalanuvchini belgilash, *giperhavolalar, stikerlar* hamda boshqa vizual vositalarning qo‘llanilishi yozma

[1] Матусевич А.А. Общение в социальных сетях: прагматический, коммуникативный, лингвостилистический аспекты характеристики: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Нижний Новгород, 2017.

[2] Кольцова Е.А., Карташкова Ф.И. Мультимодальный характер цифровой коммуникации: функционирование эмодзи в межличностном общении // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Теория языка. Семиотика. Семантика. – 2022. – Т. 13. – № 3. – С. 769–783.

[3] Mahmanazarova Sh.H. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning o‘zbek tiliga ta’siri // The Theory of Recent Scientific Research in the Field of Pedagogy. – 2025.

[4] Матусевич А.А. Общение в социальных сетях: прагматический, коммуникативный, лингвостилистический аспекты характеристики: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Нижний Новгород, 2017.

[5] Элтазаров Ж.Д. Тилдаги тежамлилик тамойили ва қисқарув: монография. – Самарқанд: СамДУ, 2004. – 110 б.

[6] Nuriddinova M.Sh. Ijtimoiy tarmoq leksikasi tushunchasi va uning tilshunoslikdagi o‘rni // – 2026. Qo‘qon DPI. Ilmiy Xabarlar Jurnali, 8(2), 511-514.

[7] Iskandarova Sh.M., Israilova K.T. Ijtimoiy tarmoqlar tilini lingvistik o‘rganishning nazariy asoslari. // FarDU. Ilmiy xabarlar. – 2026. – T. 31. – № 3. – B. 79-83.

kommunikatsiyaning muhim xususiyatlaridan biriga aylanmoqda[1]. Pragmatik jihatdan esa auditoriyaga ta'sir ko'rsatish, e'tiborni jalb qilish, emotsional munosabatni ifodalash hamda internet hamjamiyatiga xos kommunikativ identifikatsiyani shakllantirish yangi nutq strategiyalarining rivojlanishiga xizmat qilmoqda[2].

Shunday qilib, ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy o'zbek tilining rivojlanishida nafaqat yangi til birliklarining vujudga kelishiga, balki tilning funksional imkoniyatlari, kommunikativ vazifalari va uslubiy rang-barangligining kengayishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli raqamli kommunikatsiya muhitida yuz berayotgan lingvistik jarayonlarni tizimli ravishda o'rganish o'zbek tilshunosligining istiqbolli ilmiy yo'nalishlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy o'zbek tilining leksik tizimiga eng faol ta'sir ko'rsatayotgan kommunikativ muhitlardan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar, internet xizmatlari va platformalarning ommalashuvi natijasida o'zbek tilining lug'at tarkibi yangi tushunchalar, terminlar va kommunikativ birliklar bilan muntazam boyib bormoqda. Mazkur jarayon, avvalo, raqamli kommunikatsiya bilan bog'liq yangi voqeliklarning paydo bo'lishi hamda ularni nomlash zarurati bilan izohlanadi.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar orqali o'zbek tiliga kirib kelayotgan leksik birliklarning salmoqli qismini ingliz tili manbali o'zlashmalar tashkil etadi. Bunga *post*, *layk*, *share*, *storiz*, *rils*, *blog*, *podkast*, *kontent*, *profil*, *akkaunt*, *admin*, *moderator*, *hashtag*, *trend*, *viral*, *live* va *shorts* kabi birliklarni misol qilish mumkin. Mazkur birliklar ijtimoiy tarmoqlarda axborot joylashtirish (*post*), foydalanuvchining munosabatini bildirish (*layk*), kontentni ulashish (*share*), vaqtinchalik yoki qisqa videolar (*storiz*, *rils*, *shorts*), raqamli media mahsulotlari (*blog*, *podkast*, *kontent*), foydalanuvchi identifikatsiyasi (*profil*, *akkaunt*), sahifa yoki guruhni boshqarish (*admin*, *moderator*), axborotni guruhlash (*hashtag*), ommalashuv darajasi (*trend*, *viral*) hamda real vaqt rejimidagi muloqot (*live*) kabi tushunchalarni ifodalaydi. Ushbu birliklarning ayrimlari o'zbek tilida asl shaklini deyarli saqlab qolayotgan bo'lsa, ayrimlari fonetik va morfologik moslashuv jarayonini boshdan kechirmoqda.

Leksik o'zlashmalarning muhim xususiyatlaridan biri ularning faol so'z yasash jarayoniga kirishayotganidir. Xususan, *post, layk, sheyr, stori, rils, podpiska, kontent, komment* kabi ot turkumiga mansub birliklar o'zbek tilidagi yordamchi fe'llar bilan birikib, yangi fe'lli konstruksiyalarini hosil qilmoqda[3]. Natijada *post qilmoq, layk bosmoq, sheyr (share) qilmoq, stori joylamoq, rils yuklamoq, podpiska bosmoq (obuna bo'lmoq), kontent yaratmoq, komment (izoh) qoldirmoq* kabi birikmalar internet diskursining faol birliklariga aylanmoqda. Bunday konstruksiyalar dastlab norasmiy internet muloqotida qo'llanilgan bo'lsa, bugungi kunda ular ommaviy axborot vositalari, reklama matnlari va blogerlar nutqida ham keng uchramoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar ta'sirida o'zbek tilida yangi semantik munosabatlar ham shakllanmoqda. Masalan, *kanal, profil, obuna, kuzatuvchi, izoh, jonli efir* kabi birliklar an'anaviy ma'nolaridan tashqari internet kommunikatsiyasiga xos yangi mazmun kasb etdi. Xususan, *kanal* so'zi ilgari asosan texnik yoki geografik obyektni anglatsa, bugungi kunda Telegram va YouTube platformalaridagi axborot resursi ma'nosida faol qo'llanilmoqda. Xuddi shuningdek, *obuna* leksemasi bosma nashrlarga yozilish ma'nosidan tashqari ijtimoiy tarmoq sahifasi yoki kanalini muntazam kuzatib borishni ham anglatadigan ko'p ma'noli birlikka aylandi[4].

Raqamli kommunikatsiyada yangi kommunikativ formulalar ham shakllanmoqda. Ayniqsa, blogerlar va kontent yaratuvchilar nutqida *kanalga obuna bo'ling, layk bosishni unutmang, izohlarda fikringizni yozing, videoni do'stlaringiz bilan ulashing, jonli efirda ko'rishguncha, reelsni oxirigacha tomosha qiling* kabi murojaat konstruksiyalari muntazam takrorlanmoqda. Ushbu birliklar dastlab alohida mualliflar nutqida yuzaga kelgan bo'lsa, bugungi kunda internet diskursining barqaror kommunikativ qoliplariga aylanib bormoqda.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar yangi baholovchi va ekspressiv birliklarning faollashuviga ham xizmat qilmoqda. *Trendga chiqmoq, viral bo'lmoq, top kontent*, *xit video, dahshat (zo'r) kontent, super reels* kabi birikmalar internet foydalanuvchilari nutqida keng qo'llanilib, axborotning ommabopligi, sifati yoki auditoriyaga ta'sir darajasini ifodalovchi pragmatik vosita vazifasini bajarmoqda. Mazkur birliklarning ayrimlari hali adabiy til me'yorida mustahkam o'rin

[1] Ильина И.А. Хэштег как лингвистический феномен // Ученые записки Санкт-Петербургского университета технологий управления и экономики. – 2016. – № 3 (55). – С. 41-44.

[2] Матусевич А.А. Общение в социальных сетях: прагматический, коммуникативный, лингвостилистический аспекты характеристики: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Нижний Новгород, 2017.

[3] Nuriddinova M.Sh. Ijtimoiy tarmoq leksikasi tushunchasi va uning tilshunoslikdagi o'rni // – 2026. Qo'qon DPI. Ilmiy Xabarlar Jurnali, 8(2), 511-514.

[4] Tursunova M., Muhammadiyeva M. Ijtimoiy tarmoqlar tilining lingvistik xususiyati // Ustozlar uchun: pedagoglar jurnali. – 2026. – T. 99. – № 1. - B. 185-188.

egallamagan bo‘lsa-da, ularning qo‘llanish chastotasi ortib borayotgani o‘zbek tilining zamonaviy leksik taraqqiyotida ijtimoiy tarmoqlarning sezilarli o‘rin tutayotganini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, ijtimoiy tarmoqlar o‘zbek tilining leksik tizimida yangi o‘zlashmalar, semantik kengayishlar va kommunikativ birliklarning shakllanishini jadallashtirmoqda. Ushbu jarayon tilning ichki rivojlanish qonuniyatlari hamda global axborot makonining ta’siri o‘zaro uyg‘unlashgan holda kechayotganini ko‘rsatadi. Bunday o‘zgarishlar faqat leksik sath bilan cheklanmay, tilning grammatik tizimida ham muayyan rivojlanish tendensiyalarini yuzaga keltirmoqda. Xususan, xorijiy til birliklarining o‘zbek tili grammatik me’yorlariga moslashuvi, fe’lli konstruksiyalarining faollashuvi hamda sintaktik ixchamlikning kuchayishi raqamli kommunikatsiyaning muhim lingvistik xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Mazkur hodisalar o‘zbek tilining yangi kommunikativ ehtiyojlarga moslashish qobiliyatini yaqqol namoyon etadi. Chet tillardan kirib kelayotgan birliklar tayyor grammatik model sifatida emas, balki o‘zbek tilining mavjud grammatik vositalari bilan uyg‘unlashgan holda qo‘llanilib, milliy grammatik tizim doirasida yangi funksional imkoniyat kasb etmoqda. Demak, ijtimoiy tarmoqlar negizida yuzaga kelayotgan til o‘zgarishlari dastlab leksik sathda namoyon bo‘lsa-da, keyinchalik morfologik va sintaktik tizimga ham ta’sir ko‘rsatmoqda.

Morfologik moslashuv jarayoni faqat fe’lli konstruksiyalar bilan cheklanmaydi. Ayrim o‘zlashmalar o‘zbek tilining so‘z o‘zgartirish tizimiga ham faol kirib bormoqda. Masalan, *blogerlar, adminlar, kontentchilar, obunachilar* kabi ko‘plik shakllari, *blogerning fikri, profilim, kanalingiz, postingiz, storiysi* kabi egalik va kelishik qo‘shimchalari bilan qo‘llanayotgan birliklar xorijiy leksemalarning o‘zbek tili morfologik tizimiga integratsiyalashayotganini ko‘rsatadi. Bunday hodisalar o‘zbek tilining ochiq va dinamik tizim sifatida yangi til birliklarini o‘zlashtirish imkoniyatlari keng ekanligini tasdiqlaydi.

Raqamli kommunikatsiya sintaktik qurilishlarga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda muloqotning tezkorligi va kommunikativ tejamkorlik tamoyili natijasida sodda, ixcham va ekspressiv gap konstruksiyalari ustunlik qilmoqda. Ayniqsa, bir yoki ikki komponentdan iborat gaplar, to‘liqsiz gaplar hamda ellipsis hodisasi[1] internet diskursining faol sintaktik vositalaridan biri hisoblanadi. Masalan, *Gap yo‘q!, Dahshat chiqibdi!, Respekt!, Top kontent!, Ajoyib loyiha!, Mashallah!, Obuna bo‘ling!, Izoh kutamiz., Davomi bor.*, *Ko‘rishganda ko‘rishguncha*. kabi konstruksiyalar axborotni qisqa shaklda yetkazish bilan birga, auditoriyaning e’tiborini jalb qilish va muloqotga undash vazifasini ham bajaradi.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda imperativ mazmunli sintaktik qurilmalarning qo‘llanish chastotasi ortib bormoqda. Xususan, *kanalga obuna bo‘ling, layk bosing, videoni ulashing, fikringizni izohlarda qoldiring, do‘stlaringizni belgilang, videoni oxirigacha tomosha qiling, sizning fikringiz qanday? do‘stlaringizga ham ulashing* kabi murojaat shakllari internet diskursining qoliplashgan sintaktik birliklariga aylangan. Mazkur konstruksiyalar reklama, marketing, ta’lim va ommaviy axborot vositalari diskursida ham faol qo‘llanilib, auditoriya bilan interaktiv muloqotni ta’minlashning samarali vositasi sifatida xizmat qilmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar dialogik muloqotning sintaktik xususiyatlarini ham o‘zgartirmoqda. Savol-javob shaklidagi qisqa replikalar, javobni kutishga yo‘naltirilgan ritorik savollar, izohlar orqali davom ettiriladigan dialogik birliklar hamda emodzi va grafik belgilar bilan uyg‘unlashgan gap konstruksiyalari internet diskursining o‘ziga xos sintaktik modelini shakllantirmoqda. Bunda yozma nutq og‘zaki muloqotning ayrim belgilarini o‘zlashtirib, tabiiy suhbatga yaqin kommunikativ muhitni yuzaga keltirmoqda.

Umuman olganda, ijtimoiy tarmoqlar ta’sirida o‘zbek tilining morfologik va sintaktik tizimida kuzatilayotgan o‘zgarishlar tilning ichki rivojlanish qonuniyatlari hamda zamonaviy kommunikativ ehtiyojlarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanmoqda. Ushbu jarayonlar o‘zbek tilining moslashuvchanligi va funksional imkoniyatlarining kengayib borayotganini ko‘rsatadi hamda internet diskursini grammatik nuqtayi nazardan chuqur tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Raqamli kommunikatsiyaning o‘ziga xos jihatlaridan biri shundaki, unda til birliklari faqat leksik yoki grammatik vositalar orqali emas, balki grafik va vizual elementlar yordamida ham ifodalanadi. Ijtimoiy tarmoqlarda matn, *emodzi, stiker, GIF, hashtag, giperhavola* va boshqa raqamli belgilar o‘zaro uyg‘unlashib, kommunikativ mazmunni shakllantirishda faol ishtirok etadi. Natijada yozma nutqning an’anaviy ko‘rinishidan farq qiluvchi, multimodal xususiyatga ega yangi kommunikativ model yuzaga kelmoqda.

Bugungi kunda emodzilar ijtimoiy tarmoqlardagi muloqotning ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. Ular nafaqat hissiy holatni ifodalash, balki matnning pragmatik mazmunini kuchaytirish, muallifning munosabatini bildirish hamda kommunikativ ta’sirchanlikni oshirish vazifasini bajaradi. Masalan, □, □, □□, □, □ kabi emodzilar ko‘pincha matnda bevosita ifodalanmagan emotsional ma’nolarni to‘ldiradi yoki kuchaytiradi. Ayrim hollarda esa emodzi mustaqil kommu-

[1] Элтазаров Ж.Д. Тилдаги тежамлилик тамойили ва қисқарув: монография. – Самарқанд: СамДУ, 2004. – 110 б.

nikativ birlik sifatida ham qo‘llanib, butun bir fikr yoki bahoni ifodalashi mumkin[1].

Ijtimoiy tarmoqlarda grafik vositalarning yana bir faol turi hashtag (#) hisoblanadi. Dastlab axborotni guruhlash va qidiruvni yengillashtirish vositasi sifatida shakllangan hashtaglar bugungi kunda matnning pragmatik ta’sirini kuchaytirish, muayyan ijtimoiy yoki madaniy hodisaga e’tibor qaratish hamda foydalanuvchilarni umumiy kommunikativ maydonga birlashtirish vazifasini ham bajarmoqda[2]. O‘zbek segmentida ta’lim, kitobxonlik, turizm, milliy taomlar hamda ijtimoiy-siyosiy mavzularga oid hashtaglarning faol qo‘llanilishi ularning axborotni tasniflash va auditoriyani shakllantirishdagi muhim funksiyasini ko‘rsatadi.

Grafik vositalar orasida @ belgisi orqali murojaat qilish, foydalanuvchini belgilash yoki muayyan sahifaga havola berish amaliyoti ham keng tarqalgan. Mazkur belgi raqamli muloqotda shaxslararo aloqani kuchaytirish, auditoriyani kengaytirish va kommunikatsiyaning interaktivligini ta’minlashda muhim funksiyani bajaradi. Shu bilan birga, giperhavolalar, QR-kodlar va platformalararo havolalarning matn tarkibiga kirib kelishi yozma nutqning an’anaviy chegaralarini kengaytirib, uni ko‘p qatlamli axborot tizimiga aylantirmoqda.

Raqamli muloqotda orfografik va punktuatsion me’yorlarning qo‘llanishida ham o‘ziga xos tendensiyalar kuzatiladi. Jumladan, ayrim foydalanuvchilar tomonidan bosh harflardan foydalanmaslik, tinish belgilarini minimal darajada qo‘llash yoki aksincha, emotsional ta’sirni kuchaytirish maqsadida undov va so‘roq belgilarini takrorlash (*Zo‘r!!!, Aniqmi???*) kabi holatlar keng uchraydi. Shuningdek, lotin va kirill yozuvlarining aralash qo‘llanishi, apostrof belgilarining turlicha yozilishi (o‘ - o’, g‘ - g’) hamda ayrim fonetik qisqartmalar (*bo‘ladi – boladi, zo‘r – zor*) norasmiy internet muloqotining xarakterli belgilaridan biri hisoblanadi. Bunday hodisalar, asosan, tezkor yozish, texnik imkoniyatlar yoki foydalanuvchilarning individual yozuv odatlari bilan izohlanadi.

Shunday qilib, ijtimoiy tarmoqlarda grafik va pragmatik vositalarning faollashuvi o‘zbek tilining zamonaviy kommunikativ imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirmoqda. Grafik belgilar, vizual elementlar va pragmatik strategiyalar yozma nutqning ifoda imkoniyatlarini boyitib, yangi kommunikativ me’yorlarning shakllanishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, mazkur hodisalar adabiy til me’yorlari, yozuv madaniyati va raqamli kommunikatsiya o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni chuqur o‘rganishni taqozo etadi.

Tadqiqot ijtimoiy tarmoqlarning o‘zbek tili taraqqiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatayotgan muhim sotsiolingvistik omil ekanini ko‘rsatdi. Til o‘zgarishlari dastlab leksik sathda (yangi o‘zlashmalar, neologizmlar) namoyon bo‘lib, so‘ngra morfologik, sintaktik va grafik-pragmatik sathlarga ham izchil tarqalmoqda. Bu o‘zbek tilining ochiq, moslashuvchan tizim sifatida zamonaviy kommunikativ ehtiyojlarga tez javob bera olishini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, bu jarayon ikki tomonlama xarakterga ega: bir tomondan tilning funksional imkoniyatlarini boyitsa, ikkinchi tomondan adabiy me’yordan chetlanish, imlo-punktuatsiya buzilishi va xorijiy birliklarning ortiqcha qo‘llanishi kabi holatlarni ham keltirib chiqaradi. Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Ijtimoiy tarmoqlar tilini o‘rganish uchun korpusga asoslangan monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish;
2. Internet leksikasini ilmiy tasniflash va lug‘atlashtirish;
3. Yosh foydalanuvchilarda til madaniyatini shakllantiruvchi ta’lim-metodik ishlarni kuchaytirish;
4. Mavzuni korpus lingvistikasi, media lingvistikasi, pragmalingvistika va sotsiolingvistika yo‘nalishlari kesimida kompleks tadqiq etishni davom ettirish.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlar o‘zbek tilining nafaqat yangi birliklar manbai, balki uning zamonaviylashuv jarayonining ko‘zgusi vazifasini ham bajarmoqda va bu yo‘nalishdagi keyingi tadqiqotlar o‘zbek tilshunosligi uchun istiqbolli hisoblanadi.

Rezyume. Maqola ijtimoiy tarmoqlarning o‘zbek tiliga leksik, morfologik, sintaktik, grafik va pragmatik sathlarda ko‘rsatayotgan ta’sirini tahlil qiladi. Ingliz tilidan o‘zlashgan so‘zlar (*post, layk*) o‘zbek fe’l va qo‘shimchalar tizimi bilan moslashmoqda (*post qilmoq, blogerlar*), kommunikativ tejamkorlik esa ixcham gap va imperativ murojaatlarni (*Obuna bo‘ling!*) faollashtirmoqda. Muallif bu jarayonlarni o‘zbek tilining dinamik rivojlanishi sifatida baholab, internet leksikasini korpus asosida o‘rganishni tavsiya etadi.

Resume. The article examines how social networks influence the Uzbek language at the lexical, morphological, syntactic, graphic, and pragmatic levels. English borrowings (*post, layk*) are adapted into Uzbek verb

[1] Кольцова Е.А., Карташкова Ф.И. Мультимодальный характер цифровой коммуникации: функционирование эмодзи в межличностном общении // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Теория языка. Семиотика. Семантика. – 2022. – Т. 13. – № 3. – С. 769-783.

[2] Ильина И.А. Хэштег как лингвистический феномен // Ученые записки Санкт-Петербургского университета технологий управления и экономики. – 2016. – № 3 (55). – С. 41-44.

constructions (*post qilmoq* – “to make a post”), affixes attach to loanwords (*blogerlar* – “bloggers”), and communicative economy drives the use of concise sentences and imperatives (*Obuna bo‘ling!* – “Subscribe!”). The author views this as evidence of the language’s dynamic development and recommends corpus-based research into internet vocabulary.

Резюме. Статья анализирует влияние социальных сетей на узбекский язык на лексическом, морфологическом, синтаксическом, графическом и прагматическом уровнях. Заимствования из английского языка (*post, layk*) адаптируются к узбекской глагольной системе (*post qilmoq* – «размещать пост»), аффиксы присоединяются к заимствованным словам (*blogerlar* – «блогеры»), а коммуникативная экономия способствует активизации кратких предложений и императивов (*Obuna bo‘ling!* – «Подпишитесь!»). Автор трактует это как проявление динамичного развития языка и рекомендует корпусное изучение интернет-лексики.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2026; 7
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA OLQISH, DUO VA TILAK SO‘ZLARINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Qurbanbayeva Nilufar Ilxamovna,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
roman-german filologiyasi kafedrasi mustaqil izlanuvchisi

Madaniyatlararo muloqot ko‘lamining kengayishi milliy etiket tizimlarini qiyosiy o‘rganishni tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biriga aylantirdi. Muloqotning eng qadimiy va barqaror shakllaridan biri bu ezgu niyat izhori hisoblanadi va u o‘zbek nutq madaniyatida uchta o‘zaro bog‘langan nutqiy akt – olqish, duo va tilak (alqov) sifatida voqelanadi. Bu alqovlar shunchaki nutq etiketi shakllari emas: ularda xalqning diniy tafakkuri, qadriyatlar tizimi, ijtimoiy munosabatlar modeli va dunyoni idrok etish tarzi ham jamlangan. Ushbu maqolada mazkur alqovlar atamalar sifatida emas, balki ichki tafovutlarga ega keng qamrovli yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqiladi va uning ingliz lingvomadaniyatidagi muqobillari bilan qiyoslanadi.

Maqolaning nazariy asosi J.L. Ostin[1] hamda J.R. Syorlning[2] nutqiy aktlar nazariyasi va A. Vejbitskayaning[3] tabiiy semantik metatil yondashuviga asoslanadi. Lingvokulturologik tahlil usullari esa V.A. Maslova[4], V.I. Karasik[5], V.N. Teliya[6] va V.V. Vorobyov[7] ishlariga, o‘zbek materialini pragmatik talqin qilish esa Sh. Safarov[8] asos solgan yo‘nalishga tayanadi.

[1] Austin J.L. How to Do Things with Words. – Oxford: Oxford University Press, 1962. – 166 p.
[2] Searle J.R. Expression and Meaning: Studies in the Theory of Speech Acts. – Cambridge: Cambridge University Press, 1979. – 187 p.
[3] Wierzbicka A. Cross-Cultural Pragmatics: The Semantics of Human Interaction. – 2nd ed. – Berlin: Mouton de Gruyter, 2003. – 502 p.
[4] Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – 208 с.
[5] Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – 477 с.
[6] Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Языки русской культуры, 1996. – 288 с.
[7] Воробьёв В.В. Лингвокультурология: теория и методы. – М.: РУДН, 1997. – 331 с.
[8] Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 300 b.

Rus tilshunosligida tilak (pojelaniye) nutqiy aktini N.A. Ranix[1] qanday maqsadda aytilishiga ko‘ra tavsiflagan; V.V. Pleshakova[2] ezgu tilak (blagopojelaniye) larning tipologiyasi va tarixiy shakllanishini ko‘rsatib bergan; L.Yu. Zorina[3] esa dialekt materialida ularning xalq madaniyati bilan bog‘liqligini ochib bergan. O‘zbek folklorshunosligida olqish va qarg‘ish janrlari dastlab B. Sarimsoqov[4] tomonidan tizimli tavsiflangan bo‘lsa keyinchalik marosim olqishlari O.Safarov va D. O‘rayeva[5] tadqiqotlarida keng ochib berilgan. Shunga qaramay, olqish, duo va tilakni yagona keng qamrovli tizim sifatida birlashtirib, o‘zbek va ingliz tillarida ekvivalentlik va lakunarlik nazariyasi doirasida qiyoslash hozirga qadar maxsus tadqiqot predmeti bo‘lmagan – mazkur maqolaning ilmiy yangiligi shu jihatlarga asoslanadi.

Maqolada alqovlarning lingvokulturologik va pragmatik xususiyatlarini aniqlash hamda ularning ingliz tilidagi ifodalanishi bilan qiyosiy tahlili amalga oshiriladi va tadqiqot jarayonida qiyosiy-tipologik, komponent, kontekstual-pragmatik tahlil va tavsiflash metodlari qo‘llaniladi. Izlanishlar olqish, duo va tilak komponentlarining sinonim emasligini ko‘rsatdi. Olqish asosan xalq og‘zaki ijodi an’anasiga tayanadi, uning so‘zlari qat’iy qolipga solingan va ohangdor bo‘lib, jamoaviy marosimda ovoz chiqarib aytishga mo‘ljallangan. («To‘ylarga yetkazsin!», «Baraka topgur!»)[6]. Uning folklor janri maqomi o‘zbek folklorshunosligida qarg‘ish bilan juftlangan holda belgilangan.

Duo diniy-ilohiy yo‘nalishga ega: so‘zlovchi bu yerda iltijoni bevosita emas, Allohga murojaat orqali vositali tarzda ifodalaydi («Xudo xohlasa», «Iloyim, omin», «Alloh o‘z panohida asrasin»)[7]. Duoning muhim belgisi – uning ijtimoiy-madaniy kuchga egaligi: nikoh to‘yi, fotiha yoki janoza marosimi, kabi diniy amaliyotlar duoni marosim jarayonining majburiy unsuriga aylantiradi. Tilak esa dunyoviy va tuzilish jihatidan erkin, kundalik muloqotga xos birlik («Ishlaringiz yurishsin», «Yo‘lingiz oq bo‘lsin», «Omadingizni bersin»). Uchala tushunchani farqlovchi asosiy belgilar 1-jadvalda umumlashtirildi.

1-jadval. **Alqov tizimi tushunchalarining farqlovchi belgilari**

Alqov	Muqaddaslik darajasi	Shakliy barqarorlik darajasi	Illokutiv kuch manbai	Ustuvor qo‘llanish vaziyati
Olqish	Diniy-marosimiy (folklor qatlamiga mansub)	qat’iy qolipli	jamoa an’anasi	to‘y va jamoaviy marosimlar
Duo	Diniy-ilohiy	nisbatan qat’iy	ilohiy iroda	motam, fotiha, diniy amaliyot
Tilak	dunyoviy	erkin	individual xohish-iroda	kundalik muloqot

Yuqoridagi uchta tushunchani qanday vaziyatlarda qo‘llashimizga ko‘ra vazifalari ham o‘zgaradi: to‘y vaziyatida olqish ustuvor («Qo‘sha qaringlar!»), motamda deyarli faqat duo qo‘llanadi («Alloh rahmatiga olsin») va dunyoviy tilak etiket jihatidan nomaqbul, safarga kuzatishda duo va tilak aralashib keladi («Oq yo‘l!», «Xudo yo‘lingizni bersin»), farzand tug‘ilganda olqish va duo birlashadi («Katta yigit (qiz) bo‘lsin»), kundalik muloqotda esa tilak ko‘proq qo‘llaniladi. Demak, qaysi tushunchani tanlash vaziyatga ko‘ra tanlanadi – bu alqov so‘zlarining ichki grammatikasi mavjudligini tasdiqlaydi.

Bitta misolning batafsil tahlili buni yaqqol ko‘rsatadi. «Alloh rahmatiga olsin»[8] duosi motam vazi-

[1] Ранних Н.А. Речевой акт пожелания и способы его выражения в русском языке: дис. ... канд. филол. наук: 10.02.01. – М., 1994. – 159 с.

[2] Плешакова В.В. Русские благопожелания: опыт типологии и истории: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М., 1997.
3 Зорина Л.Ю. Вологодские диалектные благопожелания в контексте традиционной народной культуры. – Вологда: ВГПУ, 2012. – 216 с.

[4] Sarimsoqov B. Olqishlar va qarg‘ishlar // O‘zbek folklori ocherklari. 1-jild. – Toshkent: Fan, 1988. – B. 143.

[5] Safarov O., O‘rayeva D. Marosim olqishlari haqida // «O‘zbek marosim folklorini o‘rganishning yangicha tamoyillari» mavzuidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari. – Navoiy, 2007. – B. 15–18.

[6] Sarimsoqov B. Olqishlar va qarg‘ishlar // O‘zbek folklori ocherklari. 1-jild. – Toshkent: Fan, 1988. – B. 143.

[7] Jumanazarov U. «Oltin olma, duo ol!», «Duo – oltin emasmi?», «Qo‘shgani bilan qo‘sha qarisin» // Tarix haqiqati va xalq ijodi badiiyati. – T.: «Elmus Press Media», 2007. – B. 3–28.

[8] O‘rayeva D. Motam olqishlari / O‘zbek motam marosimi folklorining janriy tarkibi, genezisi va badiiyati: filol. fanlari d-ri ... diss. avtoref. – T., 2005. – B. 42.

yatining majburiy birligi bo‘lib, marhum haqida gap ketganda uni tilga olishning etiket sharti hisoblanadi; inglizcha «Rest in peace» yozma-epigrafik an’anaga, «My condolences» esa tiriklarga – aza egalariga qaratilgan. Ya’ni o‘zbek tilida duo marhumga yo‘naltirilgan bo‘lsa, inglizchada yo yozuv janriga, yo muloqotda boshqa tinglovchiga ko‘chgan: farq leksik emas, tinglovchining o‘zgarishidadir. Xuddi shu qonuniyat «Qo‘shganingiz bilan qo‘sha qaringlar!» (nikoh to‘yi) va «Umri bilan bergan bo‘lsin!»[1] (farzand tug‘ilishi) birliklarida ham kuzatiladi: o‘zbek alqovi vaziyatga qat’iy biriktirilgan qolipli bo‘lsa, inglizcha muqobillar yo erkin tuzilishli, yo umuman mavjud emas. Ingliz badiiy matnida bunday tilaklar turg‘un formula sifatida emas, muallif tomonidan erkin tuzilgan gap sifatida keladi – bu ingliz alqov tizimidagi formulaviylikning zaifligini ko‘rsatadi. Misol sifatida «God rest his soul» – «Xudo ruhini tinchlantirsin»[2], «I wish you to die tranquil» – «Sizga bu dunyodan tinchgina ko‘z yumishingizni tilayman» hamda «May you rest in peace» – «Joyingiz jannatda bo‘lsin»[3] olqishlarini keltirish mumkin.

Pragmatik jihatdan har uch akt ekspressivlar sinfiga mansub[4], biroq ularning illokutiv tuzilishi bir xil emas. Duoda muloqot uch ishtirokchini qamrab oladi – so‘zlovchi, Alloh va tinglovchi; so‘zlovchi bunda faqat vositachi bo‘lib, ezgu tilakning ro‘yobga chiqishini Allohdan so‘raydi. Olqish va tilakda esa muloqot ikki tomonlama qoladi: olqishda so‘zlovchi ortida jamoa an’anasi turadi, tilakda esa u faqat o‘z nomidan gapiradi. Shu tariqa uch akt illokutiv kuch manbaiga ko‘ra ham ketma-ketlik hosil qiladi: ilohiy iroda (duo) – jamoa an’anasi (olqish) – shaxsiy xohish (tilak).

Semantik jihatdan har uch komponentning zamirida universal o‘zak yotadi: «men xohlaymanki, senga yaxshi narsalar bo‘lsin»[5]. Milliy o‘ziga xoslik shu o‘zak ustiga quriladigan qatlamlarda namoyon bo‘ladi: o‘zbek alqovida «yaxshi narsa» ilohiy manba bilan bog‘lanadi va ma’lum bir madaniy kod (baraka, rizq, qut) orqali to‘ldiriladi, ingliz tilagida esa individual muvaffaqiyat tushunchalari (success, luck) ustuvordir. Xushmuomalalik nazariyasi nuqtai nazaridan[6] alqov birliklari suhbatdoshning e’tirof etilish ehtiyojini qondiradi va so‘zlovchilar orasidagi yaqinlikni mustahkamlaydi.

Alqov pragmatikasining yana bir muhim jihati shundaki, alqov aytish huquqi so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasida teng taqsimlanmagan. O‘zbek lingvomadaniyatida to‘laqonli olqish va fotiha berish huquqi an’anaviy ravishda yosh va maqom jihatidan ulug‘ shaxsga tegishli: ota-ona farzandga, keksa yoshga, ustoz shogirdga alqov beradi. Teskari holatda esa alqov so‘rash akti qo‘llanadi («Duo qiling», «Fotiha bering») bu o‘zbek muloqot tizimidagi alohida iltimos-nutqiy aktdir. Ingliz lingvomadaniyatida bunday qat’iy tengsizlik kuzatilmaydi: «good luck» yoki «best wishes» har qanday yoshdagi va maqomdagi so‘zlovchi tomonidan aytilishi mumkin. Demak, o‘zbek alqov tizimi jamiyatdagi yosh va maqom tartibini aks ettiradi va uni mustahkamlab boradi, ingliz tizimida esa bu xususiyat ancha kuchsiz bo‘ladi.

O‘zbek alqovlarining semantik o‘zagini baraka, rizq, qut, umr va oq kabi madaniy kodlar tashkil etadi. Ulardan baraka eng keng qamrovlisi bo‘lib, islom madaniy doirasida «ilohiy manbali, moddiy sohada mo‘l-ko‘llik, ruhiy sohada esa farovonlik va baxt keltiruvchi ezgu kuch» sifatida ta’riflanadi[7]. Mazkur kod o‘zbek tiliga xos emas, balki butun islom lingvomadaniy makoni uchun umumiydir: arab tilidagi tabrik formulasi mabrūk / mubārak ham aynan shu b-r-k o‘zagidan yasalgan bo‘lib, «ko‘payish, ziyoda bo‘lish» ma’nosini saqlaydi va mazmunan «(bu yutuq) ziyoda bo‘lsin!» degan iltijoga teng[8]. Bu qiyos baraka kodining butun islom madaniy hududiga xosligini tasdiqlaydi: inglizcha blessing va abundance so‘zlari ilohiy manba hamda moddiy-ma’naviy mo‘l-ko‘llikni alohida-alohida ifodalaydi, baraka esa ularni yaxlit birlashtiradi, natijada tarjimada qisman bo‘shliq (lakuna) yuzaga keladi. Rizq kodi taqdirga bitilgan nasiba tushunchasiga tayanadi: «Rizqing butun bo‘lsin» alqovi har bir insonning nasibasi azaldan belgilangan degan e’tiqodga tayanadi; inglizchada esa bunday so‘z yo‘q: daily bread faqat diniy matnlarda uchraydi, provision esa oddiy so‘z bo‘lib, unda taqdir ma’nosi umuman yo‘q. Qut kodi

[1] Jumanazarov U. “Oltin olma, duo ol!”, “Duo – oltin emasmi?”, “Qo‘shgani bilan qo‘sha qarisin” // Tarix haqiqati va xalq ijodi badiiyati. – T.: “Elmus Press Media”, 2007. – B. 3–28.

[2] Richardson S. Clarissa, or the History of a Young Lady. – London: Penguin Classics, 1985. – 643 p.

[3] Brontë Ch. Jane Eyre. – Oxford: Oxford University Press, 2000. – 592 p.

[4] Searle J.R. Expression and Meaning: Studies in the Theory of Speech Acts. – Cambridge: Cambridge University Press, 1979. – P. 12–15.

[5] Wierzbicka A. Cross-Cultural Pragmatics: The Semantics of Human Interaction. – 2nd ed. – Berlin: Mouton de Gruyter, 2003. – P. 25–65.

[6] Brown P., Levinson S. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – P. 101–129.

[7] Colin G.S. Baraka // Encyclopaedia of Islam. 2nd ed. / Ed. by H.A.R. Gibb et al. – Leiden: Brill, 1986. – P. 1032.

[8] Badarneh M.A., Migdadi F., Al-Jahmani M. Invoking divine blessing: The pragmatics of the congratulation speech act in university graduation notebooks in Jordan // Pragmatics. – 2022. – Vol. 32, No. 2. – P. 168–169.

eng qadimiy qatlamga mansub: qadimgi turkiylarda qut – xoqonga va xalqqa xudo tomonidan beriladigan fayz-u omad bo‘lgan; bu tushuncha bugungi «Qutlug‘ bo‘lsin!» alqovida yashab kelmoqda. Umr kodi uzoq hayot tilashning alohida qadriyat maqomini ko‘rsatadi: «Umringiz uzoq bo‘lsin» tipidagi formulalar o‘zbek alqovlarining eng faol qismiga kiradi; ingliz kundalik muloqotida esa long life tilagi marosim nutqidan tashqarida deyarli qo‘llanmaydi.

Shunday qilib, har bir kod o‘z tarixiy qatlamiga ega: qut qadimgi turkiy davrdan, baraka va rizq islomdan, oq esa umumturkiy ranglar ramziyatidan meros bo‘lib kelgan. Oq kodi poklik va ezgulik ramzi sifatida «oq yo‘l», «oq fotiha», «oq sut bergan ona» kabi birikmalarda voqelanadi; uning so‘zma-so‘z tarjimasi (white road) madaniy semantikani butunlay yo‘qotadi, funksional ekvivalent sifatida qo‘llanuvchi have a safe journey esa fotiha-duo semasini neytrallashtiradi. E’tiborga molik jihat shundaki, oq kodi alqov tizimida rang belgisi sifatida emas, balki aksiologik belgi sifatida ishlaydi: u yo‘lning xavfsizligini emas, niyatning pokligini va oq fotiha bergan jamoaning roziligini ifodalaydi.

Ingliz tilida alqov birliklari tarixan diniy mazmunini yo‘qotib borgan. Buni Goodbye so‘zi tarixi ham tasdiqlaydi: xayrlashuv formulasi Goodbye aslida «God be with you» duosining qisqargan shaklidir. Bugungi ingliz muloqotida diniy alqov cheklangan o‘rinlarda (cherkov marosimi, rasmiy nutq, God bless you kabi turg‘un formulalar) saqlanadi, kundalik muloqotda esa dunyoviy tilaklar (good luck, all the best) ustunlik qiladi. O‘zbek tilida esa diniy va dunyoviy qatlamlar hozirgacha yonma-yon yashaydi: bir so‘zlovchi bitta suhbatda ham duo, ham tilak qo‘llashi odatiy holdir.

Qiyosiy tahlil natijasida ekvivalentlikning uch darajasini ajratish mumkin bo‘ldi. Birinchisi – to‘liq funksional ekvivalentlik: universal vaziyatlardagi tilaklar (Congratulations! – Tabriklayman!; Good luck! – Omad tilayman!; Happy birthday! – Tug‘ilgan kuningiz bilan!). Bu guruhda ikki til birliklari illokutiv kuch, qo‘llanish vaziyati va stilistik bo‘yoq jihatidan mos keladi. Ikkinchisi – qisman ekvivalentlik: madaniy kodning bir qismi saqlanuvchi holatlar («God bless you – Xudo yorlaqasin»), bunda umumiy diniy yo‘nalish saqlanadi, biroq kodning milliy to‘ldiruvi (baraka, rizq semalari) uzatilmaydi. Uchinchisi – nol ekvivalentlik, ya’ni mutlaq lakuna: marosimiy formulalar («Oq fotiha berdik», «Ko‘z tegmasin») inglizchada muqobiliga ega emas, chunki ular tayanadigan marosim yoki e’tiqod ingliz madaniyatida mavjud emas. Lakunarlik bir tomonlama emas: ingliz tilidagi «Bless you» (aksa urganda) formulasi o‘zbek muloqotida ekvivalentga ega emas, chunki bu vaziyatning o‘zi o‘zbek etiketida alqov talab qilmaydi; xuddi shuningdek, break a leg kabi teskari-tilak (sahna oldidan omad tilashning tabulashgan shakli) o‘zbek tizimiga yot.

Uch daraja bo‘yicha to‘plangan birliklarning qiyosiy tasnifi 2-jadvalda umumlashtirilgan. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, qisman ekvivalentlik eng katta guruhni tashkil etadi va aynan shu zonada tarjimaviy yo‘qotishlar – diniy muqaddaslik ma’nosining kuchsizlanishi, madaniy kodning uzatilmasligi, janr va tinglovchining farqi jamlangan.

2-jadval. **Alqov birliklarining ingliz tilidagi muqobillari bilan qiyosiy-funksional tasnifi**

T/r	Alqov birligi	Qo‘llanish vaziyati	Ingliz tilidagi muqobili	Ekvivalentlik darajasi
1	Omad tilayman!/ omad yor bo‘lsin	tilak; kundalik muloqot	Good luck!	to‘liq ekvivalentlik
2	Tug‘ilgan kuningiz bilan!	tilak; bayram tabrigi	Happy birthday!	to‘liq ekvivalentlik
3	Xudo yorlaqasin/ Alloh qo‘llasin	duo; minnatdorchilik, xayrlashuv	God bless you	qisman ekvivalentlik: baraka–rizq semasi uzatilmaydi
4	Xudo xohlasa/ Inshaalloh	duo; kelajakka oid reja-niyat	God willing / hopefully	qisman ekvivalentlik: diniy sema kuchsizlanadi
5	Alloh rahmatiga olsin	duo; motam vaziyati	Rest in peace / My condolences	qisman ekvivalentlik: janr va adresat siljigan
6	Oq yo‘l/Yo’lingiz bexatar bo’lsin	tilak (duo unsuri bilan); safar oldi vaziyati	Have a safe journey	qisman ekvivalentlik: oq kodining madaniy ma’nosi yo‘qoladi

T/r	Alqov birligi	Qo‘llanish vaziyati	Ingliz tilidagi muqobili	Ekvivalentlik darajasi
7	Qo‘sha qaringlar/ Qo‘shganingiz bilan qo‘sha qaringlar	olqish; nikoh marosimi	May you grow old together (erkin tilak)	qisman ekvivalentlik: formulaviy maqom yo‘qoladi
8	Oq fotiha berdik	olqish-duo qorishuvi; fotiha marosimi	–	nol ekvivalentlik (mutlaq lakuna)
9	Ko‘z tegmasin/Yomon ko‘zdan asrasin	duo-tilak; maqtovdan so‘ng himoya funksiyasi	–	nol ekvivalentlik (mutlaq lakuna)
10	Katta yigit (qiz) bo‘lsin/ Umri rizqi bilan bergan bo‘lsin	olqish; farzand tug‘ilishi munosabati bilan	–	nol ekvivalentlik (mutlaq lakuna)

Lakunar birliklarni uzatishda uchta strategiya samarali ekani aniqlandi. Birinchisi – funksional analog: vaziyat bo‘yicha eng yaqin birlikni tanlash (Oq yo‘l! – Have a safe journey!), bunda madaniy kod qurbon qilinadi, biroq kommunikativ maqsad saqlanadi. Ikkinchisi – transliteratsiya va izoh birikmasi: badiiy va ilmiy tarjimada baraka, fotiha kabi kodlarni asl shaklida saqlab, izohda ochish; bu strategiya matnning milliy koloritini saqlaydi. Uchinchisi – kompensatsiya: yo‘qolgan diniy ma’noni matnning boshqa nuqtasida boshqa vositalar bilan tiklash. Strategiya tanlovi matn tipiga bog‘liq: axborot matnida funksional analog, badiiy tarjimada transliteratsiya-izoh va kompensatsiya ustuvor bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Olingan natijalarni amalda qo‘llash doirasi ham keng. Lug‘atchilikda alqov formulasini oddiy tarjima muqobili bilan berish yetarli emas: lug‘at maqolasi to‘rt qismli tuzilishi lozim – funksional muqobil, qo‘llanish vaziyati, birlik tavsifi va madaniy izoh (masalan, «oq yo‘l» uchun: have a safe journey safarga kuzatish –tilak, duo unsuri bilan oq – poklik ramzi, fotiha an’anasi). Ingliz tilini o‘rganuvchi o‘zbek auditoriyasi uchun esa aksincha: ona tilidagi alqov odatlarini inglizchaga aynan ko‘chirish nutqda o‘rinsiz, vaziyatga mos kelmaydigan iboralarga olib keladi. Shu bois chet tili va madaniyatlararo muloqot ta’limida alqov tizimini alohida mavzu sifatida o‘rgatish maqsadga muvofiqdir.

Tahlillarimizdan quyidagicha xulosalar kelib chiqdi: birinchidan, olqish, duo va tilak funksional jihatdan farqlanuvchi, ammo yagona alqov keng qamrovli tizimiga birlashuvchi nutqiy aktlardir; ularni olqish,duo va tilak sifatida o‘rganish ham ichki tafovutni, ham yaxlitlikni bir vaqtda ochib beradi; ikkinchidan, o‘zbek alqovlarida diniy-ilohiy va folklor-marosimiy qatlamlar ajralmas yaxlitlikda yashaydi; ingliz tilidagi muqobil birliklar esa tarixan dunyoviylashib, odatiy etiket formulalariga aylangan; uchinchidan, baraka, rizq, qut, umr, oq kodlari alqov tizimining milliy o‘zagini tashkil etadi va har biri o‘z tarixiy-madaniy qatlamiga ega; ularning bir qismi (xususan, baraka) kengroq islom madaniy doirasiga tegishli bo‘lib, ingliz tiliga o‘girishda qisman yoki mutlaq lakunalarni yuzaga keltiradi; to‘rtinchidan, o‘zbek alqov tizimi so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi tenglik bo‘lmagan munosabat orqali jamiyatdagi yosh va maqom tartibini aks ettirib mustahkamlab boradi; ingliz tizimida esa bu xususiyat ancha kuchsiz. Mazkur natijalar qiyosiy lingvokulturologiya, lingvomadaniy birliklar leksikografiyasi hamda madaniyatlararo muloqot amaliyoti uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Rezyume. Maqolada o‘zbek tilidagi olqish, duo va tilak birliklari hamda ularning inglizcha muqobillari qiyosiy tahlil qilinadi. Ushbu uch birlik yagona alqov tizimining tarkibiy qismlari sifatida o‘rganiladi: ularning o‘zaro farqi, qo‘llanish vaziyatlari va pragmatik xususiyatlari aniqlanadi. O‘zbek alqovlari zamiridagi baraka, rizq, qut, umr, oq kabi madaniy tushunchalar tahlil etilib, ularning bir qismi butun islom madaniy makoniga xos ekani ko‘rsatiladi. Ekvivalentlikning uch darajasi belgilanadi, har ikki tomonda uchraydigan lakunalar aniqlanadi hamda bunday birliklarni tarjimada uzatish yo‘llari taklif etiladi.

Resume. The article provides a comparative analysis of the Uzbek units olqish, duo and tilak and their English counterparts. These three units are studied as components of a single system of blessing (alqov): their mutual differences, situations of use and pragmatic features are identified. The cultural concepts underlying Uzbek blessings (baraka, rizq, qut, umr, oq) are analysed, and some of them are shown to belong to the wider Islamic cultural space. Three degrees of equivalence are established, lacunae occurring on both sides are identified, and ways of rendering such units in translation are proposed.

Резюме. В статье проводится сопоставительный анализ узбекских единиц olqish, duo и tilak и их английских соответствий. Эти три единицы рассматриваются как компоненты единой системы благопожелания (alqov): определяются их различия, ситуации употребления и прагматические особенности. Анализируются культурные понятия, лежащие в основе узбекских благопожеланий, (baraka, rizq, qut, umr, oq) и показано, что часть из них принадлежит всему исламскому культурному пространству. Установлены три степени эквивалентности, выявлены лакуны с обеих сторон и предложены способы передачи таких единиц при переводе.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 7
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

TIL TIZIMINI MAYDONLAR ORQALI TUSHUNISH G'OYASINING VUJUDGA KELISHI

Karimov Abdulatif Abdug'aforovich,
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

Zamonaviy tilshunoslikda tilni shunchaki so'zlar yig'indisi emas, balki o'zaro bog'langan va shartlangan elementlar tizimi deb tushunish ustuvor ahamiyat kasb etadi[1]. Til qurilishi o'ta murakkab va serqirra voqelik bo'lib, u o'z uzvlarining oddiy arifmetik yig'indisidan ko'ra kengroq va chuqurroq mohiyatga ega[2]. Til tizimini maydonlar orqali tushunish va tadqiq etish g'oyasi tilshunoslikning tavsifiy (descriptive) bosqichdan tizimli-struktural (system-structural) bosqichga o'tishida hal qiluvchi rol o'ynadi[3].

Lisoniy birliklarning muayyan birlashtiruvchi ma'no asosida ma'lum paradigmalarga birlashishi natijasida yuzaga kelgan «maydon» (field) tushunchasi o'tgan asrning 20-30-yillarida G'arb tilshunosligida shakllana boshladi[4]. Ushbu g'oyaning nazariy ildizlari Vilgelm fon Gumboldtning «tilning ichki shakli» haqidagi ta'limoti hamda Ferdinand de Sossyurning tilni belgi va ishoralar tizimi sifatidagi qarashlariga borib taqaladi[5]. Xususan, Sossyur til elementlari bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgandagina ahamiyat kasb etuvchi yopiq tizim ekanligini isbotlab, lisoniy birliklarning bo'linish qonuniyatlarini asoslab berdi[6].

Maydon nazariyasining uzil-kesil shakllanishida nemis tilshunoslari Gunter Ipsen va Yohan Trirning xizmatlari beqiyosdir. G. Ipsen 1924-yilda «mazmuniy maydon» (Bedeutungsfeld) terminini birinchi bo'lib fanga olib kirdi, Y. Trir esa har bir lisoniy birlik o'z ma'nosini faqat yaxlit bir butunlik (maydon) tarkibida oladi, degan g'oyani ilgari surdi[7]. Keyinchalik bu yo'nalish V. Porzig, L. Vaysgerber, A.Yolles kabi olimlar tomonidan rivojlantirilib, tilning leksik-semantik sathini guruhlar asosida o'rganishning metodologik

[1] Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. Филол. фан. докт. дисс. – Тошкент, 2005. – Б 4.

[2] Искандарова Ш. М. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони): Филол. фан. докт. дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – Б 12.

[3] Исломов И. Х. Ўзбек тилида ер сатҳи кўринишларини ифодаловчи атов бирликлари тизими. Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) дисс. – Самарқанд, 2021. – Б 12.

[4] Искандарова Ш. Тил системасига майдон асосида ёндашув. – Тошкент: Фан, 2007. – Б 30.

[5] Кўрсатилган манба – Б 31.

[6] Исмоилова Д. Р. Турли тизимдаги тилларда жиноят семантик майдони ва унинг лингвокултурологик тадқиқи. Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) дисс. автореф. – Андижон: 2023. – Б 10.

[7] Шокиров Ш. И. Турли тизимли тилларда «кўз» лексик-семантик майдони ва уни ташкил этувчи тил бирликлари типологияси. Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) дисс. – Фарғона: 2020. – Б 23.

asosi yaratildi[1].

O‘zbek tilshunosligida leksikani maydon asosida tadqiq etish o‘tgan asrning 70-80-yillaridan boshlab jadallashdi. Bu borada I. Qo‘chqortoyev, A. Nurmonov, H.Ne’matov, R. Rasulov, Sh. Iskandarova va A. Sobirov kabi olimlarning ishlari til birliklariga tizimli yondashuvning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi[2]. Ayniqsa, Sh. Iskandarova tomonidan «shaxs» mikromaydoni misolida o‘zbek tili leksikasining maydon tabiati batafsil ochib berildi[3].

Ushbu maqolaning dolzarbligi shundaki, bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida til korpuslarini yaratish, mashina tarjimasi va sun’iy intellekt tizimlarini takomillashtirish bevosita til tizimini maydonlar orqali modellashtirishni taqozo etadi[4]. Biroq, ushbu g‘oyaning lisoniy taraqqiyotdagi o‘rni va uning rivojlanish bosqichlarini qiyosiy-nazariy jihatdan umumlashtirishga ehtiyoj saqlanib qolmoqda.

Maqolaning maqsadi til tizimini maydonlar orqali tushunish g‘oyasining lisoniy va falsafiy asoslarini tahlil qilish hamda uning o‘zbek tilshunosligidagi tatbiqiy ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Quyida maydon nazariyasining asosiy bosqichlari va yo‘nalishlari aks ettirilgan jadvalni keltiramiz:

1-jadval.

Maydon nazariyasining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari

Bosqichlar	Davr	Asosiy namoyandalar	G‘oyaning mazmuni
Nazariy-falsafiy poydevor	XIX asr oxiri – XX asr boshi	V. Gumboldt, F. de Sossyur	Tilning «ichki shakli» va tizimli (sign) tabiati
Klassik maydon nazariyasi	1920-1930-yillar	G. Ipsen, Y. Trir, V. Porzig	Mazmuniy maydon (mosaic model) va sintagmatik maydon g‘oyasi
Struktur-semantik bosqich	XX asr 50-70-yillari	E. Kosheriu, V. Gak, A. Bondarko	Funksional-semantik va struktur tahlilning chuqurlashuvi
Zamonaviy (o‘zbek) bosqichi	XX asr oxiri – XXI asr	A. Nurmonov, Sh. Iskandarova	Onomasiologik yondashuv va lingvistik modellashtirish

2-jadval.

O‘zbek tilshunosligida maydon nazariyasi bo‘yicha olib borilgan asosiy tadqiqot yo‘nalishlari

Tadqiqotchi	Tadqiqot obyekti (Maydon turi)	Lisoniy qiymati
Sh. Iskandarova	«Shaxs» mikromaydoni	Olamning lisoniy manzarasini tizimli aks ettirish
H. Hojiyeva	«Hurmat» maydoni	Ijtimoiy-pragmatik munosabatlarning ifodalanishi
F. Safarov	«Son-miqdor» mikromaydoni	Leksik birliklarning miqdoriy darajalanishi (graduonimiya)
A. Sobirov	Leksik sathning tizimlar tizimi	Tilni makrosistema sifatida tushunish

Maydon nazariyasi tilni tartibsiz elementlar yig‘indisi sifatida emas, balki qat’iy qonuniyatlarga bo‘ysunuvchi, o‘zaro dialektik bog‘langan yaxlit organizm sifatida o‘rganish imkonini berdi.

Til tizimini maydonlar orqali tadqiq etish g‘oyasi uzoq rivojlanish yo‘lini bosib o‘tgan bo‘lib, uning nazariy asoslari tilshunoslikning eng muhim burilish nuqtalariga tayanadi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu nazariya dastlab G‘arbiy Yevropada shakllanib, keyinchalik rus va o‘zbek tilshunosligida o‘zining tizimli maktablariga ega bo‘ldi.

Maydon g‘oyasining nazariy poydevori Vilgelm

[1] Искандарова Ш. М. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони): Филол. фан. докт. дисс. автореф. – Тошкент: 1999. – Б 33.

[2] Эшмуминов А. А. Ўзбек тили корпуслари учун таксономик ва меронимик муносабатли лексемалар лингвистик базасини шакллантириш. Филол. фан. докт. (DSc) дисс. – Термиз: 2022. – Б 27.

[3] Ахмедова М. Б. Инглиз ва ўзбек тилларида «маънавият» семантик майдони: таркиби, муносабатлари, лексикографик талқини. Филол. фан. докт. (DSc) дисс. автореф. – Бухоро, 2024. – Б 13

[4] Эшмуминов А. А. Ўзбек тили корпуслари учун таксономик ва меронимик муносабатли лексемалар лингвистик базасини шакллантириш. Филол. фан. докт. (DSc) дисс. – Термиз: 2022. –Б 32.

fon Gumboldtning tilni «haqiqiy olamni idrok etish quroli» va «ichki shakl» (innere Sprachform) ekanligi haqidagi qarashlari bilan qo‘yilgan[1]. Ferdinand de Sossyur esa tilni elementlari o‘zaro bog‘liq bo‘lgan yopiq tizim ekanligini asosladi. Uning «assotsiativ munosabatlar» (keyinchalik paradigmatik munosabatlar) haqidagi konsepsiyasi maydon nazariyasining metodologik tayanchi bo‘lib xizmat qildi[2].

Tilshunoslikda «maydon» terminini birinchi bo‘lib Gunter Ipsen 1924-yilda fanga olib kirdi va uni ma’no jihatdan birlashgan so‘zlar majmuasi deb ta’rifladi[3] . Biroq, ushbu nazariyaning mukammal ko‘rinishi Yohan Trir nomi bilan bog‘liq. Trirning «mozaika modeli»ga ko‘ra, tilning leksik tarkibi tushunchalar maydonini hech qanday bo‘shliqlarsiz qoplaydi va bir so‘zning ma’nosi qo‘shni so‘zlarning ma’no chegaralari bilan belgilanadi[4]. Trirning paradigmatik yondashuviga zid o‘laroq, Valter Porzig 1934-yilda «sintagmatik maydon» (Wortkomplex) g‘oyasini ilgari surib, so‘zlarning birikuvchanlik imkoniyatlariga (masalan, «tish» va «tishlamoq» orasidagi bog‘liqlik) e’tibor qaratdi[5].

XX asrning ikkinchi yarmida Jon Layonz maydon nazariyasini semantik munosabatlar (sinonimiya, antonimiya, giponimiya) asosida yanada tizimlashtirdi[6]. Adrienne Lehrer esa kontekstning maydon birliklariga ta’sirini o‘rganib, leksik tarmoqlar nazariyasini rivojlantirdi[7]. Rossiya tilshunosligida A.Bondarko tomonidan ishlab chiqilgan «funksional-semantik maydon» nazariyasi tilning turli sathlaridagi (leksik, grammatik, so‘z yasalish) birliklarni umumiy ma’no atrofida birlashtirish imkonini berdi[8].

O‘zbek tilshunosligida leksikani tizim sifatida o‘rganish I.Qo‘chqortoyevning so‘z valentligi haqidagi ishlari bilan boshlangan[9]. Sh.Iskandarova o‘zining fundamental tadqiqotlarida «shaxs» mikromaydoni misolida maydon birliklarining iyerarxik tuzilishi, yadro va periferiya munosabatlarini batafsil ochib berdi[10]. A.Sobirov o‘zbek tili leksikasini «sistemalar sistemasi» sifatida talqin qilib, maydonlararo graduonimik, partonimik va giponimik munosabatlarni tasnifladi[11]. Keyingi davrda A.Eshmuminov tomonidan maydon nazariyasi til korpuslarini yaratishda taksonomik va meronimik modellash asosi sifatida qo‘llanildi[12].

Quyida adabiyotlar tahlili asosida shakllantirilgan tizimli ma’lumotlarni keltiramiz:

3-jadval.

Maydon nazariyasining klassik va zamonaviy yondashuvlari qiyosiy tahlili

Yondashuv	Namoyandalar	Asosiy prinsipi	Tadqiqot usuli
Paradigmatik (Mozaika)	Y.Trir, L.Vaysgerber	So‘zlar tushunchalar maydonini zich qoplaydi	Ma’no chegaralarini zidlash
Sintagmatik (Valentlik)	V.Porzig, I.Qo‘chqortoyev	So‘zlar o‘zaro birikuvchanlik orqali maydon hosil qiladi	Sintaktik aloqadorlik tahlili

[1] Искандарова Ш. Тил системасига майдон асосида ёндашув. – Тошкент: Фан, 2007. – Б 30.

[2] Исмоилова Д. Р. Турли тизимдаги тилларда жиноят семантик майдони ва унинг лингвокултурологик тадқиқи. Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) дисс. автореф. – Андижон: 2023. – Б 10

[3] Шокиров Ш. И. Турли тизимли тилларда «кўз» лексик-семантик майдони ва уни ташкил этувчи тил бирликлари типологияси. Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) дисс. – Фарғона: 2020. – Б 19.

[4] Петренко А. Е. Семантические поля в романах Кретьена де Труа как репрезентация фрагментов языковой картины мира средневекового человека. Дисс. ... канд. филол. наук. – Воронеж: 2016. – Б 14

[5] Попова Е. П. Эволюция лексико-семантического поля “правосудие” в английском языке VII–XVII вв. Дисс. ... канд. филол. наук. – Пятигорск, 2011. – Б 26.

[6] Исмоилова Д. Р. Турли тизимдаги тилларда жиноят семантик майдони ва унинг лингвокултурологик тадқиқи. Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) дисс. автореф. – Андижон, 2023. – 52 Б 21.

[7] Lehrer A. Semantic Fields and Lexical Structure. – North-Holland Publishing Company, 1974. – P 198.

[8] Бондарко А. В. Принципы функциональной грамматики и вопросы аспектологии. – 2-е изд. – М.: Эдиториал УРСС, 2001. – 208 с

[9] Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. Филол. фан. докт. дисс. – Тошкент, 2005. – Б 16.

[10] Искандарова Ш. М. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони): Филол. фан. докт. дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – Б 13

[11] Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. Филол. фан. докт. дисс. – Тошкент, 2005. – Б 93.

[12] Эшмуминов А. А. Ўзбек тили корпуслари учун таксономик ва меронимик муносабатли лексемалар лингвистик базасини шакллантириш. Филол. фан. докт. (DSc) дисс. – Термиз, 2022. – 267 б

Funksional-semantik	A.Bondarko, Sh.Iskandarova	Turli sath birliklari bitta semantik dominantga xizmat qiladi	Iyerarxik struktur tahlil
Kognitiv-modellashtirish	J.Layonz, A.Eshmuminov	Maydon - inson xotirasi va raqamli tizimlardagi bilimlar tarmog‘idir	Tezaurus va korpus razmetkasi

4-jadval.

O‘zbek tilshunosligida lisoniy birliklarni maydon sifatida tadqiq etishning ustuvor yo‘nalishlari

Tadqiqotchi	Nazariy yo‘nalishi	Maydonni tashkil etuvchi asosiy munosabatlar
A. Nurmonov	Struktur tilshunoslik	Tilning sistem-struktur tabiati va uning falsafiy asosi
Sh. Iskandarova	Onomasiologik yondashuv	Markaz-qurshov, yadro va periferiya munosabatlari
A. Sobirov	Sistem leksikologiya	Giponimiya, partonimiya, graduonimiya, zidlik
B. Mengliyev	Subistansial tilshunoslik	Lisoniy sistemaning yaxlitligi va sathlararo aloqadorlik

Xulosa qilib aytganda, adabiyotlar tahlili maydon nazariyasining “ichki shakl” haqidagi mavhum falsafiy g‘oyadan aniq matematik va lingvistik modellashtirish bosqichiga o‘tganligini ko‘rsatadi.

Ushbu tadqiqotda til tizimini maydonlar orqali o‘rganishning nazariy-evolyusion jihatlarini tahlil qilish uchun sistem-struktur tilshunoslik tamoyillariga asoslanildi[1]. Til birliklarini mazmuniy maydon sifatida tasniflashda «mazmundan shaklga» yo‘nalishidagi onomasiologik yondashuv yetakchi metodologiya sifatida tanlab olindi[2].

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlar majmuidan foydalanildi:

Leksemalar ma’nosini eng kichik mazmuniy bo‘laklar semalarga ajratish orqali ularning maydon ichidagi o‘rni aniqlandi[3]. Bunda arxisema (umumlashtiruvchi belgi) va differensial semalar (farqlovchi belgilar) o‘rtasidagi ierarxik munosabatlar belgilandi[4].

Lisoniy birliklarni yadro (nucleus), markaz va periferiya (qurshov) qismlariga ajratib modellashtirish amalga oshirildi[5]. Ushbu metod maydonning ichki strukturasini ierarxik tashkil etishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qildi[6]. Turli tizimdagi (ingliz va o‘zbek) til materiallarini chog‘ishtirish orqali maydon nazariyasining universal va milliy-xos xususiyatlari ochib berildi[7]. Til tizimining kognitiv-struktur tasvirini yaratish uchun freymlar va grafik modellardan foydalanildi[8]. Tadqiqot bazasini shakllantirishda «O‘zbek tilining izohli lug‘ati» (1981, 2006, 2020 yil nashrlari) va sohaviy terminologik lug‘atlardan olingan 1000 dan ortiq leksemalar tanlab olindi. Shuningdek, til birliklarining nutqiy voqelanishini tekshirish uchun o‘zbek tili milliy korpusi materiallari tahlilga tortildi[9].

Quyida tadqiqotda qo‘llangan metodlar va ularning vazifalari aks etgan jadvalni keltiramiz:

[1] Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. Филол. фан. докт. дисс. – Тошкент, 2005. – Б 24.

[2] Искандарова Ш. М. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони): Филол. фан. докт. дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – Б 41.

[3] Ахмедова М. Б. Инглиз ва ўзбек тилларида «маънавият» семантик майдони: таркиби, муносабатлари, лексикографик талқини. Филол. фан. докт. (DSc) дисс. автореф. – Бухоро, 2024. – Б 21.

[4] Попова Е. П. Эволюция лексико-семантического поля “правосудие” в английском языке VII–XVII вв. Дисс. ... канд. филол. наук. – Пятигорск, 2011. – С 136.

[5] Забродкина Е. А. Семантическое поле “дом” в русских народных говорах. Дисс. ... канд. филол. наук. – 2010 – С 57.

6 Попова Е. П. Эволюция лексико-семантического поля “правосудие” в английском языке VII–XVII вв. Дисс. ... канд. филол. наук. – Пятигорск: 2011. – С 83.

[7] Исмоилова Д. Р. Турли тизимдаги тилларда жиноят семантик майдони ва унинг лингвокултурологик тадқиқи. Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) дисс. автореф. – Андижон: 2023. – Б 8.

[8] Шокирова М. Н. Ўзбек тилидаги «спорт» семемали бирликларнинг структур-семантик тадқиқи. Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) дисс. – Фарғона: 2020. – Б 43.

[9] Эшмуминов А. А. Ўзбек тили корпуслари учун таксономик ва меронимик муносабатли лексемалар лингвистик базасини шакллантириш. Филол. фан. докт. (DSc) дисс. – Термиз: 2022. – Б 67

5-jadval.

Tadqiqot metodlarining tavsifi va qo‘llanish maqsadi

Metod nomi	Vazifasi	Olinadigan natija
Definitsion tahlil	Lug‘atdagi izohlarni o‘rganish	So‘zning semantik strukturasini aniqlash
Komponent tahlil	Ma’noni semalarga parchalash	Arxisema va differensial semalarni ajratish
Ierarxik tasniflash	Birliklarni pog‘onalarga ajratish	Tur-jins (giponimik) munosabatlarini o‘rnatish
Statistik tahlil	Miqdoriy ko‘rsatkichlarni hisoblash	Maydonning leksik hajmini belgilash

Maydon tadqiqida lisoniy birliklarning o‘zaro bog‘liqligini tekshirish jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

6-jadval.

Maydonni strukturalash bosqichlari

Bosqich	Amalga oshiriladigan ishlar
1-bosqich	Tekst va lug‘atlardan leksikani saralab olish (sploshnaya vыborka)
2-bosqich	Integral semalar asosida maydon yadrosini belgilash
3-bosqich	Mikromaydonlar va leksik-semantik guruhlarni ajratish
4-bosqich	Yadro, markaz va periferiya chegaralarini modellashtirish

Qo‘llanilgan metodlar majmui til tizimining maydon tabiatini ham sinxron, ham diaxron jihatdan mukammal tadqiq etish imkonini berdi.

Tadqiqot natijasida til tizimini maydonlar orqali modellashtirish lisoniy birliklarning nafaqat semantik, balki ierarxik va funksional tabiatini ham ochib berishi aniqlandi. O‘zbek tilshunosligida leksik katlamni mazmuniy maydonlarga ajratish jarayonida lisoniy birliklarning miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlari yillar davomida kengayib borayotganligi kuzatiladi.

Xususan, «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»ning turli yillardagi nashrlarini meronimik (butun-qism) munosabatli maydonlar misolida qiyoslash quyidagi natijalarni ko‘rsatdi:

7-jadval.

O‘zbek tili izohli lug‘atlarida meronimik maydon birliklarining miqdoriy o‘zgarishi

Maydon nomi (Meronimik guruh)	1981 yil nashri (birlik soni)	2006-2020 yillar nashri (birlik soni)	O‘sish ko‘rsatkichi (%)
Odam tanasi a’zolari	136	181	33%
Kiyim va kechak qismlari	34	48	41%
Mexanizm va asboblar qismi	123	150	22%
Idishlarning qismlari	88	149	69%
Inshoot qismlari	30	46	53%

Mazkur jadval shuni ko‘rsatadiki, til tizimini maydonlar asosida tushunish va lug‘atlarda aks ettirish jarayonida «idishlar» va «inshootlar» kabi konkret predmetli maydonlarda derivatsion va terminologik boyish yuqori bo‘lgan.

Shuningdek, abstrakt tushunchalar tizimida ham maydon strukturasining murakkab ierarxik ko‘rinishi isbotlandi. Masalan, «ma’naviyat» semantik maydoni o‘z ichida 30 ga yaqin mikromaydonlarni (axloq, vijdon,

sabr va b.) birlashtirishi va ularning har biri yadro-periferiya prinsipi asosida shakllanishi aniqlandi [1,128].

8-jadval.

«Ma'naviyat» semantik maydonining tarkibiy komponentlari (O'zbek tili misolida)

Mikromaydon turi	Yadro (Core) birliklari	Periferiya (Periphery) birliklari
Axloq	odob, axloq, xulq	xushmuomalalik, andisha, hayo
Vijdon	insof, diyonat, imon	halollik, poklik, vijdon azobi
Aql (Mental)	tafakkur, bilim, zakovat	farosat, ong, tushuncha
Nafs	nafs, ehtiyoj	ochko'zlik, qanoat, tama

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, til tizimini maydonlar orqali tadqiq etish go'yoki «lisoniy mozaika»ni yig'ish jarayoniga o'xshaydi. Biroq, Yoxan Trirning klassik mozaika modelidan farqli o'laroq, zamonaviy maydon nazariyasi tilda «bo'shliqlar» (lexical gaps) va «ustma-ust tushishlar» (overlaps) mavjudligini tan oladi[1].

Trir tilning leksik tarkibi tushunchalar maydonini zich va bo'shliqlarsiz qoplaydi deb hisoblagan bo'lsa, A.Lerer va boshqa zamonaviy tilshunoslar tildagi ma'noviy noaniqlik (fuzzy indeterminacy) va «leksik bo'shliqlar» lisoniy voqelikning tabiiy holati ekanligini ta'kidlaydilar[2] . Bizning kuzatishlarimizda ham o'zbek tilidagi «yer sathi ko'rinishlari» maydonida ba'zi tushunchalar uchun alohida leksema mavjud emasligi (masalan, balandlikning ma'lum bir aniq darajasi uchun) lisoniy tejamkorlik va ehtiyoj bilan izohlandi[3].

Maydon nazariyasida yadro va periferiya chegaralari doimo o'zgaruvchan va noaniq (imaginary and vague) bo'ladi[4]. Tahlillarimiz shuni ko'rsatdiki, ma'lum bir davrda maydonning chetida turgan so'zlar ijtimoiy ehtiyoj tufayli yadroga ko'chishi mumkin. Masalan, «sport» maydonida yangi kirib kelgan atamalar dastlab periferiyada paydo bo'lib, keyinchalik tizimning markaziy qismiga mustahkam o'rnashadi[5].

Bugungi kunda maydon nazariyasi til korpuslarini yaratishda semantik teglash (semantic tagging) uchun asosiy vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Til birliklarini taksonomik va meronimik modellarga ajratish kompyuter lingvistikasida ma'lumotlarni qidirish tizimining aniqligini ta'minlaydi[6].

Xulosa qilib aytganda, til tizimini maydonlar orqali tushunish go'yoki tilni «tizimlar tizimi» (system of systems) sifatida qabul qilish demakdir. Bu yondashuv tilning nafaqat ichki qurilishini, balki uning inson ongi va olamning lisoniy manzarasi bilan bog'liqligini ham ilmiy asoslash imkonini beradi.

Til tizimini maydonlar orqali tushunish va tadqiq etish nazariyasining shakllanishi tilshunoslik ilmida tub burilish yasagan hodisa bo'ldi. Olib borilgan nazariy va tahliliy kuzatishlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Tilni tizim sifatida o'rganish g'oyasi Vilgelm fon Gumboldtning «tilning ichki shakli» haqidagi qarashlaridan boshlanib, Yoxan Trir va Gyunter Ipsenning «mazmuniy maydon» konsepsiyalari orqali mustahkamlandi. Bu yondashuv tilni mantiqiy va lingvistik jihatdan bir-birini taqozo etuvchi elementlarning yaxlit makrosistemasi sifatida talqin qilish imkonini berdi.

Har qanday semantik maydon murakkab ierarxik tuzilishga ega bo'lib, u yadro (nucleus), markaz va periferiya qismlaridan tashkil topadi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, maydonning yadro qismida eng faol va umumlashgan ma'noli leksemalar joylashsa, periferiya qismida boshqa maydonlar bilan tutashuvchi va kontekstual ma'no kasb etuvchi birliklar voqelanadi.

O'zbek tili leksikasini maydon asosida o'rganish til birliklari orasidagi giponimik, partonimik (meronimik) va graduonimik munosabatlarni yangi bosqichda ochib berdi. Xususan, taksonomik va meronimik birliklarning miqdoriy o'sishi tilning lug'at boyligi nafaqat kengayib borayotganini, balki tizimli ravishda murakkablashayotganini ko'rsatadi.

Bugungi kunda til tizimini maydonlar orqali mod-

[1] Lehrer A. Semantic Fields and Lexical Structure. – North-Holland Publishing Company, 1974. – P 130.

2 Кўрсатилган манба – Б 105

[3] Исломов И. Х. Ўзбек тилида ер сатҳи кўринишларини ифодаловчи атов бирликлари тизими. Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) дисс. – Самарқанд, 2021. – Б 76

[4] Ахмедова М. Б. Инглиз ва ўзбек тилларида «маънавият» семантик майдони: таркиби, муносабатлари, лексикографик талқини. Филол. фан. докт. (DSc) дисс. автореф. – Бухоро, 2024. – Б 17.

[5] Шокирова М. Н. Ўзбек тилидаги «спорт» семемали бирликларнинг структур-семантик тадқиқи. Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) дисс. – Фарғона, 2020. – Б 40.

[6] Эшмуминов А. А. Ўзбек тили корпуслари учун таксономик ва меронимик муносабатли лексемалар лингвистик базасини шакллантириш. Филол. фан. докт. (DSc) дисс. – Теритз, 2022. – Б 56.

ellashtirish kompyuter lingvistikasi, xususan, milliy korpuslarni yaratish va semantik teglash tizimlarini ishlab chiqishda metodologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Til birliklarini tizimlar tizimi sifatida tushunish olamning lisoniy manzarasini to‘liq idrok etish va sun’iy intellekt tizimlarida inson tilini to‘g‘ri ifodalash uchun muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, maydon nazariyasi tilshunoslikni tavsifiylikdan aniq mantiqiy-strukturaviy tahlilga o‘tkazgan asosiy vosita bo‘lib qolmoqda. Ushbu yondashuv kelgusida tilning nafaqat leksik, balki grammatik va funksional sathlarini ham yagona mazmuniy tizim sifatida tadqiq etishda keng istiqbollar ochadi.

Rezyume. Maqolada til tizimini maydonlar orqali tushunish va modellashtirish g‘oyasining vujudga kelishi hamda lisoniy evolyutsiyasi tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi maydon nazariyasining falsafiy-lingvistik ildizlarini ochib berish va uning o‘zbek tilshunosligidagi tatbiqiy ahamiyatini asoslashdan iborat. Ishda sistem-struktur tilshunoslik tamoyillari, komponent tahlil va yadro-periferiya modellashtirish metodlaridan foydalanilgan. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, lisoniy maydon tushunchasi tilning tavsifiy holatdan dinamik-tizimli holatga o‘tishini ta’minlagan bo‘lib, u o‘zbek tili leksikasini «tizimlar tizimi» sifatida tasniflash imkonini beradi. Qayd etish joizki, maydonlar orqali modellashtirish bugungi kunda kompyuter lingvistikasi va milliy korpuslarni yaratishda metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Resume. The article analyzes the emergence and linguistic evolution of the idea of understanding the language system through field theory. The aim of the research is to reveal the philosophical and linguistic roots of field theory and to substantiate its practical significance in Uzbek linguistics. The study employs the principles of systemic-structural linguistics, componential analysis, and core-periphery modeling methods. The results indicate that the concept of the linguistic field facilitated the transition of language from a descriptive to a dynamic-systemic state, enabling the classification of the Uzbek lexicon as a «system of systems». In conclusion, it is noted that field-based modeling serves as a methodological foundation for the development of computational linguistics and the creation of national corpora.

Резюме. В статье анализируются возникновение и лингвистическая эволюция идеи понимания языковой системы через теорию полей. Целью исследования является раскрытие философско-лингвистических истоков теории поля и обоснование её прикладного значения в узбекском языкознании. В работе использованы методы системно-структурной лингвистики, компонентного анализа и моделирования по принципу ядро-периферия. Полученные результаты показывают, что концепция лингвистического поля обеспечила переход языка из описательного в динамико-системное состояние, что позволяет классифицировать лексику узбекского языка как «систему систем». В заключении отмечается, что моделирование через поля служит методологической базой для развития компьютерной лингвистики и создания национальных корпусов.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 7
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

TERMIZ SHAHRI KO'CHA NOMLARINING YASALISH XUSUSIYATLARI

Xursanov Maxmud G'ayrat o'g'li,
Termiz davlat universiteti
o'zbek tilshunosligi kafedrasi tayanch doktoranti

Til faqatgina aloqa-aralashuv vositasi bo'lib qolmay, balki xalqning tarixi, madaniyati, dunyoqarashi va ma'naviy qadriyatlarini o'zida mustahkam mujassamlashtiruvchi hamda avloddan avlodga yetkazuvchi eng muhim ijtimoiy vosita hisoblanadi. Ana shunday milliy va madaniy xususiyatlarni lisoniy sathda yaqqol ifodalovchi birliklardan biri urbanonimlar bo'lib, ular muayyan bir hududning tarixiy taraqqiyoti, etnik tarkibi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti hamda madaniy rivojlanishi to'g'risida rad etib bo'lmas qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi. Toponimikaning tarkibiy qismi hisoblangan va bevosita shahar hududidagi obyektlarning nomlanish qonuniyatlarini o'rganuvchi soha urbanonimika deb yuritiladi[1]. Urbanonimlar tarkibiga shahar ichidagi ko'chalar, maydonlar, xiyobonlar, istirohat bog'lari, mahallalar, tor ko'chalar va boshqa ko'plab shahar ichki obyektlarining nomlari kiritiladi[2]. Ushbu nomlar tizimi va ularning lingvistik tabiati jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy ravishda bog'liq holda rivojlanadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin mamlakatimizning barcha hududlarida bo'lgani kabi urbanonimlar tizimida ham tub va sezilarli ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Sobiq mustabid tuzum va mafkuraning tazyiqi ostida qo'yilgan, xalqimizning milliy tabiatiga yot bo'lgan nomlarning aksariyati mustaqillik yillarida butunlay bekor qilindi hamda ularning o'rniga milliy qadriyatlarimiz, tarixiy buyuk shaxslarimiz, milliy o'zlikni anglash va istiqlol g'oyalarini yorqin ifodalovchi yangi lisoniy birliklar tatbiq etildi. Bu keng ko'lamli lingvomadaniy jarayon janubiy sarhadimizdagi qadimiy va navqiron Termiz shahri urbanonimlarida ham yaqqol va tizimli tarzda kuzatiladi.

Termiz Markaziy Osiyoning va jahon sivilizatsiyasining eng qadimiy shaharlaridan biri bo'lib, ikki ming besh yuz yildan ortiq chuqur va boy tarixga ega. Ushbu shahar urbanonimlarining uzoq o'tmishdagi tarixiy taraqqiyoti, o'ziga xos boy madaniy merosi hamda bugungi kunda kechayotgan zamonaviy shaharsozlik va ijtimoiy rivojlanish bosqichlarini har tomonlama aks ettiradi. Shu jihatdan olganda, Termiz shahri ko'cha nomlarini lisoniy jihatdan tizimli tadqiq etish, ularning shakllanish hamda yasalish xususiyatlarini ilmiy asosda aniqlash o'zbek onomastikasining hamda urbanonimikasining dolzarb ilmiy masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Ushbu ilmiy maqolada Termiz shahridagi rasmiy ro'yxatga olingan 50 ta ko'cha nomlarining lisoniy materiali tadqiqot obyekti sifatida tanlab olindi. Tadqiqot davomida toponimik obyektlar tahlilida keng qo'llaniladigan bir qator zamonaviy lisoniy metodlardan foydalanildi. Xususan, ko'cha nomlarining strukturaviy tuzilishi va morfologik-sintaktik xususiyatlarini aniqlashda komponentlar tahlili va tarkibiy qismlarga ajratish usullari qo'llanildi. Urbanonimlarning leksik-semantik guruhlarini tizimlashtirish maqsadida semantik tasniflash hamda lisoniy tavsiflash metodlariga tayanildi. Shuningdek, shahardagi nominal birliklarning yasalish usullari va modellari orasidagi nisbatni aniq ko'rsatish uchun statistik tahlil metodidan keng foydalanildi. Mazkur metodlar to'plangan ma'lumotlarni guruhlash, ularning o'zbek tilining ichki qonuniyatlari asosida yasalish darajasini aniqlash va xulosalar chiqarish imkonini berdi.

Olingan lisoniy ma'lumotlar va statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, Termiz shahri ko'cha nomlari o'zining semantik xususiyatlariga ko'ra rang-barang va tizimli xarakterga ega. Shahar urbanonimlarining shakllanishida antroponimlar, geografik terminlar, tabiat hodisalari hamda ijtimoiy-ma'naviy tushunchalar yetakchi o'rin tutadi. O'tkazilgan statistik tahlillar natijasida Termiz shahridagi ko'cha nomlarining semantik guruhlar bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha aniqlandi[3]:

a) tarixiy shaxs va atoqli insonlar nomlari (Antroponimlar): 22 ta ko'cha (44,0%);

b) milliy qadriyatlar va ijtimoiy-siyosiy g'oyalar: 10 ta ko'cha (20,0%);

c) geografik obyektlar va oykonomik nomlar: 5 ta ko'cha (10,0%);

[1] Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. – B. 5.
[2] Eyvazova R. Baki urbanonimleri. – Baki: Mars print, 2010. – B. 1.
[3] Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. –B. 121.

d) tabiat, flora va fauna bilan bog‘liq nomlar: 3 ta ko‘cha (6,0%);

e) kasb-hunar va ijtimoiy faoliyat turlari: 6 ta ko‘cha (12,0%);

f) boshqa turli xil nominatsiyalar: 6 ta ko‘cha (12,0%).

Ushbu statistik ko‘rsatkichlardan ko‘rinib turibdiki, shahar urbanonimik tizimida tarixiy shaxslar va atoqli allomalar nomini abadiylashtirish tamoyili eng yuqori ulushni (44%) tashkil etadi. Strukturaviy tuzilishi jihatidan Termiz shahri ko‘cha nomlari uchta asosiy guruhga bo‘linadi: sodda ko‘cha nomlari (27%), qo‘shma ko‘cha nomlari (48%) hamda birikmali urbanonimlar (25%). Yasalish usullari bo‘yicha tahlil qilinganda esa transonimizatsiya usuli 40%, semantik usul 20%, sintaktik usul 25% hamda kompozitsiya (qo‘shish) usuli 15%ni tashkil etishi ma’lum bo‘ldi.

Termiz shahri ko‘cha nomlarining leksik-semantik jihatdan tahlil qilinishi ularning har birining zamirida o‘ziga xos nominatsion motiv yotganligini ko‘rsatadi. Birinchi navbatda, antroponimlar asosida shakllangan urbanonimlarni tahlil qilish lozim. Ushbu guruh tarkibiga xalqimizning buyuk tarixiy qahramonlari, davlat arboblari, jahon ilm-fani rivojiga ulkan hissa qo‘shgan allomalar va taniqli adiblar kiritilgan. Misol tariqasida, Amir Temur ko‘chasi, Alisher Navoiy ko‘chasi, Abu Rayhon Beruniy ko‘chasi, Jaloliddin Manguberdi ko‘chasi, At-Termiziy ko‘chasi, Zahiriddin Muhammad Bobur ko‘chasi kabilarni keltirish mumkin. Bu nomlarning berilishi orqali jamiyatda tarixiy xotirani tiklash va yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadi ko‘zlangan. Ayniqsa, mazkur hududdan yetishib chiqqan buyuk muhaddis alloma Abu Iso Muhammad at-Termiziy nomining ko‘chalarga berilishi mahalliy xalq ma’naviyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Milliy qadriyatlar va mustaqillik g‘oyalarini ifodalovchi urbanonimlar tizimda ikkinchi o‘rinda turadi. Mustaqillikdan keyingi davrda ko‘cha nomlarining sezilarli qismi milliy o‘zlikni va yangi jamiyat qurish tamoyillarini aks ettiruvchi leksik birliklar orqali atala boshlandi. Bunga Mustaqillik, Istiqlol, Do‘stlik, Taraqqiyot, Yangi O‘zbekiston kabi ko‘cha nomlari yaqqol misol bo‘la oladi. Ushbu turdagi nomlar xalqning bugungi kundagi ijtimoiy-siyosiy intilishlarini, tinchlik, hamjihatlik va kelajakka bo‘lgan mustahkam ishonchini lisoniy vositalar yordamida muhrlab qo‘yish vazifasini bajaradi.

Geografik obyektlar asosidagi urbanonimlar guruhiga daryo, tog‘, voha, shahar va boshqa toponimik hudud nomlari asosida shakllangan ko‘cha nomlari kiradi[1]. Termiz shahrining tabiati va geografik joylashuvi bevosita ushbu hududdan oqib o‘tuvchi yirik daryolar va voha nomi bilan bog‘liq. Misol tariqasida Surxon ko‘chasi va Amudaryo ko‘chasi nomlarini keltirish mumkin. Bunday nominatsiya usuli shaharning tabiiy-geografik o‘rnini ko‘rsatish bilan bir qatorda hududiy geografik xotirani saqlash, odamlarning makon va makoniy obyektlar haqidagi tasavvurlarini boyitishga imkon beradi.

Tabiat bilan bog‘liq urbanonimlar guruhiga esa asosan tabiat obyektlari, o‘simliklar va gullar, shuningdek, turli estetik tushunchalar asosida yuzaga kelgan nomlar kiritiladi. Bunga Gulzor ko‘chasi, Lolazor ko‘chasi, Bog‘ishamol ko‘chasi, Chinor ko‘chasi, Navbahor ko‘chasi kabi lisoniy birliklar misol bo‘ladi. Mazkur urbanonimlar o‘zining ijobiy bo‘yoqdorligi, estetik hamda poetik xarakterga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Ular shaharga o‘zgacha ko‘rk va iliqlik bag‘ishlash, uning yashillik va go‘zallik maskani ekanligini ifodalash uchun xizmat qiladi.

Endi Termiz shahri ko‘cha nomlarining strukturaviy (tuzilish) xususiyatlarini chuqurroq ko‘rib chiqamiz. Shahar urbanonimlari morfologik va sintaktik tarkibiga ko‘ra turli-tumandir: 1. Sodda urbanonimlar. Bunday turdagi ko‘cha nomlari o‘z tarkibida faqatgina birgina leksemani (so‘z asosini) jamlaydi. Bunga Surxon, Gulzor, Baxt, Chinor kabi nomlar misol bo‘ladi. Tahlillar ko‘rsatishicha, ularning foiz hisobidagi ulushi taxminan 27%ni tashkil etadi. Bu nomlar ixcham va talaffuz uchun qulay ekanligi bilan ajralib turadi. 2. Qo‘shma urbanonimlar. Bu turdagi urbanonimlarimiz tarkibiy jihatdan ikki yoki undan ortiq mustaqil komponentning birikishidan tashkil topadi, biroq yaxlit bir ma’noni ifodalaydi. Bunga Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Abu Rayhon Beruniy kabi tarixiy shaxslarning ism-shariflari asosida hosil bo‘lgan nomlar kiradi. Ularning shahar bo‘yicha foiz hisobidagi ulushi eng yuqori bo‘lib, taxminan 48% ga tengdir. 3. Birikmali urbanonimlar. Bu turdagi nomlar muayyan sintaktik model (so‘z birikmasi) asosida shakllanadi va o‘zaro tobe va hokim munosabatdagi so‘zlardan tashkil topadi. Misollar: Yangi hayot ko‘chasi, Mustaqillik ko‘chasi, Barkamol avlod ko‘chasi. Foiz hisobida ularning ulushi taxminan 25% ni tashkil qiladi.

Termiz shahri ko‘cha nomlarining yasalish xususiyatlari va lingvistik usullarini tahlil qilish onomastika sohasi uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega. Shahar urbanonimlarining yasalishida quyidagi to‘rtta asosiy lisoniy usul yetakchilik qiladi[2]:

1. Transonimizatsiya usuli. Bu usul bir turdagi atoqli otning lisoniy funksiyasi o‘zgarib, hech qanday qo‘shimchalarsiz boshqa bir turdagi atoqli ot vazifasi-

[1] Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. – B. 122.
[2] Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. – B. 26.

ga o‘tishi jarayonidir. Termiz shahrini o‘rganish jarayonida antroponimlarning urbanonimga ko‘chishi juda kuzatildi. Masalan: Navoiy – Navoiy ko‘chasi, Bobur – Bobur ko‘chasi, Beruniy – Beruniy ko‘chasi. Shahardagi umumiy ko‘cha nomlarining qariyb 40 foizi aynan ushbu usul asosida shakllangan bo‘lib, bu o‘zbek tili onomastik tizimining boy imkoniyatlaridan dalolat beradi.

2. Semantik usul. Umumiy va turdosh ma’noli so‘zlarning ma’no torayishi yoki ko‘chishi natijasida atoqli otga, ya’ni muayyan obyekt (ko‘cha) nomiga aylanishi semantik yasalish hisoblanadi. Termiz shahrida Baxt, Do‘stlik, Taraqqiyot kabi mavhum va ijobiy ma’noli so‘zlar ushbu usul yordamida ko‘cha nomiga aylantirilgan. Foiz hisobida ularning taxminiy ulushi 20% ni tashkil etadi.

3. Sintaktik usul. So‘zlarning o‘zaro birikuvi va barqaror birikmalar hosil qilishi asosida yangi nomlarning yuzaga kelishidir. Misol tariqasida: Yangi O‘zbekiston, Mustaqillik shoh ko‘chasi, Yoshlar ko‘chasi kabi ob’yektlarni keltirish mumkin. Foiz hisobida ushbu usulning ulushi taxminan 25% ga teng bo‘lib, u shaharsozlikning yangi bosqichlarida keng qo‘llanilmoqda.

4. Kompozitsiya usuli. Ikki yoki undan ortiq mustaqil komponentning va asosning o‘zaro qo‘shilishidan korelyativ yangi so‘z-komponent hosil bo‘lishi usulidir. Termiz shahrida Gulbahor, Bog‘ishamol, Navro‘zobod kabi chiroyli shakllangan qo‘shma toponimik birliklar ushbu usul mahsulidir. Foiz hisobida ularning shahar ichidagi ulushi taxminan 15%ni tashkil qiladi.

Lisoniy materiallarni o‘rganish jarayonida Termiz shahri urbanonimlarida quyidagi to‘rtta asosiy motivatsiya turlari va omillari mavjudligi aniqlandi[1]. Birinchisi, tarixiy motivatsiya bo‘lib, u ko‘chalarni tarixiy shaxslar, xalq qahramonlari va unutilmas voqealar bilan bog‘liq holda nomlashda ko‘rinadi (masalan, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi). Ikkinchisi, madaniy motivatsiya bo‘lib, u milliy bayramlar, urf-odatlar va qadriyatlarni o‘zida ifodalaydi (masalan, Navro‘z, Do‘stlik). Uchinchisi, geografik motivatsiya hisoblanib, u hududning tabiiy-geografik joylashuvi hamda o‘ziga xos iqlimiy, gidrologik xususiyatlari bilan uzviy bog‘liqdir (masalan, Surxon, Amudaryo). To‘rtinchisi, mafkuraviy va ijtimoiy-siyosiy motivatsiya bo‘lib, u mamlakatda kechayotgan istiqlol, mustaqillik hamda yangilanish taraqqiyot g‘oyalarini yorqin aks ettiradi (masalan, Istiqlol, Mustaqillik, Yangi O‘zbekiston).

Termiz shahri urbanonimlari tahlili shuni isbotlaydiki, ko‘cha nomlari shunchaki harakatlanish uchun mo‘ljallangan oddiy manzilni belgilovchi texnik vosita emas, balki xalqning ko‘p asrlik tarixini, yuksak madaniyatini hamda boy ma’naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi juda muhim lisoniy va ijtimoiy birlik hisoblanadi. Ayniqsa, mustaqillik davrida milliy qahramonlar, allomalar va madaniyat arboblari nomlarining shahar urbanonimlariga faol tatbiq etilishi jamiyatda milliy o‘zlikni anglash jarayonining qonuniy mahsuli sifatida namoyon bo‘lmoqda. Biroq, shuni ham alohida ta’kidlash lozimki, ba’zan shahar amaliyotida chet el so‘zlariga ko‘r-ko‘rona ergashish, milliy til qonuniyatlariga mos kelmaydigan mantiqsiz va asossiz nomlarni qo‘llash holatlariga ham duch kelib qolishimiz bugungi kunda onomastika komissiyalari oldida turgan achinarli hol bo‘lib, kelgusida bunday nomlarni milliy qonunchilik va til qoidalari asosida chuqur tartibga solishni talab etadi.

Xulosa o‘rnida ishonch bilan aytishimiz mumkinki, Termiz shahri urbanonimlarida antroponimlar asosidagi ko‘cha nomlari tizimli ravishda yetakchi o‘rinni egallaydi. Shahar ko‘chalari tarkibida milliy qadriyatlarimiz, istiqlol g‘oyalari hamda mamlakatning zamonaviy mustaqillik tamoyillari juda keng va chuqur aks etgan. Lisoniy yasalish xususiyatlariga ko‘ra, ko‘cha nomlarining eng asosiy va salmoqli qismi transonimizatsiya usuli orqali atoqli otlarning ko‘chishi natijasida shakllangan. Strukturaviy jihatdan tahlil qilinganda esa, qo‘shma va birikmali urbanonimlar oddiy nomlarga qaraganda miqdor jihatidan yaqqol ustunlik qilishi aniqlandi.

Termiz shahri urbanonimik tizimi hududning o‘ziga xos tarixiy, madaniy-ma’rifiy hamda ijtimoiy taraqqiyot yo‘lini lisoniy sathda ko‘rsatib beruvchi jonli va nihoyatda muhim lingvistik manbadir. Shahar ichidagi ushbu nominal birliklarni lingvistik hamda onomastik jihatdan ilmiy o‘rganish o‘zbek onomastikasi qonuniyatlarini boyitishda, shahar tilshunosligi (urbanolingvistika) sohasini yangi bosqichga ko‘tarishda hamda kelajakda shaharlarda toponimik obyektlarga nom berish madaniyatini to‘g‘ri shakllantirishda beqiyos ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Rezyume. Ushbu maqolada Termiz shahri urbanonimlari tarkibidagi ko‘cha nomlarining yasalish xususiyatlari, leksik-semantik guruhlari, strukturaviy tuzilishi va nominatsion motivlari atroflicha tahlil qilindi. Tadqiqot davomida shahar ko‘cha nomlarining shakllanishi va tizimga kelishida tarixiy, madaniy, ijtimoiy-siyosiy hamda geografik omillarning o‘rni va ahamiyati aniqlandi. Shuningdek, urbanonimlarning morfologik, semantik hamda sintaktik yasalish usullari aniq lingvistik va statistik ma’lumotlar asosida atroflicha yoritildi. Tadqiqot natijalari Termiz shahri urbanonimik tizimi milliy qadriyatlar, tarixiy xotira hamda zamonaviy taraqqiyot tamoy-

[1] Каримов С.А., Бўриев С.И. Ўзбек топономикаси тараққиёт босқичида. – Тошкент: Фан, 2006. – Б. 79-80.

illarini o‘zida to‘liq aks ettiruvchi, xalqning o‘tmishi va bugungi kunini bog‘lovchi muhim lisoniy qatlam ekanligini ko‘rsatadi. Olingan tahliliy xulosalar shahar onomastikasini tartibga solish va lingvistik qonuniyatlarini belgilashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Резюме. В данной статье подробно анализируются особенности образования, лексико-семантические группы, структурное строение и номинационные мотивы названий улиц в составе урбанонимов города Термеза. В ходе исследования определяются роль и значение исторических, культурных, социально-политических и географических факторов в формировании и систематизации названий улиц города. Также на основе точных лингвистических и статистических данных подробно освещаются морфологические, семантические и синтаксические способы образования урбанонимов. Результаты исследования показывают, что урбанонимическая система города Термеза является важным языковым пластом, полностью отражающим национальные ценности, историческую память и принципы современного развития, а также связывающим прошлое и настоящее народа. Полученные аналитические выводы служат важной теоретической основой для регулирования городской ономастики и определения её лингвистических закономерностей.

Resume. This article provides a comprehensive analysis of the word-formation characteristics, lexical-semantic groups, structural organization, and motivational bases of street names within the urbanonymy of Termez city. In the course of the study, the role and significance of historical, cultural, socio-political, and geographical factors in the formation and systematization of city street names are identified. Furthermore, the morphological, semantic, and syntactic methods of urbanonym formation are explained in detail based on precise linguistic and statistical data. The research results indicate that the urbanonymic system of Termez is a crucial linguistic layer that fully reflects national values, historical memory, and principles of modern development, thereby connecting the people’s past and present. The derived analytical conclusions serve as an important theoretical framework for regulating urban onomastics and establishing its linguistic patterns.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 7
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

TOPISHMOQLARNI TASNIFLASH MUAMMOLARI

Turg'unova Maftunaxon Jamoldin qizi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
tayanch doktoranti

Topishmoqlar tasnifi xalq tafakkuri, dunyoqarashi va badiiy fikrlash darajasini aks ettiradi. Ular mavzu, tuzilish va ifoda jihatidan rang-barang bo'lib, xalq og'zaki ijodining muhim janri sanaladi.

Jahon tilshunosligida topishmoqlar (riddles) tasnifi bilan bir qator mashhur folklorshunos va tilshunos olimlar shug'ullangan. Ular topishmoqlarni mavzu, tuzilish, funksiyasi va semantik xususiyatlari asosida guruhlarga ajratgan.

Jahon miqyosida topishmoqlarni ilmiy tasniflagan eng yirik tadqiqotchi Archer Taylor (AQSh) «English Riddles from Oral Tradition» (1951) kitobida topishmoqlarni predmetli, harakatga asoslangan, metaforik, mantiqiy kabi turlarga ajratgan. «U topishmoqqa izoh berar ekan, «haqiqiy topishmoq (true riddle) bu jumboqli obyektni undan keskin farq qiladigan narsa bilan taqqoslash[1]« deb hisoblaydi. A.Teylor ham xuddi R.Petsh[2] kabi topishmoqda yadro va raqamlovchi komponentlarni ajratib ko'rsatadi. Yadrodagi ikki tarkkibiy qism: metaforik xarakterga ega bo'lgan asosiy tasvirlovchi element (positive element) va unga qarshi qo'yiladigan so'zma-so'z ifodalanadigan belgi (negative element). Masalan, kartoshka haqidagi quyidagi irland topishmog'ida shu elementlar sezillib turadi:

Something has eyes but cannot see (Ko'zlari bor, lekin ko'rmaydi)

Bunda «ko'zlari bor» birikmasi metaforik xarakterdagi tasvirlovchi element bo'lsa, «ko'ra olmaslik» to'g'ridan-to'g'ri anglashilishi mumkin bo'lgan belgi hisoblanadi.[3]«

Tadqiqotchilar R.Djordj va A.Dandes topishmoqlarga ta'rif berishga urinib, R.Petsh va A.Teylor nazariyalariga ergashadilar va diqqatlarini topishmoqning tasvirlovchi qismiga qaratadilar. Ularning fikricha, topishmoqning ta'rifini berish uchun minimal tahlil birligini ajratib olish lozim. Buning uchun esa ular «tavsiflovchi component»[4] terminini taklif qilishgan. R.Djorj va A.Dandeslarning fikricha, tavsiflovchi komponent mavzu (topic) va izoh (comment) dan iborat bo'ladi. Mavzu – bu aniqlanayotgan obyekt, izoh esa u haqidagi tuzilishi, funksional jihatlari bilan bog'liq bo'lgan maxsus ma'lumotdir. Masalan, gugurt haqidagi It has a head but can't think (Boshi bor, lekin o'ylay olmaydi) topishmog'i ikkita tavsiflovchi komponentdan iborat. Birinchisi It has a head (boshi bor) va ikkinchisi can't think (o'ylay olmaydi) kabi komponentlardir[5]. Yuqoridagilarga tayanib, ular topishmoqqa quyidagicha ta'rif beradilar: «Topishmoq qarama-qarshi bo'lishi mumkin bo'lgan bir yoki bir nechta tavsiflovchi qismlardan tashkil topgan an'anaviy og'zaki ibora bo'lib, bunda referent nimaligini topish zarur»[6].

T.A.Grin va U.Dj. Pepichello topishmoqlarni javob talab qiladigan har xil turdagi (allergoik tavsiflardan farqli o'laroq) an'anaviy savollar[7] deb ta'riflaydilar. Masalan, so'z o'yiniga asoslangan kofe haqidagi topishmoqda (ground yer ma'nosida, ground yanchilgan ma'nosida): When is coffe like the soil? (When it is ground); Qachon kofe yerga o'xshash bo'ladi? (Qachonki ground (yanchilgan yokli yer) bo'lganida). Muallifninf fikriga ko'ra, topishmoqlar savol-javob shakliga ega bo'lib, savolda keltirilgan ma'lumotga asoslangan holda uning javobini topish imkoniyati yuzaga keladi.[8]

Ch.Skottning fikriga ko'ra, «topishmoq p (proposition) majburiy propozitsiyalar bilan to'ldirilgan uya va a (answer) majburiy javoblar uyasidan tashkil

[1] Taylor A. English Riddles from Oral Tradition. Berkley; Los Angeles, 1951, p.5
[2] Petsch, Robert. Neue Beiträge zur Kenntnis des Volksrätsels. Palaestra IV. Berlin: Mayer & Müller, 1899.
[3] Якубова Н. Жумбоқли матнларнинг семантик ва прагматик хусусиятлари. Ф.ф.ф.д.(PhD) ... дис. – Фаргона, 2022. – Б 67.
[4] Georges R. A., Dundes A. Toward a structural definition of the riddle// The journal of American folklore 1963. Vol. 76, № 300. P.111
[5] Georges R. A., Dundes A. Toward a structural definition of the riddle// The journal of American folklore 1963. Vol. 76, № 300. P.112
[6] Georges R. A., Dundes A. Toward a structural definition of the riddle// The journal of American folklore 1963. Vol. 76, № 300. P.113
[7] Green T.A., Pepicello W.J. The Folk Riddle: A. Redefinition of terms // Western folklore. 1979. Vol. 38, № 1.P.17
[8] Якубова Н. Жумбоқли матнларнинг семантик ва прагматик хусусиятлари. Ф.ф.ф.д.(PhD) ... дис. – Фаргона, 2022. – Б 68

topgan nutq birligi» deb ta'riflanishi kerak. Ch.Skott topishmoqning semantik aspektiga e'tiborini qaratib, tavsiflovchi qism va yechim o'rtasidagi to'liq bo'lmagan semantik nomutanosiblikka to'xtaladi va uni «qisman yashiringan semantik moslik» («unit of discourse consist in go fan obligatory propositions lot filled by anutterance p and obligatory answers lot filled by anutterance a») deb ataydi. Ch.Skott jumboqning tavsiflovchi qismini javobda keltirilgan ba'zi bir semantik xususiyatlarni o'zgartiruvchi allosemalar to'plami sifatida qaraydi[1].

Tadqiqotchi I.Hemnett ta'kidlashicha, jumboqlar noaniqlik va ambivalentlikning bir ko'rinishi bo'lib, ularni aynan shunday tushunchalarning ijtimoiy va kognitiv asosida o'rganish lozim. I.Hemnett topishmoqda ikkita o'zaro nomuvofiq konsept va talqinlarning kombinatsiyasini ko'radi[2]. Hamnett nazarida topishmoqning asosiy belgisi – ma'nodagi ikkiyoqlamalilik. Shu asosda, u topishmoqlarni quyidagicha ko'radi:

1. Semantik noaniqlikka asoslangan topishmoqlar: so'z yoki obraz bir nechta ma`noni anglatadi; javob topish jarayoni mantiqiy qayta talqin orqali amalga oshadi.

2. Metaforik noaniqlikdagi topishmoqlar: buyum yoki hodisa boshqa narsa orqali tasvirlanadi; kognitiv xaritalash (bir sohadan boshqa sohaga ko'chirish) muhim. Bu tasnif kognitiv tilshunoslikdagi metofara va mental fazolar nazariyasiga yaqin.

Hamnett topishmoqlarni jamiyatdagi bajaradigan vazifasiga ko'ra ham tasniflaydi:

1. Didaktik topishmoqlar: bilim, tajriba, ijtimoiy me'yorlarni o'rgatadi.

2. Ijtimoiy-marosimiy topishmoqlar: aql charxlash, muloqotni faollashtirishga xizmat qiladi.

3. Ijtimoiy tanqidiy topishmoqlar: jamiyatdagi muammolarni bilvosita, ramziy ifodalaydi.

Hamnett qat'iy, o'zgarmas tasnifga qarshi chiqadi. Uning fikricha, topishmoq ijtimoiy sharoitga qarab o'zgaradi. Bir topishmoq turli davrlarda turli funksiyalarni bajarishi mumkin. Tasnif statik emas, balki jarayonli (processual) bo'lishi kerak. Bu jihat «classification and change» tushunchasining asosini tashkil etadi.

Hamnettning «Ambiguity, Classification and Change: The function of Riddles» kitobida yana quyidagi g'oyalar ilgari suriladi. Topishmoq bu – noaniqlikni boshqarish vositasi. U inson ongida qarama-qarshi tushunchalarni uyg'unlashtiradi. Topishmoqlar tafakkur modeli hisoblanadi. Qanday fikrlash, taqqoslash va xulosa chiqarish mexanizmini ko'rsatadi. Topishmoqlar ijtimoiy aloqalarni mustahkamlaydi. Savol-javob jarayoni orqali kommunikativ birlik hosil qiladi. Topishmoq tasnifi madaniyatga bog'liq. Bir xalqda «oddiy» bo'lgan topishmoq boshqasida murakkab bo'lishi mumkin. Vaqt o'tishi bilan topishmoqlar funksiyasi o'zgaradi. An'anaviy, marosimiy vazifadan o'yin-kulgi yoki ta'limiy vazifaga o'tadi.

Hamnettning ushbu ilmiy asarida topishmoqlarni nafaqat folklor namunasi, balki kognitiv, semantik va ijtimoiy hodisa sifatida talqin qiladi. Uning tasnifi noaniqlik (ambiguity), funksiya, ijtimoiy o'zgarish kabi mezonlarga tayangan bo'lib, bugungi kognitiv tilshunoslikda topishmoqlarni tahlil qilish uchun muhim nazariy asos hisoblanadi.

Topishmoqni folklor janri sifatida mustaqil o'rgangan amerikalik olimlar R.D.Abrahams va A.Dundeslar[3] topishmoqlarni kommunikativ va ijtimoiy funksiya nuqtayi nazaridan tasniflagan. Ularni o'yin-topishmoqlar, sinov-topishmoqlar, marosimga oid topishmoqlar tarzida guruhlagan. Abrahams va Dundes topishmoqlarni struktur-semiotik yondashuv asosida tahlil qilgan. Ularni qarama-qarshilikka va analogiyaga asoslangan topishmoqlarga ajratgan.

Tadqiqotchilar topishmoqlarni tahlil qilish jarayonida uning ham struktural, ham kognitiv aspektlariga diqqat qaratadilar. Ular topishmoqdagi tasvirni (yoki geshtaltni) aks ettirishning 4 ta asosiy usulini ajratib ko'rsatadi: oppozitsiya, noto'liq ta'rif, tasvirlashdagi ortiqcha tafsilotlar, yolg'on obraz[4].

E. Kyonges-Maranda topishmoqlarni tasniflashda fin jumboqlariga asoslanib, topishmoq va javob o'rtasidagi munosabatni hisobga olgan holda, «topishmoq-metafora (shakli yoki tuzilishi o'xshash bo'lgan ikki xil obyektni qiyoslash)» va «topishmoq-paradokslar(funksional jihatlari o'xshash bo'lgan ikki xil obyektni qiyoslash)»[5]ni ajratadi. Muallif topishmoq metaforani ikki to'plamning birlashishi, boshqotirma-paradoksni esa ikkita to'plamning kesishishi sifatida belgilaydi. Klassifikatsiya masalalarini davom ettirgan holda, nemis tilshunosligida topishmoqlar ustida tadqiqot ishlarini olib borgan olim R.Petsh o'z asarlarida topishmoqlarni «asl» (diewirklichen Volksratsel) va «asl bo'lmagan» (unwirkliche) kabi turlarga ajratadi. Birinchi navbatda, topishmoq yadrosini tashkil etuvchi tasniflovchini, xoh u tasviriy

[1] Senderovich S. Ya., 2008.Morfologiya zagadki [Morphology of the riddle]. Moscow. P.29

[2] Hamnett I. Ambiguity, classification and change: the function of riddles, 1967. URL: http: //www.era.anthropology.ac.uk./Era_/Riddles/hamnet.html

[3] Abrahams R. D., DundesA. Riddles // Folklor andfolklife: The introduction. University of Chicago Press, 1972.

[4] Abrahams R. D., DundesA. Riddles // Folklor andfolklife: The introduction. University of Chicago Press, 1972. P. 131

[5] Кёнгес-Маранда Э. Логика загадок/ Н.Кузминая таржимаси// Паремиологический сборник. Пословица. Загадка(структура, смысл, текст). – М., 1978.С.253.

xarakterga ega bo‘lsin, xoh tovushli aks-sado bo‘lsin, topishmoq uchun asosiy shart sifatida ta`kidlaydi. Uningcha, topishmoqqa xos 5 asosiy komponentni ajratib ko‘rsatish mumkin: raqamlovchi kirish qism (einfuhrendes Rahmenelement), yadro qismi, ya`ni yashirin obyektni bilvosita nomlab, ifodalovchi qism (benennendes Kernelelement), yadroni tasvirlovchi qism (beschreibendes Kernelelement), to‘xtatuvchi, o‘ylantiruvchi element (hemmendes Element), shuningdek, raqamlovchi yakuniy qism (abschliessendes Rahmenelement)[1].

Lekin bu komponentlarning barchasi ham topishmoqlar uchun majburiy emas. Tadqiqotchining fikriga ko‘ra, topishmoq uchun ikki elemet ham kifoya qiladi: bilvosita nomlanuvchi va tasvirlovchi.

Rus olimi V.Propp ertakshunos bo‘lsa-da, folklor janrlari tizimida topishmoqlarga ham to‘xtalgan. Topishmoqlarni tasviriy-obrazli, ramziy turlarga ajratgan[2]. A. A. Potebnya topishmoqlarni tafakkur va til bilan bog‘lab o‘rgangan. Ularni metaforik tafakkur mahsuli sifatida izohlagan. U uchun tasnifda ma’no yashirinligi asosiy mezon bo‘lgan[3].

Demak, A. Taylorning tasnifi klassik va asosiy tasnif hisoblansa, Abrahams, Dundeslarning tasnifi funksional va semiotik tasnif. Rus tilshunoslari Propp va Potebnyalar esa tasnifni tafakkur va obrazlilik asosida amalga oshirilgan.

Daniyalik B.Holbek Skandinaviya folklorida topishmoqlarni semantik va struktural jihatdan tasniflagan. U obraz – predmet – yashirin ma’no munosabatiga urg‘u bergan[4].

O‘zbek tilshunosligi va folklorshunosligida topishmoqlar tasnifi bilan bir qator olimlar shug‘ullangan. Ular topishmoqlarni mavzu, tuzilish, badiiy vosita va semantik xususiyatlariga ko‘ra guruhlashgan. Jumladan, M.Afzalov topishmoqlarni mavzusiga ko‘ra (tabiat, inson, hayvonot, mehnat qurollari va boshqalar)[5] tasniflagan. T.Mirzayev esa o‘zbek folklorida topishmoqlarni janr sifatida ilmiy tizimga solgan, ularning struktur-semantik xususiyatlarini tahlil qilgan[6]. B.Sarimsoqov topishmoqlarni badiiy tafakkur mahsuli sifatida baholab, ramziy obrazlar asosida tasniflagan[7]. Sh.Turdimov topishmoqlarning til birliklari, metafora va o‘xshatishlar asosida qurilishini o‘rgangan[8]. O.Safarov topishmoqlarning lingvopoetik va semantik qatlamlarini tadqiq etgan[9].

M.Abduraimov[10] tomonidan tuzilgan to‘plamda 1000 ga yaqin topishmoqlar berilgan bo‘lib, u topishmoqlarni tabiat hodisalari; odam va uning a’zolari; hayvonot dunyosi; parranda va qushlar; hasharotlar; o‘simliklar dunyosi; ekin va o‘simliklar; poliz ekinlari va sabzavotlar; oziq-ovqatlar; mehnat, ish qurollari; uy-joy va tegishli jihozlar; uy xo‘jalik asboblari; kiyim-kechak, bezak va tikuvchilik asboblari, kitob va yozuv; cholg‘u asboblari; o‘yinlar va o‘yinchoqlar; ot asboblari va yo‘l; ertakli topishmoqlar; yangi topishmoqlar; hazil so‘zlar va so‘z o‘yini kabi turlarga bo‘ladi. To‘plamda:

1. Tabiat hodisalari haqidagi topishmoqlar: 107 ta. M.Abduraimov bu tasnifda oy, quyosh, yulduz, yer va shu kabi koinot jismlari, sayyoralar bilan bog‘liq bo‘lgan topishmoqlarni ham qo‘shib yuborgan. Mening fikrimcha, javobi oy, quyosh, yer bo‘lgan topishmoqlarni koinot va osmon jismlari haqidagi topishmoqlar deb alohida ajratish kerak.

2. Odam va uning a`zolari haqidagi topishmoqlar: 108 ta. Bu tasnifda she’riy topishmoqlar ham bor bo‘lib, ular asosida bolalarning nutqini rivojlantirish, kognitiv faoliyatini oshirish mumkin: Hovuzcha,

Hovuzcha ustida buloqcha,
Buloqcha ustida chiroqcha,
Chiroqcha ustida qalamcha,
Qalamcha ustida ayvoncha,
Ayvoncha ustida chakalakzor (og‘iz, burun, ko‘z, qosh, peshona, soch)

3. Hayvonot dunyosi haqidagi topishmoqlar: 80 ta

4. Parranda va qushlar haqidagi topishmoqlar: 38 ta

5. Hasharotlar haqidagi topishmoqlar: 46 ta

6. O‘simliklar dunyosi haqidagi topishmoqlar: 49 ta

7. Ekin va o‘simliklar haqidagi topishmoqlar: 59 ta

8. Poliz ekinlari va sabzavotlar haqidagi topishmoqlar: 37 ta

9. Oziq-ovqatlar haqidagi topishmoqlar: 31 ta

10. Mehnat ish qurollari haqidagi topishmoqlar:

[1] Petsch, Robert. Neue Beiträge zur Kenntnis des Volksrätsels. Palaestra IV. Berlin: Mayer & Müller, 1899.
[2] Пропп, В. Я. Фольклор и действительность: Избранные статьи / Сост., ред. и предисл. Б. Н. Путилова. – Москва: Наука, 1976. – С. 62–64.
[3] Потебня, А. А. Из записок по теории словесности / А. А. Потебня. – Харьков: Издание М.В. Потебни, 1905. – 583 с.
[4] Holbek, B. (1970). “Games of Riddles”. Journal of the Folklore Institute, 7(2/3), 119-140.
[5] Afzalov M. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi: Topishmoqlar. – Toshkent: Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1961. – B. 5
[6] Mirzayev T. O‘zbek xalq topishmoqlari. – Toshkent: Fan, 1981. (Yoki: Mirzayev T. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi janrlari tizimi va poetikasi. – Toshkent: Fan, 1985).
[7] Sarimsoqov B. O‘zbek folklori estetikasi. – Toshkent: Fan, 2004. (Shuningdek: Sarimsoqov B. Folklorizmlar va badiiy tafakkur // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1996. – № 3).
[8] Turdimov Sh. O‘zbek folklorida lisoniy o‘xshatishlar va metafora. – Toshkent: Fan, 1992.
[9] Safarov O. O‘zbek xalq bolalar o‘yinlari va topishmoqlari lingvopoetikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992
[10] Ўзбек халқ топишмоқлари. Тузувчи: М.Абдурахимов. www.ziyozuz.com кутубхонаси. 2008.

44 ta

11. Uy-joy va unga tegishli asboblar haqidagi topishmoqlar: 74 ta

12. Uy-xo‘jalik asboblari haqidagi topishmoqlar: 82 ta

13. Olov, tutun chiroq haqidagi topishmoqlar: 30 ta

14. Kiyim-kechak, bezak va tikuvchilik asboblari haqidagi topishmoqlar: 54 ta

15. Kitob va yozuv haqidagi topishmoqlar: 9 ta

16. Cholg‘u asboblari haqidagi topishmoqlar: 8 ta

17. O‘yinlar va o‘yinchoqlar haqidagi topishmoqlar: 5 ta

18. Ot asboblari va yo‘l haqidagi topishmoqlar: 35 ta

19. Kem ava qurol-yaroqlar haqidagi topishmoqlar: 12 ta

20. Har xil topishmoqlar: 10 ta. Men bu tasnifni aralash topishmoqlar shaklida keltirgan bo‘lardim.

21. Ertakli topishmoqlar: 2 ta

22. Yangi topishmoqlar: 137 ta. Bu tasnifda keltirilgan topishmoqlarning barchasi hozirgi kunda yangilik xususiyatini yo‘qotib, eskirgan topishmoqqa aylangan.

23. Hazil so‘roqlar va so‘z o‘yini: 48 ta

Xulosa qilib aytganda, xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy va ommabop janrlaridan biri bo‘lgan topishmoqlarni tasniflash muammosi folklorshunoslik va tilshunoslikning doimiy diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Topishmoqlar tasnifi nafaqat mavzuviy guruhlashni, balki lingvistik, kognitiv va semiotik aspektlarni integratsiya qilgan holda, zamonaviy tilshunoslik (kognitiv va pragmatik) prinsiplari asosida yangitdan tizimlashtirishni talab etadi.

Rezyume. Ushbu maqolada xalq og‘zaki ijodining muhim janrlaridan biri bo‘lgan topishmoqlarni tasniflash prinsiplari va bu boradagi mavjud muammolar tahlil qilingan. Jahon va o‘zbek folklorshunosligi hamda tilshunosligida topishmoqlar klassifikatsiyasiga oid yetakchi olimlarning nazariy qarashlari qiyosiy o‘rganilgan. Maqolada topishmoqlarning strukturaviy, semantik va ijtimoiy-funksional xususiyatlari ochib berilgan hamda o‘zbek xalq topishmoqlari to‘plamlaridagi mavzuviy tasniflarni zamonaviy kognitiv tilshunoslik talablari asosida takomillashtirish bo‘yicha ilmiy takliflar ilgari surilgan.

Resume. This article analyzes the principles of classifying riddles as an important genre of folklore and discusses the existing problems in this field. A comparative study is conducted on the theoretical views of leading scholars in global and Uzbek folkloristics and linguistics regarding the classification of riddles. The paper highlights the structural, semantic, and socio-functional characteristics of riddles and proposes scientific recommendations for improving the thematic classification in Uzbek folk riddle collections based on the requirements of modern cognitive linguistics.

Резюме. В данной статье анализируются принципы классификации загадок как одного из ключевых жанров устного народного творчества, а также существующие проблемы в этой области. Проведен сравнительный анализ теоретических взглядов ведущих ученых мирового и узбекского фольклористики и языкознания на классификацию загадок. В работе раскрываются структурные, семантические и социально-функциональные особенности загадок, а также выдвигаются научные предложения по совершенствованию тематической классификации сборников узбекских народных загадок на основе требований современной когнитивной лингвистики.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 7
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

«VAQT» KONSEPTINING BADIIY IFODALANISHI

(O'tkir Rahmat she'riyati misolida)

Maxammatova Feruza Olimovna,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti
mustaqil tadqiqotchisi, Zarmed universiteti o'qituvchisi

Ma'lumki, bir tushuncha turli xalqlarning ongida turlicha ma'no kasb etishi mumkin. Masalan, vaqt g'arb mamlakatlarida, xususan, AQSh va Germaniyada «pul», «moddiy boylik» sifatida qabul qilinsa, Yaqin Sharq mamlakatlarida vaqt qat'iy o'lchov birligi emas, balki odamlarning ehtiyojiga moslashuvchan muhit sifatida talqin etiladi.

Bunday tushuncha zamonaviy tilshunoslikda konsept atamasi bilan ifodalanadi. Konsept atamasiga olimlar turlicha ta'rif berishgan. Rus tilshunosi V.A.Maslova «konsept lingvomadaniy o'ziga xoslikka ega bo'lgan ma'lum bir etnomadaniyat vakillarini u yoki bu tarzda tavsiflovchi semantik tuzilmadir» deb ta'riflasa[1], S.A.Askoldov konseptni «shaxsning o'zi, tevarak-atrofidagi narsalar va hodisalar haqidagi tushunchalarni o'z ichiga olgan, o'rab turgan borliqni bilishning barcha aspektlari natijalarini umumlashtiruvchi mental shakllanish»[2] sifatida ta'riflaydi. Bizningcha, konsept – insonning olam manzarasi haqida o'z tafakkuri doirasida shakllangan tushunchasini so'z orqali ifodalashidir.

Konsept muammosi jahon va o'zbek tilshunosligida bir qator ilmiy tadqiqotlarda atroflicha yoritilgan. Jumladan, O.V.Pashkevich «kontseptsiya, tushuncha, ma'no» tushunchalarini farqlash muammosiga bag'ishlangan tadqiqot olib borgan bo'lsa[3], Z.D.Popova va I.A.Sternin «Konsept mohiyati. Kognitiv tilshunoslik» nomli ishlarida konseptning mohiyatini yoritgan[4]. Sh.Safarov esa konseptlarni lingvomadaniy jihatdan tahlil qilgan «Semantika» hamda til, tafakkur va idrok masalalarini yoritgan «Kognitiv tilshunoslik» kabi risolalarni yaratgan[5].

Vaqt konseptini T.K.Yelizova, V.L.Temkina, N.E.Gorelova, O.V.Afanaseva va S.G.Klyastorniy kabi olimlarning rus, ingliz, arab, yapon hamda ispan tillaridagi «vaqt» konseptiga oid tasavvur va tushunchalarni tahlil qilgani qayd etiladi[6]. O'zbek tilshunosligida ham bu yo'nalishda bir qator dissertatsion ishlar amalga oshirilgan. M.Hakimova «O'zbek tilida vaqt ma'noli leksik-semantik maydon va uning matn shakllanish imkoniyatlari» mavzusidagi tadqiqotida payt bildiruvchi ot va ravish so'z turkumlarining matn shakllantirishdagi semantik-uslubiy xususiyatlarini o'rgangan bo'lsa[7], I.F.Mamarajabova «O'zbek tilida «vaqt» konseptli lingvistik birliklar taraqqiyoti» ishida «vaqt» ma'nosini ifodalovchi birlikning tarixiy-etimologik xususiyatlari va semantik-struktur taraqqiyotini tahlil qilgan[8]. «Vaqt» konsepti insonning umri, o'tmish, kelajak, bugun haqidagi falsafiy-estetik mushohadalarini umumlashtiruvchi tushuncha sifatida qabul qilinadi.

«O'zbek tilining izohli lug'ati»da vaqt tushunchasi voqea-hodisalarning asrlar, yillar, soatlar, daqiqalar kabi birliklar bilan o'lchanadigan davomiyligini ifodalovchi, o'z o'lchov belgisiga ega bo'lgan obyektiv hodisa sifatida izohlanadi[9]. Falsafiy nuqtayi nazardan vaqt borliqning fazo bilan bir qatorda asosiy yashash shakllaridan biri hisoblanadi: agar fazo

[1] Маслова В.А. Введение в когнитивную лингвистику. – Москва: Флинта: Наука, 2007. – С. 50.
[2] Асколдов С.А. Концепт и слово // Русская словесность. – М.: Академия, 1997. – с.269
[3] Пашкевич О.В. Концепт, понятие, значение: проблема дифференциации. https://studylib.ru/doc/641258/pashkevich.-o.v-koncept-ponyatie--znachenie-problema
[4] Попова З.Д., Стернин И.А. Понятие концепта. Когнитивная лингвистика. https://groovedownloadfree.netlify.com/kognitivnaya-lingvistika-z-d-popova-i-a-sternin.html.
[5] Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax, 2006 . Safarov Sh. Semantika. Monografiya. – Toshkent, 2013.
[6] Otahonov A.H. "Vaqt" konseptining arab va o'zbek tillaridagi qiyosiy tahlili: Bitiruv malakaviy ishi. – Toshkent, 2019. – B. 6.
[7] Ҳакимова М. Ўзбек тилида абстракт номлар семантикаси. Филол. фан. д.-ри (DSc)…дисс. – Тошкент, 2019. – 230 б
[8] Mamarajabova I.F. O'zbek tilida " Vaqt" konseptli lingvistik birliklar taraqqiyoti.Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. –Toshkent, 2024.
[9] O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent, 2022. – V jild. – B. 667.

narsalarning ko‘lami, hajmi va o‘zaro joylashish tartibini ifodalasa, vaqt hodisalarning ketma-ketligini, jarayonlarning davomiyligini ifodalaydi va, odatda, qaytarilmas o‘tmishdan hozir orqali kelajakka qarab yo‘nalgan bir tomonlama oqim sifatida talqin etiladi[1].

O‘zbek tilida vaqt konsepti faqat vaqt leksemasi bilangina emas, balki tilning barcha sath birliklari mustaqil va yordamchi so‘z turkumlari, sintaktik birliklar hamda frazemalar orqali ham ifodalanadi. So‘z turkumlari bo‘yicha vaqt konseptini ifodalovchi asosiy leksik birliklar 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval

O‘zbek tilida vaqt konseptini ifodalovchi lingvistik birliklarning so‘z turkumlari bo‘yicha taqsimlanishi

So‘z turkumi / birlik	Vaqt konseptini ifodalovchi misollar
Ot (kunning qismlari)	kun, tun, tong, tong sahar, tol tush, oqshom, bomdod, peshin, asr, shom, xufton
Ot (davomiylik)	hafta, oy, yil, asr, zamon, davr, dahr
Ot (hafta kunlari)	dushanba, seshanba, chorshanba, payshanba, juma, shanba
Ot (oy nomlari)	yanvar, fevral, mart, aprel, may, iyun, iyul, avgust, sentabr, oktabr, dekabr
Ot (fasl nomlari)	yoz, qish, bahor, kuz
Sifat	ertalabki, kechki, tushgi, sahargi, oqshomgi, tonggi, bugungi, hozirgi, ertangi, kechagi, yozgi, qishgi, kuzgi, bahorgi, bulturgi, zamonaviy, qadimiy, azaliy
Ravish	birzumda, kecha, bugun, ertaga, oldin, keyin, avval, so‘ng, tez orada, doimo, ba’zan, hamisha
Olmosh	o‘sha vaqt, o‘shanda, hozircha, o‘sha vaqtda, shu vaqti, shu lahzada
Frazeologik birlik	ko‘z ochib yumguncha, vaqtni boy bermoq, vaqti kelmaganda, shamolday uchib, tuya ko‘rmagan qishloqday

Til va tafakkurning o‘zaro munosabati mahsuli sifatida yuzaga keluvchi vaqt konsepti insonning olam manzarasini idrok etish shakllaridan biridir. Badiiy, ayniqsa she’riy kontekstda vaqt konsepti ijodkorning individual manerasini, estetik qarashlarini ifodalovchi badiiy-tasviriy vositalarga asos bo‘lib xizmat qiladi. Badiiy matnda vaqt tushunchasi voqea-hodisaning ketma-ket sodir bo‘layotganini ifodalovchi neytral birlik sifatidagina emas, balki lirik qahramonning ichki ruhiy holati, borliqqa munosabati, hayotiy falsafasi va olam manzarasini o‘ziga xoslikda ko‘ra olishini ifodalovchi kategoriya sifatida shakllanadi. Shu jihatdan O‘tkir Rahmat she’riyati ham vaqt konseptining o‘ziga xos poetik talqinini namoyon etadi.

Nazariy ma’lumotlar amaliyotga tatbiq etilgandagina o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon qiladi. Vaqt konseptini ifodalovchi leksik birliklar badiiy matn tarkibiga kirganda o‘ziga xos uslubiy imkoniyatlar kasb etadi.

Kiprik qoqqanchami umr orasi,
Yoki bir lahzada yalt etgan chaqmoq.
Junbushga solidi o‘chmas nolasi
Taqdirim baxsh etgan bir qiyo boqmoq[2].

Ushbu misrada shoir vaqt konsepti ma’nosini ifodalovchi umrni *kiprik qoqqancha* kechadigan vaqtga, bir yalt etib o‘chuvchi *chaqmoqqa* qiyoslash orqali metafora tasviriy vositasini yuzaga keltirgan. Ijodkor insonga omonat berilgan vaqtning nihoyatda qisqaligini, vaqtning o‘tkinchi tushuncha ekanligini obrazli tasvirlagan hamda vaqtning insonga bo‘ysunmasligi haqidagi falsafiy g‘oyani ilgari surgan. Aslida umr ko‘p yillar davom etadi; uni *kiprik qoqqanchalik* deb ta’riflash mubolag‘a san’atini yuzaga keltirgan. «Kiprik qoqqanchalik» va «*bir lahzalik chaqmoq*» perifrazalari vaqt konseptini ifodalash bilan birga sinonimik metaforani ham shakllantirgan.

«Qush uchsa nogoh…» she’rida vaqtning o‘tkinchi, ammo har bir kunning o‘zgacha, biri-birini takror-

[1] “Falsafa”: Ensiklopedik lug‘at. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010.
[2] O‘tkir Rahmat. Fasllar aylanar tugamaydi: She’rlar. – Toshkent, 2021. – B. 28.

lamasligi sinonimik metafora orqali tasvirlangan:

Gurkirab, guvullab, uxlamas *damlar*,
Sabzadek nish urgan maysalar xasdir.
Bu yerdan uzilib qolmas qadamlar
Bugunning kechagi kun ham emasdir[1].

Ushbu misrada vaqt konseptini ifodalovchi *damlar* leksemasi vaqtning bir qismini anglatuvchi *kun* leksemasi bilan sinonimik qator hosil qiladi. Kunlarning bir xilda o‘tmasligi *gurkirab, guvullab* harakat fe’llari vositasida ifodalangan. *Uxlamas damlar* so‘z birikmasi orqali vaqtning hech qachon to‘xtab turmasligi metaforik obraz vositasida tasvirlangan. *Sabza* – ya’ni yashil, yam-yashil *maysa – vaqt o‘tishi bilan sarg‘aygan* xasga aylanadi; bu jarayon vaqt ta’sirida predmetning ham o‘zgarib turishiga ishoradir. Demak, shoir vaqtning nafaqat insonga, balki uni o‘rab turgan tabiatga ham ta’sir o‘tkazishini falsafiy mushohada qilgan.

«Sen kelasan…» she’rida vaqtning beshafqat o‘tishi yolmog‘izga o‘xshatiladi:

Yolmog‘izday yamlar onlarni,
Uziladi barglar bandidan.
O‘tayotgan bu imkonlarni
Mahrum aylar u dilbandidan[2].

Ushbu baytda *onlar* leksemasi vaqt konseptini ifodalovchi birlik bo‘lib, daqiqa leksemasi bilan sinonimik qator shakllantiradi. Daqiqalarning tez o‘tishi *yamlamoq* fe’li orqali ifodalangan va *yolmog‘iz*ga qiyoslangan. *Yolmog‘iz* –ertaklarda yovuzlikni ifodalovchi kampir obrazi bo‘lib, so‘z yalma (yalash, yutish) va og‘iz so‘zlarining birikuvidan kelib chiqqan, ya’ni «*yamlab yutuvchi», «hamma narsani yeb-yutib yuboruvchi*» ma’nosini anglatadi. Ijodkor vaqt konseptini yolmog‘izga qiyoslash orqali o‘xshatish tasviriy vositasini qo‘llagan va vaqtning shafqatsiz, muqarrar o‘tkinchi xususiyatini tasvirlagan.

«Oy to‘lgan oqshom» to‘plamida vaqt *charx-palakka* qiyoslansa, «Dilroz» to‘plamiga kiritilgan she’rlarda vaqt *oqar suvga*, *tez esar shamolga*, *uchqur xayolga* qiyoslanadi. Ijodkor bu qiyoslashlarning barchasi zamirida vaqtning shiddat bilan o‘tishini, koinotning to‘xtovsiz harakatda ekanligini o‘quvchiga anglatishni, har bir daqiqa va soniyaning qadriga yetish zarurligini, hayotning inson uchun g‘animat ekanligini uqtirishni istaydi:

Tinchlik bermas uchqur xayollar,
Ta’nalarga yetmaydi haddim.
Karvon kabi o‘tar *oy, yillar*,
Hayot go‘zal, bu dunyo qadim…[3].

Ushbu baytda vaqt konseptini ifodalovchi *oy* va *yillar* sahroda yuruvchi *tuyalar (otlar, eshaklar) uyuridan tashkil topgan karvonga* qiyoslangan. *Karvon* yo‘lga chiqqach, manzilga yetguncha turli xil voqea-hodisalarga duch keladi – hayot yo‘li ham xuddi shunday, biroq har bir damning o‘zgacha zavqi, o‘zgacha hissiyoti bor. Ijodkor insonga berilgan umrni go‘zal o‘tkazish zarurligini o‘quvchiga anglatmoqchidek tasvirlaydi.

«Har narsaning fursati yetmas» she’rida vaqt o‘z hukmini o‘tkazsa-da, har bir ishning bajarilishi o‘z fursatiga bog‘liqligi ta’kidlanadi:

Tongdan chiqqan *kun* ham ovvora,
Har narsaning fursati yetmas.
Manzil esa bitta sayyora,
Taqdir undan qochib ketolmas[4].

Vaqt konseptini ifodalovchi *tong, kun, fursat* leksemalari bu baytda o‘z denotativ ma’nosidan chekinib, konnotativ ma’noni kasb etadi. She’rda f*ursat* leksemasi markaziy o‘rinni egallab, she’rning asosiy g‘oyasini ochib berishga xizmat qiladi: *fursat* misrada astronomik vaqt ma’nosida emas, balki har bir ishning bajarilishi, amalga oshirilishining o‘z mavridi borligini ifodalab, metafora hosil qiladi. «Tongdan chiqqan kun ham ovvora» misrasida kun vaqt birligiga *jonlantirish* vazifasi yuklanib, *ovvora* harakat fe’li bilan izohlanadi – natijada kun o‘z vazifasini bajaruvchi mavjudotdek tasvirlanadi. «Manzil esa bitta sayyora, taqdir undan qochib ketolmas» misrasida esa vaqt konsepti *taqdir* leksemasi bilan uyg‘unlashib, inson umrining chegaralangan vaqt oqimida kechishini, taqdirning bu chegaradan chiqa olmasligini ifodalaydi.

Vaqt konseptini ifodalovchi konseptosferalarni badiiy matnda nazariy jihatdan tahlil qilinganda, uning semantik va uslubiy ma’no imkoniyatlarining kengligi kuzatildi. Shoir ijodida vaqt konsepti birliklari badiiy matnni shakllantiruvchi neytral til birliklari sifatida emas, balki shiddat bilan o‘tuvchi, quvonchli va dilxiralik kunlarini o‘zida mujassam etuvchi, inson umrining chegaralanganligini ifodalovchi ma’nolarda namoyon bo‘ladi. She’rlarda vaqt konsepti *lahza, on, dam, kun, daqiqa, oy, yil, tong, fursat* kabi leksik birliklar bilan verballashib, inson umrining to‘xtovsiz harakatda ekanligini, hech bir daqiqani orqaga qaytarib bo‘lmasligini ifodalaydi.

Kontekstda ifodalangan konseptosferalarni lingvopoetik jihatdan tahlil qilganda, bu leksik birliklar estetik zavq berish vazifasini ham bajaradi. Masalan, umrni *kiprik qoqqanchalik ketuvchi vaqtga* va *chaqmoqqa*, kunlarning turlicha o‘tishini *gurkirab, guvullab* harakat fe’llari orqali metaforaga, vaqtning shiddat bilan o‘tishini *shamolga*, *oqar* suvga, yamlab

[1] O‘tkir Rahmat. Fasllar aylanar tugamaydi: She’rlar. – Toshkent, 2021. – B. 33.
[2] O‘tkir Rahmat. Fasllar aylanar tugamaydi: She’rlar. – Toshkent, 2021. – B. 34.
[3] O‘tkir Rahmat. Dilroz: She’rlar. – Toshkent, 2023. – B. 98.
[4] O‘tkir Rahmat. Fasllar aylanar tugamaydi: She’rlar. – Toshkent, 2021. – B. 155.

yutuvchi yolmog‘izga, to‘xtovsiz harakatda ekanligini charxpalakka qiyoslash orqali o‘xshatish tasviriy vositasiga, tongdan chiqqan kunning «*ovvora*»ligini tasvirlash orqali esa jonlantirishga asos bo‘lgan. Ana shu poetik vositalar orqali vaqt mavhum tushunchadan o‘quvchi ongida aniq, jonli tushunchaga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, shoir ijodida vaqt konseptining kontekstda ifodalanishini lingvopoetik jihatdan tahlil qilish ijodkorning vaqtga bo‘lgan munosabatini, shu orqali uning individual uslubini belgilash imkonini beradi. Har bir ijodkorning bu boradagi qarashlarini o‘rganish, o‘z navbatida, butun bir xalqning vaqt konseptiga bo‘lgan munosabatini – ya’ni lingvomadaniy munosabatni – belgilashga zamin yaratadi.

Rezyume. Maqolada «vaqt» konseptining tilshunoslikdagi nazariy talqinlari umumlashtirilib, uning o‘zbek tilida ifodalanish vositalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda O‘tkir Rahmat she’riyati misolida vaqt konseptining badiiy-poetik ifodalanish xususiyatlari, metafora, o‘xshatish va jonlantirish kabi tasviriy vositalar orqali yuzaga kelishi yoritiladi.

Resume. The article summarizes theoretical interpretations of the concept of «time» in linguistics and analyzes the means of its expression in the Uzbek language. Using the poetry of O‘tkir Rahmat as material, it examines the artistic-poetic features of expressing the time concept, realized through such figurative devices as metaphor, simile, and personification.

Резюме. В статье обобщаются теоретические трактовки концепта «время» в лингвистике и анализируются средства его выражения в узбекском языке. На материале поэзии Уткира Рахмата рассматриваются художественно-поэтические особенности выражения концепта времени, реализуемые через такие изобразительные средства, как метафора, сравнение и олицетворение.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 7
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

CHO'LPONNING «KECHA VA KUNDUZ» ROMANIDAGI MAQOLLARNING INGLIZCHA TARJIMALARIDA LINGVOMADANIY KONSEPTLARNING IFODALANISHI

Jumanova Orzigul,
Qarshi davlat texnika universiteti
xorijiy tillar kafedrasi assistenti

Maqollar xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribasi, dunyoqarashi, axloqiy me'yorlari va milliy qadriyatlarini o'zida mujassamlashtirgan paremiologik birliklar hisoblanadi. Shu sababli ularni badiiy asar tarkibida o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki lingvokulturologiya va tarjimashunoslik uchun ham dolzarb masalalardan biridir. Xususan, Cho'lponning «Kecha va kunduz» romanida qo'llangan maqollar qahramonlar xarakterini ochish, voqealar rivojini ta'sirchan ifodalash hamda o'zbek xalqining milliy tafakkuri va madaniy qadriyatlarini yoritishda muhim badiiy vosita vazifasini bajaradi. Nafisa Ortiqovaning ta'kidlashicha, «maqollar badiiy asarning mazmunini boyitish bilan birga o'zbek xalqining hayot falsafasi, ijtimoiy munosabatlari va an'anaviy qarashlarini aks ettirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi».[1] Mazkur maqollarning ingliz tiliga tarjima qilinishi esa alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi. Chunki maqollar tarkibidagi milliy-madaniy mazmun, diniy tasavvurlar, ijtimoiy munosabatlar hamda xalq mentalitetini ifodalovchi konseptlarni boshqa til vositalari orqali to'liq ifodalash har doim ham oson emas. Lingvokulturologik yondashuvga ko'ra, til va madaniyat o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, har bir til birligi xalqning milliy tafakkuri va konseptual olamini ifodalaydi. Xususan, konsept millatning ma'naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi tafakkur birligi bo'lib, u til vositasida namoyon bo'ladi. Sh. Safarov konseptni kognitiv tilshunoslikning markaziy tushunchalaridan biri sifatida baholab, uning inson tafakkuri va til o'rtasidagi bog 'liqlikni ochib berishini ta'kidlaydi.[2] N. Mahmudov esa tilni milliy tafakkur va madaniyatni aks ettiruvchi eng muhim vosita sifatida e'tirof etib, til birliklarini xalqning madaniy xotirasi bilan uzviy bog'liq hodisa deb hisoblaydi.[3] Z. Xalilovaning fikricha, konsept markazida qadriyat tushunchasi yotadi va aynan shu jihat til hamda madaniyat o'rtasidagi uzviy aloqani ta'minlaydi.[4] Har bir konsept umuminsoniy, milliy va individual komponentlarni o'zida mujassamlashtiradi.

Tarjimashunoslik nuqtai nazaridan madaniy birlik hisoblangan maqollatni tarjima qilish eng murakkab masalalardan biridir. Peter Newmark madaniy xos birliklarni tarjima qilishda ma'no va madaniy funksiyani saqlash ustuvor vazifa ekanligini qayd etadi hamda bunday hollarda madaniy ekvivalent, tavsifiy tarjima yoki funksional ekvivalent kabi strategiyalardan foydalanishni tavsiya etadi.[5] Mona Baker esa maqol va matallarni tarjima qilishda tarjimonning asosiy vazifasi semantik ma'noni emas, balki ularning pragmatik ta'siri va kommunikativ funksiyasini qayta yaratishdan iboratligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ekvivalent maqol mavjud bo'lsa undan foydalanish, aks holda parafraz yoki izohli tarjimaga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir.[6] Eugene Nida esa dinamik ekvivalentlik nazariyasida tarjimaning muvaffaqiyati asl matn o'quvchisida yuzaga keladigan ta'sirni tarjima o'quvchisida ham hosil qila olish bilan belgilanishini ta'kidlaydi.[7] Yuqorida keltirgan nazariy asoslarga tayangan holda mazkur tadqiqotda Cho'lponning «Kecha va kunduz» romanidagi madaniy xos maqollarning Christopher Fort va Ilhom To'xtasinov tarjimalari qiyosiy tahlil qilinib, ularda qo'llangan tarjima strategiyalari hamda lingvomadaniy konseptlarning saqlanish darajasi tahlil qilinadi.

[1] Ortiqova, N. Cho'lponning "Kecha va kunduz" asarida qo'llangan maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari //"Globallashuv davrida turkologiya rivoji masalalari va ta'lim" nomli konfrensiya. 2025. – B. 666–670.

[2] Safarov, Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – 220 b.

[3] Mahmudov, N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab... // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. – №5. – B. 3–16.

[4] Xalilova, Z. Konsept va lingvomadaniyatning o'zaro bog'liqligi // The Role of Science and Innovation in the Modern World. – London, 2023. – B. 46–47.

[5] Newmark, P. A Textbook of Translation. New York: Prentice Hall International, 1988. – 82-91 p.

[6] Baker, M. In Other Words: A Coursebook on Translation. 2nd ed. London: Routledge, 2011. – 68-77 p.

[7] Nida, E. A. Toward a Science of Translating: With Special Reference to Principles and Procedures Involved in Bible Translating. Leiden: E. J. Brill, 1964. – 159-166 p.

Cho‘lponning «Kecha va kunduz» romanida qo‘llangan maqollar qahramonlarning nutqiy xarakteristikasini yaratish, voqealarga xalqona baho berish va milliy tafakkurni ifodalash vositasi sifatida xizmat qiladi. Ushbu maqollarni ingliz tiliga tarjima qilishda Christopher Fort va Ilhom To‘xtasinov turli tarjima strategiyalaridan foydalangan bo‘lib, bu hol lingvomadaniy mazmunning saqlanish darajasiga ham ta’sir ko‘rsatgan. Roman boshida Zebixon tomonidan aytilgan «Sanamasdan sakkiz dema»[1] maqoli o‘zbek xalqining ehtiyotkorlik, sabr va shoshqaloqlikdan tiyilish haqidagi hayotiy tajribasini ifodalaydi. Ushbu maqol orqali Zebixon Saltanatxonni otasining qarorini kutishga undaydi. Christopher Fort uni ingliz tilidagi tayyor paremiologik ekvivalent – «Don’t count your chickens before they’re hatched»[2] tarzida tarjima qilgan. Mazkur tarjima ingliz tilida keng qo‘llaniladigan maqol bo‘lib, asl matndagi pragmatik ta’sirni deyarli to‘liq saqlaydi. Ilhom To‘xtasinov esa ushbu maqolni «Don’t be in a hurry»[3] shaklida tarjima qilgan. Tarjimada maqolning umumiy mazmuni saqlangan bo‘lsa-da, uning paremiologik shakli va xalqona obrazliligi yo‘qolgan. Demak, Fort lingvomadaniy konseptni ham, maqollik xususiyatini ham saqlagan bo‘lsa, To‘xtasinov asosan semantik mazmunni yetkazish bilan cheklangan.

«Kambag’al – Xudoyimning suygan bandasi»[4] – o‘zbek xalqining diniy dunyoqarashi, sabr va tavakkal konseptlarini mujassamlashtiradi. Asarda Enaxon o‘z qashshoqligidan shikoyat qilayotgan paytda ushbu maqol orqali kambag‘allikning sinov ekanligi va unga sabr bilan qarash lozimligi ifodalanadi. Christopher Fort uni «The poor are God’s most beloved servants»[5] tarzida tarjima qilgan. Tarjimada diniy mazmun saqlangan bo‘lsa-da, o‘zbek xalqiga xos emotsional ohang va xalqona ifoda biroz neytrallashgan. Ilhom To‘xtasinov mazkur maqolni tarjima qilmagan. Natijada qahramon nutqining milliy koloritini ochib beruvchi muhim lingvomadaniy birlik inglizcha matnda yo‘qolgan. Tarjimada kommunikativ ta’sirni saqlash tarjimaning asosiy mezonlaridan biri bo‘lib ushbu jihatdan Christopher Fort tarjimasi dinamik ekvivalentlikka yaqinroq bo‘lsa-da, maqolning diniy-madaniy fonini to‘liq tiklay olmaydi.

«Echkiga o‘lim, qassobga yog‘«[6] maqoli manfaatlar qarama-qarshiligini ifodalovchi xalq hikmatidir. Asarda Qurvonbibi qizining baxtsiz turmushi haqida kuyinar ekan, ushbu maqol orqali hayotdagi adolatsizlikni ifodalaydi. Christopher Fort maqolni «The goat thinks of its life and the butcher–of meat» [7] tarzida tarjima qilgan. Tarjimada maqolning obrazliligi va ikki qarama-qarshi tomon manfaatlari saqlangan. Bu funksional ekvivalentlikka yaqin yondashuv bo‘lib, o‘quvchiga asl mazmunni anglash imkonini beradi. Ilhom To‘xtasinov esa «Death of the goat does not exist for the butcher!»[8] tarzida deyarli so‘zma-so‘z tarjima qilgan. Natijada ingliz tili me’yorlariga mos kelmaydigan sintaktik qurilish yuzaga kelgan va maqolning tabiiyligi yo‘qolgan. Bu misol tarjimada formal ekvivalentlik har doim ham kommunikativ muvaffaqiyatni ta’minlamasligini ko‘rsatadi.

Miryoqub nutqida uchraydigan «Eski og‘izdan yangi so‘z»[9] maqoli kutilmagan fikr yoki odatdagi qarashlardan farqli mulohazani ifodalaydi. Mingboshining Zebiga nisbatan aytgan so’zlaridan hayratlangan Miryoqub ushbu maqol orqali o‘z ajablanishini bildiradi. Christopher Fort «A new word to add to the old-?»[10] tarjimasini tanlagan. Garchi maqolning umumiy mazmuni saqlangan bo‘lsa-da, o‘zbek tilidagi obrazlilik to‘liq tiklanmagan. Ilhom To‘xtasinovning «New words of the old mouth»[11] tarjimasi esa so‘zma-so‘z yondashuv mahsuli bo‘lib, ingliz o‘quvchisi uchun tabiiy paremiologik birlik sifatida qabul qilinmaydi.

Miryoqubning imperiya taqdiri haqidagi mulohazalari jarayonida qo llangan «Eshagiga yarasha tushovi, egasiga yarasha pagoni»[12] maqoli jamiyatdagi har bir shaxsning mavqei va ijtimoiy maqomiga mos munosabat shakllanishini ifodalaydi. Ushbu maqol orqali Miryoqub podsho hokimiyatining zaiflashuvi davlat boshqaruvi tizimiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatishini anglaydi. Christopher Fort ushbu maqolni «There›s a saddle for every ass. I guess there’s an epaulette for every officer.»[13] tarzida tarjima qilgan. Tarjimada maqolning ikki qismli parallel tuzilishi hamda obrazliligi imkon qadar saqlangan. Ayniqsa, «epaulette» leksemasining qo‘llanishi «pa-

[1] Cho‘lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent: Turon zamin nashriyoti, 2023. – 20 b.
[2] Christophor Forte. Day and Night. – US: Academic Studies Press, 2019. – 59 p.
[3] I.M. Tukhtasinov, U.R. Yuldashev, A.A. Khamidov. – Samarkand: Samarqand davlat chet tillar instituti, 2023. 26p.
[4] Cho‘lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent: Turon zamin nashriyoti, 2023. – 35b.
[5] Christophor Forte “Day and Night”. – US: Academic Studies Press, 2019. – 69p.
[6] Cho‘lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent: Turon zamin nashriyoti, 2023. – 114 b.
[7] Christophor Forte. Day and Night. – US: Academic Studies Press, 2019. – 129 p.
[8] I.M. Tukhtasinov, U.R. Yuldashev, A.A. Khamidov. – Samarkand: Samarqand davlat chet tillar instituti, 2023. 95-p.
[9] Cho‘lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent: Turon zamin nashriyoti, 2023. – 128 b.
[10] Christophor Forte “Day and Night”. – US: Academic Studies Press, 2019. – 140p.
[11] I.M. Tukhtasinov, U.R. Yuldashev, A.A. Khamidov. – Samarkand: Samarqand davlat chet tillar instituti, 2023. 106-p.
[12] Cho‘lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent: Turon zamin nashriyoti, 2023. – 159 b.
[13] Christophor Forte. Day and Night. – US: Academic Studies Press, 2019. – 165 p.

gon» tushunchasining harbiy-ma'muriy mazmunini ingliz o'quvchisiga tushunarli shaklda ifodalashga xizmat qiladi. Tarjimon bunda madaniy moslashtirish va semantik ekvivalentlikni uyg'unlashtirgan. Ilhom To'xtasinov tarjimasida mazkur maqol alohida birlik sifatida berilmagan. Bunday yondashuv matnning umumiy mazmunini soddalashtirishga xizmat qilgan bo'lsa-da, maqolning xalqona uslubi va uning badiiy-ekspressiv vazifasi inglizcha matnda to'liq namoyon bo'lmaydi. Shunga qaramay, asarning asosiy g'oyasi va Miryoqubning siyosiy mushohadalari izchil saqlanib qolgan.

Poshshaxon nutqida uchraydigan «Tashi yaltiroq, ichi qaltiroq»[1] maqoli insonning tashqi ko'rinishi bilan uning ichki mohiyati har doim ham mos kelmasligini ifodalovchi lingvomadaniy birlikdir. Asarda ushbu maqol Sultonxonning kutilmaganda samimiy va xushmuomala bo'lib qolganidan shubhalangan Poshshaxonning ichki kechinmalarini ochib beradi. Christopher Fort maqolni «Shiny on the surface, but sharp underneath»[2] [shaklida tarjima qilgan. Tarjimada asl maqoldagi qarama-qarshilik saqlangan bo'lsa-da, «qaltiroq» so'zining yashirin xavf va ishonchsizlikni anglatuvchi ma'nosi «sharp» orqali qisman qayta talqin qilingan. Natijada obrazlilik saqlanadi, biroq semantik urg'u biroz o'zgaradi. Ilhom To'xtasinov esa ushbu maqol uchun ingliz tilida keng qo'llaniladigan «Don't judge the book by its cover»[3] maqolini tanlagan. Mazkur variant o'zbek maqolining kommunikativ vazifasini va asosiy g'oyasini ingliz o'quvchisiga tabiiy tarzda yetkazadi. Garchi unda asl maqoldagi tashqi va ichki holat o'rtasidagi poetik qarama-qarshilik to'liq aks etmasa-da, pragmatik ta'sir va tarbiyaviy mazmun muvaffaqiyatli saqlangan. Shu jihatdan Christopher Fort asl obrazni, Ilhom To'xtasinov esa ingliz tilidagi paremiologik ekvivalent orqali funksional mazmunni ustuvor deb bilganini kuzatish mumkin.

«Og'zi qiyshiq bo'lsa ham boyning o'g'li gapirsin»[4] maqoli jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, boylik va mavqening inson fikriga beriladigan bahoga ta'sirini ifodalaydi. Asarda ushbu maqol boy tabaqa vakillariga ko'rsatiladigan imtiyozli munosabatni tanqidiy ruhda ochib beradi. Christopher Fort tarjimasida «Even if he's a hunchback, he's still the son of a landowner»[5] varianti qo'llanilgan. Tarjimada «boy» tushunchasi «landowner» orqali konkretlashtirilgan bo'lib, bu Cho'lpon tasvirlagan tarixiy davrning ijtimoiy tuzilishini ingliz o'quvchisiga yaqinroq tushuntirishga xizmat qiladi. Ilhom To'xtasinov esa «There is a saying the son of the rich speaks though his mouth is curved»[6] shaklini tanlagan. Ushbu tarjima asl maqolning leksik tarkibini saqlashga intilgan bo'lib, o'zbekona ifoda uslubini imkon qadar yaqinlashtirish maqsadini ko'zlaydi. Natijada milliy kolorit saqlanadi, biroq ingliz tili paremiologik me'yorlari nuqtai nazaridan ibora tabiiyroq shaklga ehtiyoj sezadi. Har ikkala tarjima ijtimoiy tengsizlik konseptini ifodalashda o'ziga xos yondashuvni namoyish etadi: biri tarixiy-madaniy moslashtirishni, ikkinchisi esa milliy ifoda shaklini saqlashni ustuvor deb biladi.

Roman davomida qo'llangan «Puli borning gapi o'ng, puli yo'qning gapi to'ng»[7] maqoli moddiy boylikning jamiyatdagi mavqe va inson fikrining qabul qilinishiga ta'sirini ifodalaydi. Ushbu maqol orqali Cho'lpon o'sha davrdagi ijtimoiy adolatsizlik va iqtisodiy tafovutlarni xalqona hikmat vositasida yoritadi. Christopher Fort «*Whoever has the money has the right*»[8] tarzidagi tarjimani tanlagan. Tarjimada maqolning asosiy g'oyasi ixcham va tabiiy ifodalangan bo'lib, ingliz o'quvchisi uchun tushunarli pragmatik ta'sir hosil qiladi. Ilhom To'xtasinov esa «A rich man's word is right, but a poor man's is left»[9] variantini qo'llagan. Ushbu tarjima o'zbek maqolining sintaktik parallelizmi va qarama-qarshi tuzilishini saqlashga intiladi. «Right» va «left» qarama-qarshiligi orqali asl matndagi «o'ng» va «to'ng» so'z o'yiniga ma'lum darajada yaqinlashilgan. Bunda tarjimon maqolning badiiy shaklini saqlashga alohida e'tibor qaratgan. Ikkala tarjima ham ijtimoiy tengsizlik konseptini ifodalashga xizmat qiladi, biroq Christopher Fort kommunikativ tabiiylikni, Ilhom To'xtasinov esa asl maqolning strukturaviy xususiyatlarini saqlashni ustuvor yo'nalish sifatida tanlagan. Shu bois har ikkala tarjima o'z metodologik yondashuvi bilan bir-birini to'ldiradi va maqolning turli jihatlarini ingliz tilida aks ettirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, Cho'lponning «Kecha va kunduz» romanida qo'llangan maqollar asarning badiiy-estetik qiymatini oshirish bilan birga, o'zbek xalqining milliy tafakkuri, axloqiy qarashlari, diniy e'tiqodi va ijtimoiy munosabatlarini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy birliklar hisoblanadi. Ularning ingliz tiliga tarjimasida Christopher Fort va Ilhom

[1] Cho'lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent: Turon zamin nashriyoti, 2023. – 215 b.
[2] Christophor Forte. Day and Night. – US: Academic Studies Press, 2019. – 208 p
[3] I.M. Tukhtasinov, U.R. Yuldashev, A.A. Khamidov. – Samarkand: Samarqand davlat chet tillar instituti, 2023. 158-p.
[4] Cho'lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent: Turon zamin nashriyoti, 2023. – 261 b.
[5] Christophor Forte. Day and Night. – US: Academic Studies Press, 2019. – 242 p.
[6] I.M. Tukhtasinov, U.R. Yuldashev, A.A. Khamidov. – Samarkand: Samarqand davlat chet tillar instituti, 2023. 195p.
[7] Cho'lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent: Turon zamin nashriyoti, 2023. – 261 b.
[8] Christophor Forte. Day and Night. – US: Academic Studies Press, 2019. – 242p.
[9] I.M. Tukhtasinov, U.R. Yuldashev, A.A. Khamidov. – Samarkand: Samarqand davlat chet tillar instituti, 2023. 195p.

To‘xtasinov turli tarjima strategiyalaridan foydalangan. Christopher Fort ko‘proq madaniy va funksional ekvivalentlikka tayanib, ingliz tilida tabiiy qabul qilinadigan paremiologik birliklarni tanlash orqali maqollarning pragmatik ta’siri hamda kommunikativ vazifasini saqlashga intilgan. Ilhom To‘xtasinov esa ayrim hollarda asl matnning leksik-semantik tuzilishini saqlashga, ayrim hollarda esa parafraz va tayyor ingliz maqollaridan foydalanishga ustuvorlik bergan. Har ikki tarjimada maqollarning asosiy mazmuni yetkazilgan bo‘lsa-da, ayrim lingvomadaniy konseptlar va milliy kolorit turlicha darajada ifodalangan. Tadqiqot natijalari maqollar tarjimasida faqat semantik ekvivalentlik emas, balki ularning madaniy, pragmatik va konseptual xususiyatlarini ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Bu esa o‘zbek badiiy asarlarining ingliz tiliga tarjimasida lingvomadaniy yondashuvni qo‘llash ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi.

Rezyume. Mazkur maqolada Cho‘lponning «Kecha va kunduz» romanida qo‘llangan madaniy xos maqollarning Christopher Fort va Ilhom To‘xtasinov tomonidan amalga oshirilgan inglizcha tarjimalari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda maqollarning lingvomadaniy konseptlari, tarjima strategiyalari hamda milliy-madaniy mazmunning saqlanish darajasi o‘rganildi. Tahlil natijalari Christopher Fort tarjimasida madaniy va funksional ekvivalentlik strategiyalari ustunligini, Ilhom To‘xtasinov tarjimasida esa literal tarjima, parafraz va ayrim hollarda madaniy ekvivalentlardan foydalanilganini ko’rsatdi. Tadqiqot maqollar tarjimasida lingvomadaniy yondashuvning muhimligini asoslaydi.

Rezyume. This article presents a comparative analysis of the English translations of culture-specific Uzbek proverbs in Cho‘lpon’s novel Night and Day, translated by Christopher Fort and Ilhom To‘xtasinov. The study examines the linguocultural concepts embodied in the proverbs, the translation strategies employed by both translators, and the degree to which the national and cultural meanings are preserved in the target language. The findings indicate that Christopher Fort primarily employs cultural and functional equivalence, whereas Ilhom To’xtasinov mainly relies on literal translation, paraphrase, and, in some cases, cultural equivalents. The research highlights the importance of a linguocultural approach in translating proverbs and other culture-bound expressions.

Резюме. В данной статье проводится сравнительный анализ английских переводов культурно-специфических узбекских пословиц, использованных в романе Чулпана «Ночь и день», выполненных Кристофером Фортом и Илхомом Тухтасиновым. Исследуются лингвокультурные концепты, отражённые в пословицах, переводческие стратегии, а также степень сохранения национально-культурного содержания в переводе. Результаты исследования показывают, что Кристофер Форт преимущественно использует стратегии культурной и функциональной эквивалентности, тогда как Илхом Тухтасинов чаще прибегает к буквальному переводу, перефразированию и, в отдельных случаях, к использованию культурных эквивалентов. Исследование подтверждает важность лингвокультурного подхода при переводе пословиц и других культурно маркированных языковых единиц.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 7
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

G'AFUR G'ULOM «SHUM BOLA» ASARIDAGI MONOSEMANTIK VA POLISEMANTIK SO'ZLAR TAHLILI

Ikromova Charosxon,
O'zbekiston Milliy universiteti magistranti

O'zbek tilshunosligida badiiy matn leksikasini o'rganish muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, G'afur G'ulomning «Shum bola» asari til imkoniyatlarini, so'zlarning semantik boyligini va tarixiy taraqqiyotini yoritishda muhim manba sanaladi. Asarda bir ma'noli (monosemantik) va ko'p ma'noli (polisemantik) leksemalarning o'rinli qo'llanishi muallif uslubining asosiy lingvistik xususiyatlaridan biridir. So'z ma'nolarining kengayishi, o'zgarishi va konnotativ jihatlarining yuzaga chiqishi badiiy matnning ifodaviyligini oshiradi.

G'afur G'ulom asarlari leksikasining o'ziga xosligini asoslovchi lingvistik omillardan biri polisemantik so'zlar, omonimlar, sinonimik paradigma, antonimlarning o'z o'rnida qo'llanishidir. Leksemalarni diaxron jihatdan o'rganishda tilning rivojlanish bosqichlariga alohida e'tibor qaratiladi. Shuning uchun tarixiy jarayonlar so'z ma'nolarining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi. So'z ma'nosi iste'mol doirasining kengayishi, uning ma'no ottenkasidagi o'zgarishlar ham til taraqqiyotida o'ziga xos mavqeni egallaydi[1]. So'zlarning yangi ma'nolar bilan boyib borishi qonuniy jarayon hisoblanadi. Leksikada har bir leksema ma'nosining o'zgarishi, yangi ma'noda qo'llanishi, iste'moldan chiqishi, uning passivlashishi va faollashishi kabi jarayonlar kuzatiladi. Shu nuqtai nazardan so'z ma'nosini tarixiylik asosida tekshirib aniqlash yangi so'zlarning yuzaga kelishi qonuniyatlarini ochib berishda ayniqsa ahamiyatlidir[2]. So'z tarixan jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan. Yangi leksemaning ma'no nozikliklari tilda, xalq jonli so'zlashuv tilida mustahkam o'rin egallaydi. Har bir leksik birlik o'rni bilan bir-biriga yaqin yoki alohida-alohida tushunchalarni anglatishi mumkin. So'z ma'nolari va ma'no nozikliklari bosh va ko'chma ma'nolar kabi alohidalikka egaligi bilan ajralib turadi. So'z ma'nolaridan biri individual tarzda, boshqa holatlari esa kishilar tomonidan ko'chma ma'no hosil qilish jihatlariga ko'ra ajratiladi.

Leksik monosemiya (yunoncha: monos – «bir» sema – «belgi») – leksemaning ichki (mazmun) tomonidan faqat bitta leksik ma'noning bo'lishi. Masalan o'zbek tilidagi ***guruch*** leksemasi «sholidan oqlab olinadigan oshlik don» ma'nosini, ***abadiy*** leksemasi «mangu, doimiy» ma'nosini, ***tun*** leksemasi «sutkaning kun botishidan kun chiqqungacha, oqshomdan tong otguncha bo'lgan qismi» ma'nosini ifodalaydi. Bu leksemalarning boshqa ma'nolari yo'q.

Monosemiya hodisasi o'zbek tilshunosligida bir ma'nolilik deb ham yuritiladi. Bir ma'nolilik ko'proq terminlarga, yangi yaratilgan yoki boshqa tildan yangi o'zlashtirilgan leksemalarning boshlang'ich ishlatilish davriga xosdir: to'rtburchak (matem. termin), supermarket (yangi o'zlashtirilgan so'z) va b.lar[3].

Yangi yaratilgan yoki boshqa tildan yangi o'zlashtirilgan leksemalar vaqt o'tishi bilan turli lisoniy va nolisoniy omillar ta'sirida ko'p ma'noli leksemalarga aylanib qolishi mumkin. Nutqda esa buning aksi yuz beradi: ko'p ma'noli leksemaning faqat bitta ma'nosi voqelanadi. Atoqli otlar ham shartli ravishda monosemantik leksemalar qatoriga qo'shiladi[4]. Bir ma'noli so'zlardan ayrimlarini keltirib o'tamiz.

[f.زامن -musulmonlarda ollotaologa ibodat, duolar]
1 Musulmonlarning kuniga besh mahal qilinadigan ibodatlari majmui va ularning har biri. (O'TIL, III, 15) ma'nosini ifodalagan ***namoz*** leksemasini «Shum bola» asari matnida uchratish mumkin:

Namoz*dan keyin qalandarlar bilan birga yengil-yelpi nonushta qilgan bo'ldik* (58-bet).

Ikkovimiz ikki tomonga ketdik. Omonning ***ketmoni*** *bilan mening qumriga movoza qilgan mollarimni bozorga soldik (21-bet).* Ushbu gapda qo'llanilgan *«yuzi katta, orqa tomonida dasta suqib qo'yadigan zo'g'arasi bor, yer chopish, loy qilish va b. ishlarda ishlatiladigan dastakli asbob» ma'nosini ifodalaydigan* (O'TIL, II, 358) ***ketmon*** so'zi ham bir ma'noli so'z sanaladi.

[1] Абдушукуров Б. "Қисаси Рабғузий" лексикаси. –Тошкент: Академия, 2008. – Б.118.
[2] Муталлибов С. Морфология ва лексика тарихидан қисқача очерк. – Тошкент: Фан, 1959. – Б.167.
[3] Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T., 2013. –B.260-261.
[4] Tursunov U., Muxtorov J., Ranmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: O'zbekiston,1992. – B.80.

Masjid istilohi [a. مسجد – sajda qilinadigan, namoz o‘qiladigan joy, machit; ibodatxona] Musulmonlarning jam bo‘lib, namoz o‘qiydigan ibodatxonasi (O‘TIL, II, 550) ma’nosini ifodalab bir ma’noli so‘z hisoblanadi. Ushbu so‘zni asar matnida machit shaklida ko‘rishimiz mumkin:

*Namozshomdan saharlik oshgacha **machit-ma-machit** yurib qorilarning qiroatini eshitamiz* (7-bet).

Mazmuniy maydonlarda polisemantik so‘zlarning denotativ va konnotativ ma’no munosabatlari o‘ziga xos o‘rin tutadi. Ko‘p ma’nolilik haqida fikr yuritilganda, birinchi galda, shubhasiz, ism va fe’l kategoriyasiga oid, chunonchi, narsa-buyumni anglatuvchi, ish-harakatni ifodalovchi leksemalar ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi. So‘zlar o‘rtasidagi ichki ma’no farqlanishi bilan bog‘liq paradigmatik va sintagmatik munosabatlar omonimiya, polisemiya, sinonimiya, antonimiya kabi hodisalar, so‘zlarning leksik-semantik variantlarini tasnif qilish jarayonida kengroq ochiladi. M.Mirtojiyevning e’tiroficha, polisemiya hodisasiga sof lingvistik nuqtayi nazardan yondashish M.Brealdan boshlangan. Bu borada bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Alisher Navoiy asarlarida ko‘p ma’nolikdan mohirona foydalangan. Ma’lumki, so‘zlarning asosiy qismi leksik yoki grammatik ma’no kasb etadi. Tilda sodir bo‘luvchi tabiiy hodisalar polisemiya, omonimiya, antonimiya va sinonimiyada in’ikosini topadi. So‘z avval yakka ma’no anglatib, davrlar o‘tishi bilan ko‘p ma’noni ifodalashi polisemiyadir. Umumiste’moldagi so‘zlarning asosiy qismini ko‘p ma’noli so‘zlar tashkil etadi. Polisemiya ancha murakkab hodisa bo‘lib, so‘z semantik qurilishida mavjud bo‘lgan har bir ma’noni belgilash ancha qiyin, shu bilan birga, ko‘p ma’nolik ham amaliy, ham nazariy ahamiyatga molikdir. Bunda, ayniqsa, polisemiyani unga yondash bo‘lgan hodisalardan farqlab olish muhimdir[1].

Polisemantik so‘zlar tilning ifoda imkoniyatlarini, leksemaning semantik mundarijasini to‘liq yoritishga xizmat qiluvchi lingvistik hodisadir. Adibning «Shum bola» leksikasining hozirgi o‘zbek adabiy tiliga munosabatini tahlil qilish jarayonida undagi polisemantik so‘zlarning hozirgiga nisbatan keng semantik mundarijaga ega ekanligi kuzatildi. Leksema – yaxlitlikdagi ifoda va mazmun planiga ega bo‘lgan til birligi sanaladi. Leksemaning so‘zdan farqi va uning ifoda ko‘lamini o‘rganish o‘zbek tilining imkoniyatlari, xarakterli jihatlarini tahlil qilishda muhimdir. Leksema tabiatiga xos jihatlarni talqin etishda badiiy matn ahamiyatli o‘rin tutadi. Badiiy matnda: leksemaning semantik ko‘lami, ma’no xususiyatlari aks etadi; leksemaning til birligi sifatida ko‘zga tashlanmagan semalari namoyon bo‘ladi; leksema muallif mahorati darajasida qo‘llanadi va matn talabiga ko‘ra yangicha semalar shakllanadi[2].

«Shum bola» asari tili ta’sirchan tasvir usullariga boy. Leksemalarning aksariyati denotativ xarakterda bo‘lishiga qaramay, asar tilining jozibadorligini ta’minlashda konnotatsiyaning o‘rni beqiyosdir.

Asarda keltirilgan misollarga murojaat qilamiz:

[*f.* هوی – hosil, ho‘l va quruq meva] **1)** Ba’zi daraxt va butalarning hosili; **2)** Mevali daraxt; **3)** *ko‘chma* Samara, natija, mahsul; **4)** Shakarpazlik mahsulotlari, shirinlik (O‘TIL, II, 576) ma’nosini ifodalaydigan ***meva*** leksemasi asar so‘z boyligida *«mevali daraxt»* ma’nosida namoyon bo‘lgan: *Saratonda jiyda **meva**lari danagiga alif yozdirish uchun Makkaga ketadi* (16-bet).

Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘oti-t-turk» asarida ***xatun*** leksemasi «hukmdor, davlat boshlig‘i xotini; xonim, malika» ma’nosini ifodalashini ta’kidlagan (I, 388). L.Budagov lug‘atida leksemaning ***xátun, xadun, kat’*** fonetik variantlari keltirilgan, ular *«zavja; xotin kishi; xonim»* kabi ma’nolarni anglatgan (BD, I, 524). *Qatun//xátun* o‘zlashmasining ma’noviy taraqqiyot yo‘lini quyidagicha sharhlash mumkin[3]. Dastlab, u *«zodagon ayol, xonim, malika»,* so‘ngra «zavja; ayol kishi» ma’nolarini anglatish uchun xizmat qilgan. Lekin *«beka, xonim»* ma’no ottenkasi ushbu so‘z tomonidan ifodalanavergan. Qadimgi turkiy tilda xátun leksemasi qatun shaklida qo‘llanib, «xonim, mansabdor ayol, aslzoda xotin, hukmdor ayol» (DTS, 436), eski o‘zbek adabiy tilida *«ayol, xotun»* ma’nosini bildirgan (ANATIL, III, 422), hozirgi o‘zbek adabiy tilida **1)** jinsiy jihatdan erkak toifasiga zid, farzand ko‘rish, emizish qobiliyatiga ega odam; ayol; **2)** biror erkak nikohidagi ayol (O‘TIL, IV, 415) ma’nolarida qo‘llanmoqda: (44a4) Taxt-ï xátun degän yerdin azimat musammam boldï (XM, 44a5). *G‘. G‘ulomning «Shum bola» asarida esa bu so‘z‘«ayol, xotun»* ma’nosini ifodalagan: ***Xotin** chiqib ketgandan keyin tandirning sarpo‘shini olib, bir oz erkinroq nafas oldim* (47-bet) kabi.

«Pishirilgan issiq ovqat» ma’nosidagi ***aš*** leksemasi (O‘TIL, III, 168) ANATILda *«ovqat, taom»* (II, 540) ma’nosida voqelangan. Mazkur so‘z adib asarida esa *«ovqat, taom»* ma’nosida qo‘llanilgan: *Oshpazlar cho‘michlab suzib berib turibdi. Bir tovoq uvra **osh**dan bir nima chiqdi shekilli, xo‘randa: – Buning nimasi? Pashshami? – deb so‘rab qolgan edi,* (22-bet) va h.k.

[1] Xo‘janiyozova Sh. Alisher Navoiyning manoqib asarlari leksikasi. (Monografiya). – Toshkent, 2023. – B. 66.
[2] Xolmanova Z. “Boburnoma” leksikasi. – T.: Fan, 2007. – B.128.
[3] Xo‘janiyozova Sh. Alisher Navoiyning manoqib asarlari leksikasi. (Monografiya). – Toshkent, 2023. – B. 66.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida *jayb* so‘zining o‘rniga ko‘proq «*cho‘ntak, kissa*» leksemalari ishlatiladi[1]. ***Cho‘ntak*** *«kiyimda zarur yengil narsalarni solish uchun tikiladigan ichki yoki tashqi xaltacha; kissa»* ma’nolarini bildiradi. «Devonu lug‘oti-t turk» asarida *čontak* o‘rnida *kÿnčÿk* (I, 444), *jančuq* (III, 52) so‘zlari ishlatilgan. *Kissa* va *čontak* ma’nodosh bo‘lib, ular bir xil vazifani bajargan. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida *kissa «og‘zi bog‘ichli pul soladigan xaltacha»* hamda *«kiyim qismi - cho‘ntak»* ma’nolarini bildiradi (O‘TIL, II, 376). Holbuki, shevalarda ***cho‘ntak*** so‘zi o‘rnida *kissa* qo‘llanilaveradi. Masalan, Xorazmda *kissa, kiysa;* Qashqadaryo, Andijon, Qo‘qonda kista, Surxondaryoda *kissa* tarzida talaffuz qilinadi. Ko‘rinadiki, eski o‘zbek adabiy tilida *kissa, yančuq* bo‘lsa-da, XVI asrdan so‘ng asosan *čontak* so‘zi umumlasha borgan. *G‘.G‘ulomning «Shum bola» asarida esa bu so‘z «og‘zi bog‘ichli pul soladigan xaltacha»* ma’nosini ifodalagan: *Olacha yaktagimning **cho‘ntagi,** yengim, lippam oshiqqa to‘lib ketgan edi* (10-bet).

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida [f. هزوب – tariqdan qilingan ichimlik] *«Oqshoq, tariq, arpa va sh.k. donlardan tayyorlanadigan, kayf beradigan ichimlik»* (O‘TIL, IV,549) ma’nosini ifodalovchi ***bo‘za*** leksemasi asar matnida aynan shu ma’noda qo‘llanilgan: *Novcha yigit suzgan **bo‘za**dan ozgina tatib ko‘rib, birinchi oyoqni Sultonga uzatdi* (29-bet).

[*a.* ناوىح – tirik narsa, har bir tirik jon] **1)** *zool.* Harakat qilish va sezish qobiliyatiga ega bo‘lgan har bir tirik mavjudot; jonivor; **2)** Insondan boshqa har qanday jonivor; **3)** *ko‘chma* Odati, qilig‘i, xatti-harakati va sh.k. jihatdan hayvonga o‘xshashlikni, hayvonga nisbatli haqoratni bildiradi (O‘TIL, V, 482) ma’nosini ifodalaydigan ***hayvon*** so‘zi asar so‘z boyligida «jonivor» ma’nosida qo‘llangan:

*Jon bermoqchi bo‘lgan **hayvon** eng so‘nggi nafasida ma’rab qolmoqchi bo‘ldimi, ichidan butun o‘pkaning siqilib yoyilishidan paydo bo‘lgan hansiraish bilan katta hammomning dudburoniday pishqirib yubordi* (44-bet).

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida [f.ادخ-iloh, xudo; hukmdor xo‘jayin] ma’nosini ifodalagan ***Xudoyo*** leksemasi *«diniy tushunchaga, xususan, islom diniga ko‘ra, butun mavjudotni, butun olamni yaratgan va uni boshqaruvchi oliy ilohiy kuch; har qanday dinning e’tiqod qilish asosi»* ma’nosini anglatadi:

*– Obi **Xudoyi,** obi **Xudoyi**, – deb chanqaganlarga suv ulashib yuribdi* (23-bet).

*– Ey **Xudo,** quruq tuhmatingdan asra, qanday baloga yo‘liqdim, O‘zing saqla! – deb javob berar edi u* (24-bet).

*– Bu baraka topgurlarni bizga **Xudo** yetkazdi* (81-bet).

[1. Oyoq kaftining orqa qismi. 2. Oyoq kiyimining shu joyga to‘g‘ri keladigan qismi. 3. Keltirilgan zararni qoplash uchun to‘lanadigan yoki olinadigan haq.Tovon olmoq. Tovon to‘lamoq. 4. Jo‘nalish kelishigidagi so‘z bilan qo‘llanib, biror narsa, ish-harakatning shu kelishikdagi so‘z bildirgan shaxs zimmasida ekanligini bildiradi] ma’nolarini ifodalaydigan ***tovon*** leksemasi *«keltirilgan zararni qoplash uchun to‘lanadigan yoki olinadigan haq»* ma’nosida qo‘llangan: *Ey, bola bechora. Baxti qora yetim. Hoji bobo, hamma yo‘qolgan narsalarning **tovonini** men beraman. Necha pul bo‘ladi?* (148-bet).

Xulosa qilib aytganda, polisemantik so‘zlar tilning ifoda imkoniyatlarini, leksemaning semantik mundarijasini to‘liq yoritishga xizmat qiluvchi lingvistik hodisadir. G‘afur G‘ulomning «Shum bola» asari leksikasining hozirgi o‘zbek adabiy tiliga munosabatini tahlil qilish jarayonida undagi polisemantik so‘zlarning hozirgiga nisbatan keng semantik mundarijaga ega ekanligi kuzatildi.

Rezyume. Maqolada G‘afur G‘ulom «Shum bola» asari leksikasi asosida bir ma’noli (monosemantik) va ko‘p ma’noli (polisemantik) so‘zlarning xususiyatlari tahlil qilinadi. Unda leksemalarning tarixiy taraqqiyoti, ma’no o‘zgarishlari hamda badiiy matndagi denotativ va konnotativ jihatlari yoritilib, polisemantik so‘zlarning ifodaviylikni oshirishdagi o‘rni ko‘rsatib beriladi.

Resume. This article analyzes the lexical features of mono-semantic and polysemantic words based on G‘afur G‘ulom’s «Shum bola». It examines the historical development of lexemes, semantic changes, and their denotative and connotative functions in the literary text, highlighting the role of polysemantic words in enhancing expressiveness.

Резюме. В статье на основе лексики произведения Гафур Гулям «Шум бола» анализируются особенности однозначных (моносемантических) и многозначных (полисемантических) слов. В ней освещаются историческое развитие лексем, изменения их значений, а также денотативные и коннотативные аспекты художественного текста, при этом показывается роль полисемантических слов в повышении выразительности.

[1] Xo‘janiyozova Sh. Alisher Navoiyning manoqib asarlari leksikasi. (Monografiya). – Toshkent, 2023. – B. 66.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 7
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA "FIGURA-FON" TAMOYILI HAQIDA

Qurbonova Kamola Abdurahmonovna,
Namangan davlat universiteti talabasi

Tilshunoslik va kongnitivistika sohalarini o'zida jamlagan yo'nalish bo'lmish kognitiv tilshunoslik rivoji tilshunoslikka yangicha yondashuvni ta'minlaydi. Ushbu yo'nalishni ham boshqa barcha sohalar singari o'zi ish ko'ruvchi maxsus terminlari mavjud bo'lib, bu yo'nalishni chuqurroq tushunishga va tadqiq etishga yordam beradi. Shunday terminlardan biri sifatida "figura-fon" tamoyilini ko'rish mumkin.

Figura-fon tamoyili kognitiv tilshunoslikning asosiy nazariy tushunchalaridan biri bo'lib, insonning borliqni idrok etish va uni lisoniy vositalar orqali konseptuallashtirish mexanizmlarini tushuntirishda muhim o'rin tutadi. Mazkur tamoyilning nazariy asoslari XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllangan geshtalt psixologiyasiga borib taqaladi. Maks Vertgeymer, Volfgang Kohler va Kurt Koffka tomonidan ishlab chiqilgan ushbu yo'nalish vakillari inson idroki alohida qismlarni emas, balki yaxlit tuzilmalarni qabul qilishini ta'kidlaganlar. Geshtalt nazariyasiga ko'ra, idrok jarayonida obyekt va uning atrofidagi muhit o'rtasida tabiiy ravishda figura va fon munosabati shakllanadi.

